

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES

huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2021/4



TAHRIR HAY'ATI

TASHKULOV AKBAR DJURAYEVICH

Bosh muharrir, Toshkent davlat yuridik universiteti rektori

SALAYEV NODIRBEK SAPARBAYEVICH

Bosh muharrir o'rinbosari, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d., professor

SAIDOV AKMAL XOLMATOVICH

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi spikerining birinchi o'rinbosari, y.f.d., akademik

AVTIONOVA NATALYA VLADIMIROVNA

Rossiya Federatsiyasi A.S. Griboyedov nomidagi Xalqaro huquq va iqtisodiyot instituti birinchi prorektori, pedagogika fanlari nomzodi

BORZU SABAH

Amerika Qo'shma Shtatlarining Xalqaro huquq instituti direktori, professor, huquq doktori

SKIBA ANDREY PETROVICH

Rossiya Federatsiyasi Federal jazoni ijro etish xizmati Akademiyasining Jinoyat-ijroiya huquqi kafedrasini mudiri, professor, yuridik fanlar doktori

NADJA ALEXANDER

Singapur menejmenti instituti Huquq maktabi professori, huquq doktori

EDWARD JUCHNIEWICZ

Polshaning Gdansk universiteti Huquq va boshqaruv fakulteti Moliyaviy huquq kafedrasini professori, huquq doktori

ROLF KNIEPER

Germaniyaning Bremen universiteti Fuqarolik, iqtisodiy va qiyosiy huquqshunoslik fanlari professori, huquq doktori

SUMACHEV ALEKSEY VITALEVICH

Rossiya Federatsiyasi Yugor davlat universiteti Yuridik instituti Jinoyat huquqi va jinoyat protsessi kafedrasini professori, yuridik fanlar doktori

KOTA FUKUI

Yaponiyaning Osaka universiteti Oliy huquq va siyosat maktabi professori, huquq doktori

YOKOMIZO DAI

Yaponiyaning Nagoya universiteti Huquq fakulteti professori

JOAN BLUM

Amerika Qo'shma Shtatlarining Boston kolleji Huquq maktabi professori, huquq doktori

ISMAIL YAZICIOGLU

Turkiyaning Boyazid Yildirim nomidagi Anqara universiteti Huquq fakulteti professori, huquq doktori

CHORIYEV ORIFJON ABDISOBIR O'G'LI

Toshkent davlat yuridik universiteti Tahririy-nashriyot bo'limi boshlig'i, mas'ul muharrir

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

правовой научно-практический журнал

REVIEW OF LAW SCIENCES

legal scientific-practical journal

"Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 2020-yil 22-dekabrda 0931-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan. Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

ISSN 2181-919X

© Toshkent davlat yuridik universiteti

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ
NAZARIYASI VA TARIXI.
HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

6 **SHODMONOV MIRZOHI MUXTOR O'G'LI**
Siyosiy partiyaning huquqiy mohiyati va uning
nazariy-huquqiy tahlili

13 **BOYMURODOV BOTIR PANJI O'G'LI**
Norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar
ishtirokining nazariy asoslari tahlili

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ.
MA'MURIY HUQUQ.
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

22 **PO'LATOV MIRZOHI QO'ZIMURODOVICH**
Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish –
Konstitutsiya himoyasida

31 **USMANOV OTABEK ODILBEK UGLI**
Organizational and legal aspects of transition
to digital technologies and forms of electronic
public control Uzbekistan

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.
TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA
HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

39 **ISAGULOV SHUHRAT NORQOVULOVIH**
ACHILOVA LILIYA ILHOMOVNA
Turizm va migratsiya: joriy holat va istiqbol

47 **IMOMOV NURILLO FAYZULLAYEVICH**
O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bo'yicha
yuridik shaxs muassisi javobgarligining nazariy
va amaliy muammolari

57 **ЭГАМБЕРДИЕВ ЭДУАРД ХАЖИБАЕВИЧ**
Некоторые проблемы определения
гражданско-правового статуса виртуального
мира и его объектов

66 **IBROHIMOV AZIMJON ABDUMO'MIN O'G'LI**
Korporatsiyani boshqarishda fidusiar
majburiyatlar va ularni O'zbekistonda qo'llash
imkoniyatlari

74 **JURAYEVA ASAL BAKHTIEVNA**
CHAOEN WANG
Whose choice of law in arbitration: approaches
of cis on applicable law

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL
HUQUQI. XO‘JALIK PROTSESSUAL
HUQUQI. HAKAMLIK JARAYONI VA
MEDIATSIYA

- 84 **PIRMATOV OTABEK SHAVKATOVICH**
Onlayn sud majlisleri fuqarolik sud majlislarini
virtuallashtirishning yangi bosqichi

12.00.06 – TABIIY RESURLAR HUQUQI.
AGRAR HUQUQ. EKOLOGIK HUQUQ

- 91 **UZAKOVA GO‘ZAL SHARIPOVNA**
Shaharsozlik sohasida ekologik talablarga rioya
etishning huquqiy masalalari

12.00.07 – SUD HOKIMIYATI.
PROKUROR NAZORATI. HUQUQNI
MUHOFAZA QILISH FAOLIYATINI
TASHKIL ETISH. ADVOKATURA

- 100 **BAKAYEV SHAXRIYOR BAXTIYOROVICH**
Ma‘muriy sud ish yurituvining o‘ziga xos
xususiyatlari va uning tashkiliy-huquqiy asoslari

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI
OLISH. KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 107 **SAGDULLAYEV FATHULLA
SHUKURULLAYEVICH**
Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan
chetga chiqishning obyekti yuzasidan ayrim
mulohazalar
- 114 **NAJIMOV MIRATDIYIN
SHAMSHETDINOVICH**
O‘n olti yoshga to‘lmagan shaxsga nisbatan
uyatsiz-buzuq harakatlar qilish jinoyati
tushunchasi va ahamiyati
- 119 **DJALILOV FURKAT ZAKIROVICH**
Davlat xizmatchisining mulkiy manfaatdorligi
bilan bog‘liq jinoyatlarning obyekti yuzasidan
ayrim mulohazalar
- 126 **ХАМИТОВ БАУЫРЖАН НУРАБАЙУЛЫ**
Противодействие рейдерству: мировой опыт

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.
KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV
HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

- 134 **ABDULLAYEV RUSTAM QAHRAMONOVICH**
Hodisa joyini ko'zdan kechirishning kriminalistik ta'minoti samaradorligi hamda natijaviyligi tushunchalari haqida ayrim fikrlar
- 140 **ИЛЬДЕБАЕВ РИЗАБЕК ЕРМАГАМБЕТ**
К проблеме последующего этапа расследования преступлений, связанных с подделкой документов в сфере образовательной деятельности
- 150 **САХАТОВА САМАЛ ЕРБОЛАТОВНА**
Буллинг среди несовершеннолетних как один из факторов формирования личности преступника
- 156 **AMANBAYEVA ALTINAY GALIMJANOVNA**
Voyaga yetmaganlarning jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyatlarni tergov qilish kriminalistik usullarining zamonaviy yo'nalishlari shakllanishi va rivojlanishi tahlili

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 163 **MUSAEV DJAMALIDDIN KAMALOVICH**
International legal mechanism for monitoring compliance with agreements on cooperation between states in the fight against illicit trafficking in narcotic drugs
- 173 **EGAMBERDIYEV DILSHOD ALISHEROVICH**
Nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish vositasi sifatida xalqaro tergov komissiyalari tuzishning xalqaro-huquqiy asoslari

12.00.12 – KORRUPSIYA MUAMMOLARI

- 181 **QO'CHQOROV ZAFARJON QAYUMJON O'G'LI**
Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy huquqbuzarlik shakllari, tasnifi va o'ziga xos xususiyatlari

13.00.02 – TA'LIM VA TARBIYA
NAZARIYASI VA METODIKASI
(SOHALAR BO'YICHA)

- 190 **GULYAMOVA GULNORA YAKUBOVNA**
Til – huquqning yashash sharti

UDC: 329 (043.3) (575,1)
ORCID: 0000-0002-9593-5890

SIYOSIY PARTIYANING HUQUQIY MOHIYATI VA UNING NAZARIY-HUQUQIY TAHLILI

Shodmonov Mirzohid Muxtor o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti
tayanch doktoranti,
e-mail: shodmonovmirzoxid69@gmail.com

Annotatsiya. Mamlakatimizda siyosiy partiyalar faoliyatini rivojlantirish va davlat va jamiyat hayotida ularning rolini kuchaytirish uchun qonunchiligimizga kiritilayotgan har bir o'zgartirishlar siyosiy partiyalarning jamiyat hayotida muhim rol o'ynashi va erkin faoliyat yuritishini ko'zlab amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida siyosiy tizimni rivojlantirish, davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalar rolini kuchaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilanganligi mazkur yo'nalishda yanada zamonaviy mexanizmlarni joriy etishni taqozo etadi. Maqola siyosiy partiya tushunchasi, huquqiy mohiyati va uning nazariy-huquqiy tahlili masalasiga bag'ishlangan bo'lib, asosan, milliy va xorijiy davlatlar qonunchilik hujjatlari va bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlari qiyosiy tahlil qilindi. Xususan, xorijiy davlatlardan GFR, Rossiya Federatsiyasi, Moldova, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Gruziya, Makedoniya, Ukraina kabi bir qator davlatlarning qonunchilik hujjatlari o'rganildi va milliy qonunchilik bilan qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot ishimizda siyosiy partiya tushunchasi, huquqiy mohiyati va uning nazariy tahlili yuzasidan amaliy taklif va ilmiy xulosalar berildi.

Kalit so'zlar: siyosiy partiya, partiya, siyosiy guruh, sho'ro, partiya dasturi, partiya ustavi, ko'ppartiyaviylik, xalqaro tajriba.

ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ ПОНЯТИЯ ПОЛИТИЧЕСКОЙ ПАРТИИ И ЕЕ ПРАВОВОЙ ПРИРОДЫ

Шодмонов Мирзохид Мухтор угли,
докторант Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. В целях развития деятельности политических партий в нашей стране и усиления их роли в жизни государства и общества каждое изменение в нашем законодательстве должно быть направлено на обеспечение важной роли политических партий в общественной жизни и их свободной деятельности. Стратегия действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан в качестве приоритета определяет развитие политической системы, усиление роли политических партий в жизни государства и общества и внедрение более современных механизмов в этом направлении. В статье рассматриваются понятие, правовая сущность и теоретико-правовой анализ политической партии, в основном посредством сравнительного анализа национального и зарубежного законодательства и научных исследований в этой области. В частности, были изучены законодательные акты ряда зарубежных стран, таких как Федеративная Республика Германия, Российская Федерация, Молдова, Азербайджан, Казахстан, Кыргызстан, Грузия, Македония, Украина, и проведен сравнительно-правовой анализ с национальным законодательством. В нашей исследовательской работе были даны практические предложения и научные выводы по понятию, правовой сущности и теоретическому анализу политической партии.

Ключевые слова: политическая партия, партия, политическая группа, совет, партийная программа, партийный устав, многопартийность, международный опыт.

THE CONCEPT OF POLITICAL PARTY, ITS LEGAL NATURE AND ITS THEORETICAL AND LEGAL ANALYSIS

Shodmonov Mirzokhid Muhtor ugli,
Doctoral student
of Tashkent state university of law

Abstract. *In order to develop the activities of political parties in our country and strengthen their role in the life of the state and society, every change in our legislation is aimed at ensuring that political parties play an important role in public life and operate freely. The Strategy of Actions for the Further Development of the Republic of Uzbekistan identifies the development of the political system, strengthening the role of political parties in the life of the state and society as a priority and the introduction of more modern mechanisms in this direction. The article deals with the concept, legal essence and theoretical-legal analysis of a political party, mainly through the comparative analysis of national and foreign legislation and scientific research in this area. In particular, the legislative acts of a number of foreign countries, such as the Federal Republic of Germany, the Russian Federation, Moldova, Azerbaijan, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Georgia, Macedonia, Ukraine, were studied and compared with national legislation. In our research work, practical suggestions and scientific conclusions on the concept, legal essence and theoretical analysis of a political party were given.*

Keywords: *political party, party, political group, council, party program, party charter, multiparty system, international experience.*

Kirish

Bugungi kunda dunyodagi barcha demokratik davlatlarda siyosiy hokimiyatning shakllanishini siyosiy partiyalar ishtirokisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Siyosiy partiyalar demokratiya yuqori darajada rivojlangan davlatlarda ham o'z-o'zidan taraqqiy etmagan, balki uzoq tadrijiy yo'l bilan murakkab ijtimoiy muhitni boshdan kechirish orqali huquqiy islohotlar bilan rivojlangan. Bu jarayon mamlakatimizda ham bosqichma-bosqich rivojlanib, siyosiy partiyalarning jamiyatimiz siyosiy hayotida faoliyati demokratlashib, ularning konstitutsiyaviy va huquqiy asoslari yaratildi.

Tadqiqotchi olimlarning fikricha, barcha demokratik davlatlarda siyosiy partiyalarning faoliyat yuritishida ijobiy natija uchun 3 ta muhim asos bo'lishi lozim:

1. Siyosiy partiyalar faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari;
2. Siyosiy partiyalar faoliyatining mafkuraviy-g'oyaviy asoslari;
3. Siyosiy partiyalar faoliyatining moddiy-texnik va moliyaviy asoslari.

Yuqorida ta'kidlangan uch omilni ilmiy tahlil qilar ekanmiz, har biri muhim ekanligi va bu asoslarni shakllantirmasdan turib siyosiy partiyalar faoliyatida yuqori natijaga erisha olmasligimiz va eng muhim jihati, demokratik jamiyatda fuqarolar siyosiy partiya tushunchasi va uning huquqiy mo-

hiyatini tushuna olmasliklari salbiy holat ekanligini anglashimiz lozim.

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasida birinchi ustuvor yo'nalish "Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari" deb nomlangan bo'lib, uning birinchi bandi "Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish" deb belgilanishi ham sohada siyosiy partiyalar tizimini rivojlantirish hamda davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalar rolini kuchaytirish, ular o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirishda muhim qadamlardan biri bo'ldi.

Shu o'rinda siyosiy partiyalarning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ularni modernizatsiya qilish hamda liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2017-yil 22-dekabr Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida shunday degan edi: "Bugungi siyosiy partiyalar faoliyatini amalga oshirishning aniq huquqiy mexanizmlari yaratilmagani, davlat va jamiyat boshqaruvida siyosiy partiyalarning ta'sirchan va amaliy mexanizmlarini joriy etish maqsadida siyosiy partiyalar faoliyatining ochiqligi, mustaqilligini

ta'minlaydigan, ularni aholi bilan bevosita bog'lab, hokimiyat shakllanishida ko'prik vazifasini bajaruvchi mexanizm yaratish lozim" [1].

Shuningdek, davlatimiz rahbari Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida "Yangi O'zbekiston – xalqchil va insonparvar davlat" g'oyasini ilgari surayotganligi bu borada ham yana muhim qadamlardan biri bo'ladi, deb ta'kidlashimiz mumkin [2].

Shu jihatdan tadqiqot ishimizda siyosiy partiya tushunchasi, huquqiy mohiyati va uning nazariy-huquqiy tahlili, asosan, milliy va xorijiy davlatlar qonunchilik hujjatlari va bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlari bilan qiyosiy tahlil asosida ilmiy tadqiq qilindi. Bundan ko'zlangan maqsad huquqiy jihatdan milliy va xorijiy tajribani o'rganish, shuningdek, milliy va xorijiy olimlarimizning bu boradagi ilmiy fikrlarini qiyosiy tahlil qilish orqali siyosiy partiya tushunchasi, huquqiy mohiyatini nazariy-huquqiy jihatdan kengroq tavsiflash va ularning jamiyat hayotidagi o'rnini kuchaytirishdan iborat.

Material va metodlar

Tadqiqot doirasida huquqiy fanlarda ilmiy metodlar bo'lgan ilmiylik, xolislik, tizimlilik (sistemalilik), determinizm tamoyillari, xronologik uslub, huquqiy taqqoslash uslubi, induksiya-de-duksiya va boshqa ilmiy metodlar qo'llanildi.

Tadqiqot natijalari

Hozirgi kunda har bir davlatda siyosiy partiyalarning huquqiy maqomi, ularning siyosiy hayotdagi roli, davlat bilan o'zaro munosabatlarini belgilashda siyosiy partiya tushunchasini tahlil qilish va uning mohiyatini xalqimiz ongiga singdirishda siyosiy partiyalar to'g'risidagi maxsus qonunlar qabul qilinganligi, yurtimizda va xorijda ko'plab olimlarimizning bu borada ilmiy tadqiqot olib borganligi va bu jarayon davom etayotganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan nafaqat respublikamiz, butun dunyodagi demokratik davlatlarda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalarning zamonaviy konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari qabul qilindi va siyosiy partiya tushunchasining huquqiy termin sifatida yuridik qoidasi yaratildi.

Biz qonunchilik hujjatlarida va olimlarning ilmiy tadqiqotlarida siyosiy partiya tushunchasiga berilgan ta'riflarni o'rganish va qiyosiy tahlil qilishdan oldin siyosiy partiya so'zining lug'aviy-etimologik jihatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu tushuncha o'ziga xos ma'no-mazmunga

ega ekanligini kuzatamiz. Siyosiy partiya so'zining lug'aviy ma'nosini tahlil qilar ekanmiz, bu ikki so'z bir nechta tildan kelib chiqqanligini ko'rishimiz mumkin. Siyosiy so'zi arabcha "سياسي" (siasiyun), ya'ni "boshqarish" ma'nosini, partiya so'zi esa lotin tili va fransuz tilida "pars", "particium", ya'ni "qism", "bo'lak" degan ma'nolarni anglatadi. Ularni umumlashtirsak, "boshqaruvchi bo'lak", "boshqaruvchi qism" degan tushunchalar hosil bo'ladi. Bu tushuncha barcha davlatlarda turlicha nomlar bilan atalgan va demokratik prinsiplar va tendensiyalar rivojlanishi bilan ularning nomlanishi, maqsad va vazifalari hamda faoliyat mexanizmi ham o'zgarib borgan. Masalan, birgina yurtimizda XX asrda "sho'ro" deb nomlangan siyosiy guruhlar bugungi kunda siyosiy partiya sifatida ijtimoiy hayotimiz va davlatchiligimiz siyosiy hayotida muhim o'rin egallagan.

Siyosiy partiya tushunchasining huquqiy ta'rifi nafaqat milliy qonunchiligimiz, balki boshqa mamlakatlar qonunchiligida turlicha aks etgan. Buni bir nechta mamlakatlar qonunchiligi bilan milliy qonunchiligimizni qiyosiy tahlil qilgan holda, ularga birma-bir to'xtalib, tadqiqotimiz doirasida o'z fikrlarimizni asoslab o'tamiz.

1. Avvalo, O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonunining 1-moddasiga ko'ra, "Siyosiy partiya O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmasidir" (O'zbekiston Respublikasi "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 15.10.2021-y., 03/21/722/0960-son), deb belgilangan.

Xorijiy mamlakatlardan biri Moldaviya Respublikasining siyosiy partiyalar to'g'risidagi qonunchiligida siyosiy partiyaga quyidagicha ta'rif berilgan: "Siyosiy partiya – bu Moldaviya Respublikasi fuqarolarining siyosiy manfaatlar va irodasini ifoda etuvchi va amalga oshiradigan, ixtiyoriy, o'zini o'zi boshqaradigan, qat'iyatli a'zolik asosida tuzilgan jamoat birlashmasidir" [4].

Barcha sohada rivojlanib, yetakchi davlatlardan biriga aylanib borayotgan yana bir xorijiy mamlakatlardan biri Gruziya Respublikasining

“Fuqarolarning siyosiy birlashmalari to‘g‘risida”gi qonunining 1-moddasida siyosiy partiya quyidagicha ta’rif berilgan: “Fuqarolarning siyosiy birlashmasi umumiy g‘oyaviy va tashkiliy asosda tuziladi. Ushbu qonunda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tgan va amalga oshiradigan fuqarolarning ixtiyoriy mustaqil birlashmasidir. U Gruziya Konstitutsiyasi va qonunchiligi doirasida faoliyat olib boradi” [5].

Yevropa qit‘asining eng demokratlashgan davlatlaridan biri Germaniya Federativ Respublikasi qonunchiligida partiyalar – Federatsiya yoki davlatlardan birida doimiy ravishda yoki uzoq vaqt davomida siyosiy iroda shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadigan va Bundestag yoki Landtaglardan birida xalqning vakolatxonasida ishtirok etishni istagan fuqarolarning birlashmalari, agar ular bunday niyatlarning jiddiyligini yetarli darajada kafolatlasa, ularning masalaga haqiqiy munosabatining umumiy xususiyati va xususan, tashkilotning soni va barqarorligi, a’zolari soni va faol ijtimoiy faoliyati erkindir. Faqatgina shaxslar partiya a’zosi bo‘lishi mumkin [5].

Siyosiy partiya tushunchasi Makedoniya Respublikasi qonunchiligida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa huquqlar hamda e’tiqodlarni amalga oshirish va himoya qilish hamda ishtirok etganda, siyosiy qarorlarni qabul qilish jarayonida ishtirok etish maqsadida tashkil etilgan fuqarolarning ixtiyoriy tashkiloti hisoblanadi. Siyosiy partiyalar o‘zlarining maqsadlariga siyosiy irodani shakllantirish va ifoda etish hamda saylovlarda qatnashish hamda boshqa demokratik yo‘llar bilan erishadilar [6].

Mamlakatimizga qardosh bo‘lgan davlatlardan biri Ozarbayjon Respublikasi qonunchiligida siyosiy partiyalar fuqarolarning umumiy siyosiy g‘oyalar va maqsadlarga ega bo‘lgan, mamlakat siyosiy hayotida qatnashadigan birlashmalari deb ta’kidlangan. Siyosiy partiyalar Ozarbayjon Respublikasi fuqarolarining siyosiy irodasini shakllantirishda o‘zlarining vazifalari va maqsadlaridan kelib chiqib, Ozarbayjon Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiq ravishda faol qatnashadi [7].

Demokratik islohotlarda juda ko‘plab murakkab jarayonlarni boshdan o‘tkazgan qo‘shni Qirg‘iziston Respublikasi qonunchiligida siyosiy partiya tushunchasi qonunda fuqarolarning ixtiyoriy birlashishi deb tushuniladi. Ular umumiy si-

yosiy maqsad va vazifalarga ega bo‘lib, aholining ma’lum bir qismining siyosiy irodasini amalga oshirishga hissa qo‘shadi va o‘zlarining vakillari orqali davlat ishlarini boshqarishda qatnashadilar [8], deb belgilangan.

Demokratik davlat shakllantirishda o‘ziga xos tajribaga ega Qozog‘iston Respublikasi qonunchiligida siyosiy partiya – bu Qozog‘iston Respublikasi fuqarolarining ixtiyoriy birlashmasi bo‘lib, u fuqarolarning, turli ijtimoiy guruhlarining davlat hokimiyati, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining vakillik va ijro etuvchi organlarida ularning manfaatlarini himoya qilish va ularning shakllanishida ishtirok etish maqsadida siyosiy irodasini ifoda etadi [9], deb ta’kidlab o‘tilgan.

Barchamizga ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi juda ko‘p jihatlarida norma ijodkorligi jarayonida Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga murojaat qilgan va ularning bu boradagi tajribasidan foydalangan. Bu davlat ham barcha sohalar singari siyosiy partiya va ularni huquqiy tartibga solish va boshqa shunga oid masalalarda muayyan tajribaga ega. Xususan, Rossiya Federatsiyasida siyosiy partiya – bu Rossiya Federatsiyasi fuqarolarining siyosiy irodasini shakllantirish va ifoda etish, jamoat va siyosiy aksiyalarda, saylovlarda va referendumlarda qatnashish, shuningdek, davlatda fuqarolarning manfaatlarini himoya qilish orqali jamiyatning siyosiy hayotida ishtirok etish maqsadida tashkil etilgan jamoat birlashmasidir [10], deb belgilangan.

Yuqorida siyosiy partiya tushunchasini bir qancha davlatlar qonunchiligi misolida o‘rganib chiqdik. Ularni umumiy jihatdan tahlil qilar ekanmiz, ushbu tushunchaning nazariy-huquqiy asoslari va huquqiy mohiyatidagi umumiy jihatlar hamda farqli jihatlarini ko‘rishimiz va farqlashimiz mumkin.

Xususan, siyosiy partiya nodavlat notijorat tashkilot ekanligi, siyosiy partiya birlashishining ixtiyoriyligi, jamiyat siyosiy hayotida ishtirok etish huquqining mavjudligi kabi bir qancha holatlar milliy va xorijiy qonunchiligimizda siyosiy partiya tushunchasida uzviy mushtaraklik va bog‘liqlik borligini yaqqol ko‘rsatadi.

Siyosiy partiya tushunchasi, huquqiy mohiyati va uning nazariy-huquqiy tahlilini yanada kengroq tadqiq qilish va o‘rganish uchun bu borada ilmiy tadqiqot olib borgan milliy va xorijiy olimlarimizning ilmiy tadqiqotlariga nazar solsak,

o'rinli bo'ladi. Juda ko'plab tadqiqotchi olimlar bu borada ilmiy faoliyat olib borgan va bu jarayon davom etgan holda, birmuncha fundamental ilmiy asoslar yaratilgan. Shu o'rinda siyosatshunos olim Sh. Mamadaliyevning quyidagi fikrini keltirib o'tmoqchimiz: "Partiya kishilarni ma'lum bir g'oya atrofida ixtiyoriy ravishda birlashtirgan, o'z g'oyasini hayotga tatbiq etish maqsadida hokimiyat uchun kurash olib boruvchi, o'zining dasturi, nizomi, tarkibiy tuzilishiga ega bo'lgan siyosiy tashkilotdir" [11, 33-b.].

O'z sohasining yetuk tadqiqotchi olimi bo'lgan R. Douz: "Siyosiy partiya jamoat tashkilotlarining eng siyosiy hisoblanadi", deb aytgan edi. Shuningdek, tadqiqotchi olim E.Berk "Partiya milliy manfaatlar uchun hamkorlik qilish maqsadlarida uyushgan, ba'zi bir prinsiplar yuzasidan bir xil qarashlarga ega kishilarning tashkilotidir", deb ta'kidlagan. Tadqiqotchi olim V. Xasbax esa partiyani quyidagicha tushuntirishga harakat qilgan: "Partiya bir xil siyosiy qarashlar va maqsadlarga ega bo'lgan, o'z shaxsiy manfaatlarini qondirish maqsadlarida siyosiy hokimiyatni egallashga intilayotgan kishilar ittifoqidir" [12, 30–31-b.].

Yuqoridagi keltirilgan olimlarimizning siyosiy partiya tushunchasiga oid ilmiy fikrlari bugungi kunda o'z isbotini topgan va ilmiy fundamental asoslar yaratilgan.

Bundan tashqari, yana bir tadqiqotchi olim M. Veber ilmiy faoliyatini kuzatar ekanmiz, u siyosiy partiya quyidagicha ta'rif beradi: "Partiyalar a'zolikka qabul qilishning ixtiyoriyligiga asoslangan, o'z oldiga faol a'zolarining moddiy foyda yoki shaxsiy imtiyozlar olishi uchun ma'naviy va moddiy sharoitlar yaratish hamda o'z rahbariyati uchun siyosiy hokimiyatni egallash maqsadini qo'ygan jamoat tashkilotlaridir" [13, 677-b.].

Siyosiy partiya tushunchasiga olimlarimiz tomonidan "Yuridik ensiklopediya"da ham qisqa va lo'nda yondashilganligini ko'rishimiz mumkin. Unda siyosiy partiya ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini ifodalovchi, ularning eng faol vakillarini birlashtiruvchi siyosiy tashkilot [14, 392-b.] deb ta'rif berilgan. Siyosiy partiya tushunchasi va uning huquqiy mohiyatini kengroq anglar ekanmiz, u boshqa siyosiy klublardan shunisi bilan farqlanadiki, ular o'z saflariga mumkin qadar ko'proq a'zolari jalb etish, siyosiy kurashning qonuniy usullaridan keng foydalanish hamda faqat saylovlar davri bilan cheklanmagan faollikka

intilish hamda bu orqali davlat va jamiyat boshqaruvida, vakillik hokimiyati shakllanishida muhim ahamiyatga egaligini bilishimiz mumkin.

O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida partiya-ga "Ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifodalovchi, ularning eng faol vakillarini birlashtiruvchi siyosiy tashkilotlar" [15, 698-b.], deb ta'rif berilgan. Ushbu ta'rif ham siyosiy partiya tushunchasining mohiyatini anglashga xizmat qiladi.

Huquqshunos olim I. Bekov ilmiy tadqiqotlarida siyosiy partiya shunday ta'rif berilgan: "Siyosiy partiya – siyosiy manfaatlar mushtarakligi asosida birlashgan, davlat hokimiyatining saylanadigan organlarini shakllantirish va ular faoliyatida ishtirok etish, shuningdek, davlat organlari faoliyati ustidan nazoratni ta'minlashning asosiy maqsadi sifatida belgilagan fuqarolarning birlashmasidir [16, 25-b.]".

Mashhur fransuz siyosatshunos olimi M. Dyuverje o'zining «Siyosiy partiyalar» asarida «Siyosiy partiya davlat va xalq manfaatlarini ifoda etuvchi, umummilliy manfaatlar, sinflar, ijtimoiy guruhlar manfaatlari ustunligini ta'minlaydigan va jamiyatdagi barqarorlikni mustahkamlovchi erkin birlashmadir» [17, 89-b.], deb o'z ilmiy qarashlarini ilgari surgan.

Xulosalar

Siyosiy partiyalarga oid ilmiy tadqiqotlar olib borgan va olib borayotgan milliy va xorijiy olimlar ilmiy ishlarini tahlil qilar ekanmiz, ulardagi ilmiy mulohazalar, bildirilgan ilmiy g'oyalar siyosiy partiyalar mohiyatini yanada teran anglash, nazariy tahlil qilish, siyosiy partiyaning huquqiy mohiyatini chuqurroq tushunishga yordam berishini alohida ta'kidlamog'chimiz.

Biz esa yuqoridagi ilmiy fikrlar asosida siyosiy partiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif berishni taklif etmoqchimiz: "Siyosiy partiya jamiyatdagi muayyan ijtimoiy qatlamning xohish-irodasi asosida vujudga kelib, tegishli vakolatli organ tomonidan qonuniy ro'yxatdan o'tgan va o'z elektoratlarining manfaatini himoya etgan holda, saylov jarayonlarida qatnashib, siyosiy hokimiyat uchun kurashuvchi hamda saylangan vakillari orqali umumdavlat manfaati uchun xizmat qiladigan fuqarolarning ixtiyoriy-ko'ngilli jamoat birlashmasidir".

Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, mamlakatimizda demokratiya sohasida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida Buyuk Britaniyaning

The Economist Intelligence Unit kompaniyasining 2020-yildagi tadqiqot natijasiga ko'ra, O'zbekiston Demokratiya indeksida 167 ta mamlakat ichida 155-o'rinni qayd etdi [18].

The Economist Intelligence Unitning yillik tadqiqotlariga tayanib, uning natijalarini quyidagi jadval asosida o'tgan yillarga solishtirgan holda tahlil qilishimiz mumkin [19].

Jadval

Xalqaro demokratiya indeksi

№	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Jami davlatlar soni	167	167	167	167	167	167	167	-
O'zbekiston Respublikasi	154	158	158	158	156	157	155	-

Yuqoridagi tahlildan kelib chiqqan holda natijaga baho berar ekanmiz, to'g'ri, buni ijobiy holat deb bo'lmaydi, lekin mamlakatimizda demokratik islohotlar jarayonida, xususan, siyosiy partiyalar faoliyatidagi islohotlar natijasi oldinga o'zgarayotganini ko'rishimiz mumkin. Bu jarayondagi huquqiy islohotlar izchil davom ettirilsa, albatta, 2021-yil uchun e'lon qilinadigan Xalqaro Demokratiya indeksida ijobiy natijaga erishishimiz mumkinligini alohida ta'kidlashimiz joiz.

Tadqiqot ishimizda siyosiy partiya tushunchasi, mohiyati va uning nazariy-huquqiy tahlili masalasi yuzasidan amaliy taklif va ilmiy xulosalarni umumlashtirib, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

– siyosiy partiya tushunchasini tushunish jamiyat siyosiy tizimida siyosiy partiyaning o'rni va jamiyat siyosiy hayotidagi maqsad va vazifasini anglashga yordam beradi;

– siyosiy partiya tushunchasi, huquqiy mohiyati tahlil etilganda, milliy va xorijiy qonunchilik asosida qiyosiy o'rganish, huquqiy va tashkiliy asoslarining o'ziga xos xususiyatlari bevosita shakllanish va rivojlanish jarayonida ularning huquqiy asoslari o'zgarishi bilan mustahkamlanib boradi va takomillashadi;

– jamiyatni demokratlashtirish sharoitida siyosiy partiya tushunchasi, huquqiy mohiyati tahlil etilganda, milliy va xorijiy olimlarimiz ilmiy tadqiqotlari asosida o'rganish va ilmiy tadqiqot natijalarini nazariy tahlil qilish va amaliyotga joriy etish har bir siyosiy partiyaning jamiyat siyosiy hayotidagi faolligi va aholi manfaatlarini qay darajada himoya qilishga ta'sir etadi. Shuning uchun siyosiy partiya tushunchasi, huquqiy mohiyati, nazariy-huquqiy tahlilining o'ziga xos xususiyatlarini chuqur tanqidiy tahlil etish o'rinlidir;

– siyosiy partiya tushunchasining nazariy-huquqiy tahlilini o'rganish, uning fundamental huquqiy asoslarini yaratish jamiyat ijtimoiy hayotida, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy ongi shakllanishida muhim mezon hisoblanadi. Eng muhimi, siyosiy partiyalarning demokratik jamiyatdagi o'rni naqadar muhimligini anglatgan holda, fuqarolarning siyosiy jarayonda faol qatnashishiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi [Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis]. Available at: <https://uza.uz/oz/posts/o-zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-o-22-12-2017/>.
2. Yangi saylangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqi [Speech of the newly elected President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the joint session of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan dedicated to the inauguration ceremony]. Available at: <https://president.uz/oz/lists/view/4743/>.
3. Zakon Respubliki Moldova o politicheskikh partiyah ot 12.04.2016 [3. Law of the Republic of Moldova on political parties of 12.04.2016.]. Available at: <http://www.vspmr.org/legislation/laws/zakonodatelnie-akti-pridnestrovskoy-moldavskoy-respubliki-v-sfere-obrazovaniya-kul'turi-sporta-molodejnyo-politiki-sredstv-massovoy-informatsii-a-takje-v-sfere-realizatsii-politicheskikh-prav-i-svobod-grajdan/zakon-pridnestrovskoy-moldavskoy-respubliki-o-politicheskikh-partiyah.html/>.

4. Zakon Gruzii o politicheskikh partijah ot 08.05.2012 [Law of Georgia on Political Parties dated 08.05.2012]. Available at: <http://www.matsne.gov.ge/>.
5. Zakon Ukraini o politicheskikh partijah ot 14.04.2009 [Law of Ukraine on Political Parties dated 04/14/2009]. Available at: <http://www.pravoznavec.com.ua/books/letter/280/%D2/20782/>.
6. Law on political parties of the Republic of Macedonia dated 07.06.2005. Available at: <https://www.legislationline.org/documents/id/5661/>.
7. Zakon Azerbajdzhanskoj Respubliki o politicheskikh partijah ot 03.06.1992 [Law of the Republic of Azerbaijan on political parties of 03.06.1992]. Available at: <https://www.wipo.int/edocs/lexdocs/laws/ru/az/az-057ru.pdf/>.
8. Zakon Kirgizskoj Respubliki o politicheskikh partijah ot 12.06.1999 [Law of the Kyrgyz Republic on Political Parties of 12.06.1999]. Available at: <http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/ru-ru/215?cl=ru-ru/>.
9. Zakon Respubliki Kazahstan o politicheskikh partijah ot 15.07.2002 [Law of the Republic of Kazakhstan on political parties of 15.07.2002]. Available at: https://online.zakon.kz/document/?doc_id=1032141/.
10. Federal'nyj zakon Rossijskoj Federacii o politicheskikh partijah № 95-FZ ot 11 ijulya 2001 goda (s izmenenijami ot 2 dekabrya 2019 goda) [Federal Law of the Russian Federation on Political Parties No. 95-FZ of July 11, 2001 (as amended on December 2, 2019)]. Available at: <https://rg.ru/2001/07/11/partii-dok.html/>.
11. Mamadaliyev Sh. Xalq hokimiyatchiligi [People's government]. Tashkent, 2003, p. 33.
12. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: siyosiy partiyalar, mafkuralar, madaniyatlar [Civil society: political parties, ideologies, cultures]. Tashkent, 1998, pp. 30-31.
13. Veber M. Izbrannye proizvedeniya. Per. s nemez. [Selected works. Translated from German]. Moscow, 1990, p. 677.
14. Yuridik ensiklopediya [Legal encyclopedia]. Tashkent, 2001, p. 392.
15. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi [National Encyclopedia of Uzbekistan]. Tashkent, 2003, vol. 6, p. 698.
16. Bekov I.R Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatida siyosiy partiyalar ishtirokining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish. Yuridik fanlari doktori dissertatsiyasi (DSc) [Improving the organizational and legal framework for the participation of political parties in the activities of representative bodies of state power. Doctor of Law Dissertation (DSc)]. Tashkent, 2021, p. 25.
17. Duverger M. Les parties politiques. Paris, 1967, p. 89.
18. O'zbekiston Respublikasi Milliy huquqiy internet portal [National Legal Internet Portal of the Republic of Uzbekistan]. Available at: <http://huquqiportal.uz/news/2021/02/03/uzbekistonning-demokratiya-indeksidagi-urni-yaxshilandi/1034/>.
19. Democracy Index 2017: Free speech under attack. Available at: https://www.eiu.com/public/topical_report.aspx?campaignid=DemocracyIndex2017/.

UDC: 34(042)(575.1)
ORCID: 0000-0001-8135-7383

NORMA IJODKORLIGI JARAYONIDA FUQAROLAR ISHTIROKINING NAZARIY ASOSLARI TAHLILI

Boymurodov Botir Panji o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti katta o'qituvchisi,
e-mail: bboymurodov@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada norma ijodkorligi tushunchasi, uning huquq ijodkorligidan farqli xususiyatlari, shuningdek, norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtirokining nazariy asoslari tahlil qilingan. Bundan tashqari, amaldagi qonunchilikda belgilangan huquqiy normalar asosida fuqarolarning norma ijodkorligi jarayonida ishtirok etishi bilan bog'liq mavjud holatga huquqiy baho berilgan. Norma ijodkorligi jarayoniga fuqarolarni jalb qilishning normativ-huquqiy hujjatlar sifatiga ko'rsatadigan ijobiy ta'sirlari hamda norma ijodkorligi jarayonida jamoatchilik muhokamasiga bo'lgan obyektiv ehtiyojlar muhokama qilingan. Tizimli, muammoli va gipotetik metodlar yordamida olib borilgan tahlil natijasida norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtiroki bilan bog'liq mavjud muammo va kamchiliklar ochib berilgan hamda ularning nazariy-huquqiy yechimlari yuzasidan takliflar bildirilgan.

Kalit so'zlar: norma ijodkorligi, huquq ijodkorligi, fuqarolar, fuqarolar ishtiroki, normativ-huquqiy hujjat.

АНАЛИЗ ТЕОРЕТИЧЕСКОЙ ОСНОВЫ УЧАСТИЯ ГРАЖДАН В ПРОЦЕССЕ НОРМОТВОРЧЕСТВА

Боймуродов Ботир Панжи ўғли
старший преподаватель
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье анализируется понятие нормотворчества, его отличия от нормотворчества, а также теоретические основы участия граждан в процессе нормотворчества. Кроме того, на основе правовых норм, установленных действующим законодательством, произведена правовая оценка текущей ситуации с участием граждан в процессе нормотворчества. Обсуждены положительные эффекты вовлечения граждан в процесс нормотворчества на качество нормативно-правовых актов и объективные потребности в общественном обсуждении в процессе нормотворчества. В результате анализа, проведенного с использованием систематических, проблемных и гипотетических методов, были выявлены существующие проблемы и недостатки, связанные с участием граждан в процессе нормотворчества, и внесены предложения по их теоретическим и правовым решениям.

Ключевые слова: нормотворчество, правотворчество, граждане, участие граждан, нормативно-правовой акт.

ANALYSIS OF THE THEORETICAL BASIS OF PARTICIPATION OF CITIZENS IN THE PROCESS OF RULE-MAKING

Boymurodov Botir Panji o'g'li,
Senior teacher of
Tashkent state university of law

Abstract. The article analyzes the concept of rule-making, its differences from law-making, as well as the theoretical foundations of citizens' participation in the process of rule-making. In addition, on the basis of legal norms established by the current legislation, a legal assessment of the current situation with the participation of citizens in the rule-making process was made. The positive effects of involving citizens in the rule-making process on the quality of normative legal acts and the objective needs for public discussion in the rule-making process were discussed. As a result of the analysis carried out using systematic, problematic and hypothetical methods, the existing problems and

shortcomings associated with the participation of citizens in the rule-making process were identified, and proposals were made for their theoretical and legal solutions.

Keywords: rulemaking, lawmaking, citizens, citizen participation, normative legal act.

Kirish

Norma ijodkorligi tabiatiga ko'ra o'ziga xos, murakkab jarayon bo'lib, qonun hujjatlarining hayotiy va xalqchil bo'lishi aynan mazkur jarayonga bevosita bog'liq. Shu jihatdan so'nggi yillarda norma ijodkorligi faoliyatiga bo'lgan yondashuvni tubdan o'zgartirish, xususan, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayoniga keng xalq ommasini jalb qilish, bunda fuqarolarning yanada faol ishtirokini ta'minlash, qolaversa, zamon talablaridan kelib chiqib, sohaga aqli tartibga solish elementlarini joriy etish, umuman olganda, norma ijodkorligi faoliyatining huquqiy asoslarini qayta ko'rib chiqish va yanada takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligi munosabati bilan Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev so'zlagan nutqida quyidagi fikrlarni bildirib o'tgan edi: "Afsuski, hozirgi kunda qonunlarning islohotlar samarasiga ta'siri yetarlicha sezilmayapti. Ularning ijtimoiy munosabatlarni bevosita tartibga solishdagi roli pastligicha qolmoqda. ... Bu boradagi ishlarni tashkil etishda, avvalambor, qonun loyihalarini puxta va ijtimoiy munosabatlarni to'g'ridan-to'g'ri tartibga soladigan darajada ishlab chiqish, ayniqsa, idoraviy hujjatlarni keskin qisqartirish zarur, deb hisoblayman" [1].

Darhaqiqat, normativ-huquqiy hujjatlarining amaliyotga samarali tatbiq etilishida to'g'ridan-to'g'ri ishlaydigan qonunlar alohida o'ringa ega. Shu jihatdan "Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasi"da to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi qonunlarni qabul qilishning samarali mexanizmlarini joriy etish vazifalari belgilab berildi. Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi sifatida 2020-yil 19-may kuni qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida Adliya vazirligiga ham ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlarni to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi qonun loyihalarini sifatida qabul qilish orqali ularning ulushini 20 foizga yetkazish vazifasi yuklatilganligi bejizga emas.

Yuqorida keltirib o'tilganlardan kelib chiqib, norma ijodkorligi faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish kabi ulkan vazifaning amalga oshirilishida, shubhasiz, jamoaviy intellektning o'rni beqiyos. Ushbu obyektiv zaruriyat allaqachon anglab yetilganligi va to'g'ri baho berilishi ortidan norma ijodkorligi jarayoniga fuqarolarni jalb etish masalalari kun tartibidagi dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda.

Shu bilan birga, "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (2021) bilan norma ijodkorligi jarayoniga kirib kelgan yangi institut – tartibga solish ta'sirini baholash ham bevosita jamoatchilik muhokamasini talab etishi hech kimga sir emas.

Norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtiroki masalasi bugungi kun uchun nihoyatda dolzarbligi va hali yangi tadqiqot obyektlaridan biri bo'lganligi sababli bu boradagi asosiy tushunchalar va qarashlarni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish hamda ijobiy natijalarni qonunchilikda aks ettirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish ushbu ishning maqsadini tashkil etadi.

Norma ijodkorligi, mazkur jarayonga fuqarolarning jalb etilishi, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini bo'yicha jamoatchilik muhokamasi kabi masalalar milliy huquqshunoslik fani vakillari – Z. Islomov, M. Axmedshayeva, H. Odilqoriyev, M. Najimov, Sh. Fayziyev, Sh. Saydullayevlar, MDH mamlakatlari olimlaridan Y.L. Komissarova, A.M. Budayev, V.I. Voronina, Amerika va Yevropa olimlaridan Beth Simone Noveck, Cornelia Moser va boshqalar tomonidan ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tadqiq qilingan va turli tomonlari ochib berilgan.

Material va metodlar

Mazkur maqolada norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtiroki, uning nazariy asoslari tahlil qilinadi, shuningdek, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning sifat jihatdan mukammallashuvida, davlat organlari va fuqarolarning o'zaro hamkorligining yo'lga qo'yilishida hamda fuqarolik jamiyati qurish yo'lida ilgari surilayotgan amaliy harakatlarda fuqarolarning norma ijodkorligi jarayoniga jalb etilishi nechog'li muhim ahamiyatga ega ekanligi ochib beriladi. Tadqiqot davomida bir qancha nazariy metodlar, jumladan,

tizimli, muammoli hamda gipotetik va shu kabi boshqa metodlardan foydalanib, ilmiy asoslangan nazariy xulosalar chiqarildi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtiroki masalasini tahlil qilishda e'tibor qaratiladigan dastlabki masalalardan biri norma ijodkorligi tushunchasining mazmun-mohiyatini o'rganish va tadqiq qilish, uning rasmiy-huquqiy ta'riflarini shakllantirish hisoblanadi. Bu borada fikr yuritganimizda, huquq nazariyasi va amaliyotida "norma ijodkorligi" tushunchasi bilan yonma-yon keluvchi "huquq ijodkorligi" tushunchasiga ham to'xtalishimiz, ularning o'zaro o'xshash va farqli jihatlari muhokama qilgan holda, zaruriy xulosalar chiqarishimiz kerak bo'ladi. Zero, norma ijodkorligi tushunchasini huquq ijodkorligidan farqlash zamonaviy yurisprudensiyaning muhim masalalaridan biri hisoblanishi ko'pgina olimlar tomonidan ta'kidlangan [2].

Huquq ijodkorligi o'z mohiyatiga ko'ra, davlat irodasini qonun va qonunosti hujjatlari, umum-majburiy xarakterga ega huquqiy qoidalar ko'rinishida aks ettiradi. Huquq ijodkorligi murakkab faoliyat yo'nalishi bo'lganligi sababli uning mazmun-mohiyatini tushuntirishda olimlar tomonidan turlicha fikrlar bildirilganligining guvohi bo'lamiz. Jumladan, yurtimiz olimlaridan professor Z. Islomovning fikriga ko'ra, "huquq ijodkorligi davlat faoliyatining shunday turiki, uning natijasida xalq irodasi qonun maqomiga ko'tariladi, huquq normasida, huquqning muayyan manbayida o'z ifodasini topadi [3]". Ushbu yondashuvda huquq ijodkorligi davlat faoliyatining ajralmas qismi ekanligi va shu bilan birga, bunda xalq xohish va istaklari asosiy negiz bo'lib qolishi ta'kidlanadi.

Mazkur fikrda izohlanishi kerak bo'lgan ayrim jihatlari mavjudligini ko'rsatib o'tish mumkin. Xususan, huquq ijodkorligida xalq irodasi nafaqat qonun, balki qonunosti hujjatlari darajasida ham aks etadi. Zero, muallifning o'zi huquq ijodkorligini huquq normasida, huquqning muayyan manbayida o'z ifodasini topishini qayd etadi. Barchaga ma'lumki, qonunosti hujjatlari sirasiga kiradigan ijro hokimiyati organlarining normativ-huquqiy hujjat tusidagi qaror va buyruqlari ham huquqning muayyan manbayi hisoblanadi.

Huquq nazariyasining atoqli vakillaridan biri X. Odilqoriyev esa huquq ijodkorligini vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslarining

(referendum chog'ida – butun xalqning) huquq normalarini o'rnatish, o'zgartirish, takomillash-tirish va bekor qilishga yo'naltirilgan maxsus faoliyatidir, deb tushuntiradi [4]. Ushbu yondashuvning e'tiborli jihati shundaki, huquq ijodkorligi deganda, nafaqat yangi huquq normalarini yaratish, balki mavjudlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ularni bekor qilishni ham mazkur tushuncha qamrab olishi eslatib o'tiladi. Shu bilan birga, huquq ijodkorligiga nisbatan bu kabi yondashuv ayrim savollarni keltirib chiqaradi: "Huquq ijodkorligi faoliyati huquq normalarini izohlash, sharhlash, huquq normalarining amal qilishini to'xtatib turish kabi xususiyatlarga ham egami?" Albatta, bu kabi savollarga beriladigan javoblar bahsli bo'lishi mumkin.

Professor SH. Saydullayev esa huquq ijodkorligining bevosita huquq ijodkorligi (umumxalq referendumi), davlat organlarining huquq ijodkorligi, alohida mansabdor shaxslarning huquq ijodkorligi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquq ijodkorligi kabi turlarini alohida ko'rsatib o'tadi [5]. Bunday yondashuv anglash qiyin bo'lgan tushunchaning mohiyatiga yetib borishni osonlashtiradi, unga nisbatan kengroq razm solish imkonini beradi. Shu o'rinda ushbu yondashuvning umumnazariy xarakterga egaligi va barcha davlatlar huquqiy amaliyotida huquq ijodkorligining yuqorida sanalgan hamma turlarini uchra-tavermasligimizni qayd etish joiz.

Rus nazariyachisi L. Morozova huquq ijodkorligini uning quyidagi xususiyatlaridan kelib chiqib yoritadi:

huquq ijodkorligi davlatning monopol faoliyat turi bo'lib, mazkur faoliyat bilan vakolatli davlat organlaridan boshqa birorta yuridik yoki jismoniy shaxs shug'ullanishi mumkin emas;

huquq ijodkorligi intellektual xususiyatga ega bo'lib, jamiyat ehtiyojlari, shuningdek, turli voqea va hodisalarni o'rganish, tahlil qilish, anglashdan iborat aqliy faoliyatdir;

huquq ijodkorligi bir qancha bosqichlardan iborat bo'lgan murakkab jarayon va shu sababli uning amalga oshirilishi maxsus qonun hujjatlari bilan belgilab qo'yiladi [6].

Shubhasiz, huquq ijodkorligi bilan shug'ullanish vakolati davlatga, yanada aniqroq qilib aytganda, aniq belgilab qo'yilgan muayyan davlat organlari yoki mansabdor shaxslarigagina topshirilgan. Barcha uchun umummajburiy bo'lgan

xulq-atvor va yurish-turish me'yorlarini belgilab beruvchi huquqiy normalarni ayrim tashkilotlar yoki jismoniy shaxslarning qabul qilishi aslo mumkin emas. Qolaversa, huquq ijodkorligi nisbatan uzoqroq davom etadigan, bir necha bosqichlardan iborat yuksak intellektual salohiyat talab etadigan faoliyat bo'lganligi uchun mazkur faoliyat bilan professional shug'ullanish talab etiladi.

V. Nersesyansning qarashlariga ko'ra, norma ijodkorligi jarayoni deganda, yangi huquqiy normalarni yaratish, shuningdek, ularni takomillashtirish, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan davlatning huquqiy faoliyati tushuniladi [7]. Olim yuqoridagi yondashuvi orqali norma ijodkorligini davlatning muhim funksiyalaridan biri bo'lgan huquqiy faoliyat bilan bog'laydi.

So'nggi yillarda nazariya va amaliyotda huquq ijodkorligi tushunchasi bilan birga norma ijodkorligi tushunchasi ham qo'llanila boshladi. Norma ijodkorligi tushunchasiga nisbatan ikki xil – nazariy va rasmiy huquqiy yondashuvlar mavjudligini qayd etib o'tish joiz.

Nazariy jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, norma ijodkorligi nihoyatda keng qamrovli tushuncha ekanligiga guvoh bo'lamiz. Ma'lumki, jamiyatda turli xil munosabatlar bo'lgani kabi ularni tartibga soluvchi normalar ham turlichadir. Normalarni ularning tartibga solish predmetidan kelib chiqib, texnik va ijtimoiy guruhlariga bo'lish mumkin. Texnik normalarning vazifasi sifatida insonlar va tashqi olam, ya'ni tabiiy hodisalar, elektronika vositalari, umuman olganda, inson va jonsiz predmetlar o'rtasidagi aloqalarni muvofiqlashtirishni keltirib o'tish mumkin [8]. Bir so'z bilan aytganda, texnik normalar insonlar va tashqi dunyoning jonsiz predmetlari, voqea va hodisalar bilan bo'ladigan munosabatlarning eng maqsadga muvofiq tartibini ko'rsatib beradi.

Bugungi kunda texnik normalar texnik reglamentlar, standartlashtirishga doir normativ hujjatlar, sanitariya, veterinariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya normalari va qoidalari, shaharsozlik normalari va qoidalari, ekologik normalar va qoidalarda aks etishini kuzatishimiz mumkin.

Ijtimoiy normalar insonlar va ularning birlashmalari o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo'lib, jamiyat a'zolarining o'zaro aloqalarini tartibga solish vositasi sifatida maydonga chiqadi. Ijtimoiy normalarning

bir qancha turlari mavjud, jumladan, odat, axloq, diniy, korporativ va huquqiy normalar. Albatta, mazkur ijtimoiy norma turlari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, jamiyat hayotida ularning bir-birini to'ldirishiga guvoh bo'lishimiz mumkin [9].

Nazariy jihatdan norma ijodkorligi tushunchasining mohiyatiga oid fikrlarni umumlashtirib, xulosa qiladigan bo'lsak, norma ijodkorligi tushunchasi yuqorida keltirib o'tilgan barcha turdagi normalar, u xoh texnik norma bo'lsin, xoh ijtimoiy normaning qaysidir bir turi bo'lsin, barchasini qamrab oladi, ya'ni normani yaratish, o'zgartirish yoki bekor qilishdan iboratdir. Shu jihatdan norma ijodkorligi tushunchasi huquq ijodkorligi tushunchasidan kengroq ekanligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Sababi norma ijodkorligi tushunchasi normaning nafaqat huquqiy, balki qolgan barcha turlarini ham qamrab oladi. Norma ijodkorligi – bu nafaqat davlatning huquqiy faoliyati, balki jamiyatdagi barcha normalarning shakllanish jarayonini ham anglatadi. Ushbu jarayonda turli korporatsiyalar, siyosiy partiyalar, diniy tashkilotlar ishtirok etadi [10]. Bu esa ayrim olimlar tomonidan ilgari surilayotgan "Huquqiy norma ijodkorligi" atamasining paydo bo'lishiga olib kelmoqda [11]. Sababi norma faqat huquqiy bo'lmasligi mumkin. Shu jihatdan yuridik texnika qoidalariga amal qilgan holda, har bir tushuncha yagona ma'noda ishlatilishini ta'minlash ko'zda tutilmoqda.

Shuningdek, norma ijodkorligi tushunchasiga nazariy yondashuv bilan birga endilikda rasmiy-yuridik jihatdan ham munosabat bildirishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi Farmoni bilan tasdiqlangan "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da birinchi marta norma ijodkorligi tushunchasi rasman qo'llanildi va unga nisbatan yangicha qarashlarni belgilab berdi. Harakatlar strategiyasi asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-avgustdagi Farmoni bilan "Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasi" tasdiqlandi. Konsepsiyadan joy olgan ko'pgina yangiliklar qatorida norma ijodkorligi tushunchasi haqida xulosa chiqarishga imkon beruvchi ayrim jihatlarni qayd etish o'rinli. Jumladan, norma ijodkorligi faoliyati o'z ichiga barcha turdagi normativ-huquqiy hujjatlar, qonun va qonunosti hujjatlarini qabul

qilish, o'zgartirish yoki ularni bekor qilish kabi elementlarni qamrab olishi qayd etilganligini ko'rishimiz mumkin [12].

Amaldagi birorta rasmiy hujjatda norma ijodkorligi tushunchasiga ta'rif berilmagan bo'lsa-da, yuqoridagilardan kelib chiqib, shunday xulosa qilishimiz mumkin: "Norma ijodkorligi – bu vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslar yoki fuqarolar tomonidan bevosita (referendum orqali) normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash, qabul qilish, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ularni bekor qilishga qaratilgan faoliyatdir".

Fuqarolarning davlat hokimiyati va boshqaruvi sohasida ishtirok etishi masalasi qadimdan muhim siyosiy-huquqiy jarayon sifatida ko'plab olimlarni o'yantirib kelgan. Zero, bu demokratiyaning asosiy va muhim shartlaridan biridir. Shu sababli so'nggi yillarda mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish va mustahkamlash, ularning erkin va samarali faoliyat yuritishlariga sharoit yaratish, davlat organlarining fuqarolar bilan yaqin hamkorligini yo'lga qo'yish, xususan, bunda davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini joriy etish yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirildi.

Norma ijodkorligi faoliyatida fuqarolar ishtiroki masalasida fuqaro tushunchasi markaziy o'rinida turganligi sababli mazkur tushunchaning nazariy va huquqiy tomonlarini tahlil qilish hamda norma ijodkorligi sohasida qo'llanilishining o'ziga xos tomonlarini ochib berish birlamchi masalalardan biri hisoblanadi.

Fuqaro tushunchasi haqida gap ketganda, shaxs va davlat o'rtasidagi siyosiy huquq va majburiyatlar aks etgan munosabatlar tushuniladi. Albatta, ushbu tushuncha ko'proq siyosiy-huquqiy atama sifatida rasmiy doirada qo'llanilganligi sababli uning ma'nosiga to'xtalganda, etimologik jihatdan yondashish maqsadga muvofiq emas. O'zbek tilining izohli lug'atlarida ham uning bir qancha ma'nolari ajratib ko'rsatiladi: 1) biror mamlakatning doimiy (muayyan yuridik huquqlarga ega bo'lgan) aholisi, grajdanlar; 2) umuman, oddiy xalq, omma; 3) oddiy, qashshoq qora xalq vakili [13]. Ayrim olimlar ushbu tushunchaning etimologik kelib chiqishi va so'zma-so'z ma'nosiga urg'u qaratib, uni muqobil variantlarga o'zgartirish haqida fikr bildirishadi [14].

Biroq bu masalaga O'zbekiston xalq shoiri, marhum Erkin Vohidov quyidagicha yondashish kerakligini ilgari surgan edi: "Kelib chiqishi faqir bo'lgan fuqaroning bugungi sohiblik maqomi, yurt egasi darajasiga ko'tarilgani ana shu tarixni eslatadi. Farq shuki, fuqaro hozirgi maqomga qadam-baqadam ko'tarilgan. Faqirlik – tobelikka, tobelik darajama-daraja yuqorilab, avval xojaning fuqarosi, so'ng amir-u sultonning, bora-bora mamlakatning fuqarosi qadar yetib kelgan. Bir qo'li bilan ruscha grajdanin, ikkinchi qo'l bilan inglizcha sitizen so'zlarini mahkam ushlab, dunyo sahnida mag'rur turibdi. Zotan grajdanin ham, sitizen ham o'zlarining avvalgi shaharlik degan ma'nolarini allaqachon tark etganlar" [15].

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi qonunida (2020) O'zbekiston Respublikasida fuqarolik shaxsning davlat bilan o'zaro huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi yig'indisida ifodalanadigan hamda inson qadr-qimmati, asosiy huquqlari va erkinliklarini e'tirof etish hamda hurmat qilishga asoslanadigan doimiy siyosiy-huquqiy aloqasini belgilashi mazmunidagi norma belgilangan. Qonunda ham fuqaro tushunchasiga nisbatan siyosiy-huquqiy kategoriya sifatida yondashilgan va unga berilgan ta'rif shakllantirilayotganda, chet el fuqarosi yoki fuqaroligi yo'q shaxslardan farqlashga harakat qilingan [16].

Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, fuqaro tushunchasi rasmiy yuridik ma'noda ham qo'llanilayotgan huquq sohasining xususiyatidan kelib chiqib turlicha yondashishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 8-moddasida O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etishi belgilab qo'yilgan. Shuningdek, Bosh qomusimizda ayrim shaxsiy huquq va erkinliklarda hamda siyosiy huquqlarda ushbu atamadan foydalanilgan. Ya'ni konstitutsiyaviy huquqiy munosabatlarda fuqaro so'zi aynan bir davlatga tegishli jismoniy shaxsga nisbatan ishlatilsa, fuqarolik huquqiy munosabatlarida esa fuqaro deganda, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tushuniladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, norma ijodkorligi faoliyatida fuqarolar ishtiroki masalasi haqida gapirilganda, aniq yondashuvni shakllantirib olish zarur. Buning uchun masalaga bir qancha

rakurslardan turib baho berish lozim. Ya'ni norma ijodkorligi faoliyati davlat suverenitetining ajralmas bo'lagi bo'lgan davlat hokimiyatini amalga oshirishning asosiy vositasi, davlatning xalq irodasini ifoda etish shakli va muhim siyosiy-huquqiy jarayon hisoblanadi.

Norma ijodkorligida fuqarolarning ishtiroki qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarga qay darajada ta'sir etishini anglatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, norma ijodkorligi faoliyatida fuqarolar ishtiroki masalasida faqat O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tushunilishi maqsadga muvofiq. Norma ijodkorligi davlat hokimiyatini amalga oshirishning eng asosiy shakllaridan biri bo'lganligi sababli ushbu munosabatlarda xorijiy fuqarolar, shuningdek, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning ishtirok etishi davlat xavfsizligi va ichki suverenitetiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bundan tashqari, tadqiqot ishida fuqarolarning mamlakatning oddiy fuqarosi sifatida ishtirok etishi tahlil qilinadi. Shaxslar bir vaqtning o'zida fuqaro bo'lish bilan birga, maxsus bilim, ko'nikma va tajribalariga ko'ra mutaxassis yoki ekspert, shuningdek, egallab turgan lavozimiga ko'ra vakolatli subyekt sifatida ham norma ijodkorligi faoliyatida ishtirok etishi mumkin. Biroq tadqiqot obyektni tashkil etadigan munosabatlar jamiyatning bir a'zosi sifatida alohida individlar, oddiy fuqarolarni nazarda tutadi.

Norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtiroki tushunchasi keng qamrovli, murakkab tashkiliy-huquqiy mexanizm orqali amalga oshiriladigan, fuqarolardan yuksak huquqiy ong va huquqiy madaniyat talab etadigan, o'zida axborotdan, jumladan, huquqiy axborotdan foydalanish huquqining amalda ta'minlanishini aks ettiradigan hodisani anglatadi.

Fuqarolarning norma ijodkorligi jarayonidagi ishtiroki tushunchasi o'zida bir qancha elementlarni ifodalaydi:

muhokamasi olib borilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalaridan xabardorligi; qonunchilik tashabbusi huquqiga ega subyektlar orqali qonun loyihalarini ishlab chiqishlari va Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga taqdim etishlari; normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining muhokamasida onlayn yoki oflayn rejimda ishtirok etishlari;

muayyan bir normativ-huquqiy hujjat yuzasidan ariza, taklif va shikoyat ko'rinishida vakolatli davlat organlariga murojaat qilishlari;

ixtiyoriy tarzda bepul yoki fuqaroviy shartnomalar asosida normativ-huquqiy hujjat loyihalarini ishlab chiquvchi ishchi guruh tarkibida ishtirok etishlari;

jamoatchilik nazorati subyektlari sifatida qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda, qarorlarda, shuningdek, davlat, tarmoq va hududiy dasturlarida jamoatchilik manfaatlari, jamoatchilik fikrini hisobga olishda ishtirok etishlari;

referendum yo'li bilan bevosita normativ-huquqiy hujjatni qabul qilishlari.

Garchi qonunchilikda fuqarolarning norma ijodkorligi jarayonidagi ishtiroki masalasi to'g'ridan-to'g'ri alohida normada belgilanmagan bo'lsa-da, fuqarolar normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishida u yoki bu ko'rinishda ishtirok etadilar. Mana shunday tarqoq va tizimlashtirilmagan hodisaning samaradorligini oshirish hamda yanada takomillashtirish norma ijodkorligi sohasidagi ustuvor vazifalardan biridir. Norma ijodkorligida fuqarolarning ishtiroki masalasi kompleks yondashuvni talab etadigan tadqiqot predmetlaridan hisoblanadi. Uning amaliyotda ishlash mexanizmi quyidagilar bilan chambarchas bog'liqligini kuza-tish mumkin:

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqqligi;

davlat hokimiyati organlari, mansabdor shaxslarning mas'ulligi va javobgarligi;

huquqiy axborotni tarqatish;

axborot erkinligining amalga oshirilishi;

huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish;

fuqarolar murojaatlari huquqining kafolati.

Norma ijodkorligi faoliyatiga fuqarolar ishtiroki institutining kirib kelishiga nisbatan ehtiyoj paydo bo'lishining bir necha sabablari mavjud.

Birinchidan, huquq mohiyati to'g'risidagi ijtimoiy nazariyaga ko'ra, norma ijodkorligi faoliyatiga mavjud ijtimoiy munosabatlarning xususiyatlari, shuningdek, bu ijtimoiy munosabatlar subyektlarining dunyoqarashi, xarakteri va kayfiyatidan kelib chiqqan holda yondashilgandagina huquq jonli xarakter kasb etadi [17]. Aks holda, u rasmiy qog'ozdagi qaydligicha qoladi. Shu sababdan amaliyotda to'g'ridan-to'g'ri ishlaydigan

qonunlar hamda sifatli va samarali qonunosti hujjatlarini qabul qilishga norma ijodkorlari jamiyat a'zolari bilan yaqindan hamkorlikni yo'lga qo'ygandagina erishilishi mumkin.

Ikkinchidan, fan va texnologiyalarning kundan-kunga tobora rivojlanib borishi ularning natijalari kirib borgan munosabatlarning mutanosib ravishda murakkablashishiga olib kelmoqda. Texnologiyadagi innovatsiyalar shu darajada shiddatli tus olmoqdaki, ularni tushunish va huquqiy baho berish uchun maxsus tayyorgarlikdan o'tish ayrim hollarda vakolatli subyektlar uchun imkonsiz ishga aylanmoqda. Ya'ni bunday sharoitda norma ijodkoridan hamma narsani bilish talab etiladi va bu amalda, haqiqatan ham, imkonsiz ishdir. Jumladan, asosida sun'iy intellekt yotgan barcha kashfiyotlarning (haydovchisiz mashinalar, robotlar, internetdagi ijtimoiy tarmoqlar) kundalik hayotimizga faol tatbiq etilishi ularni maqsadga muvofiq tarzda tartibga soluvchi normalarning samarali tizimini yaratish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Shuningdek, iqlim o'zgarishidan tortib immigratsiya masalalariga qadar sohalaridagi munosabatlarni tartibga solish bo'yicha aniq va ishonchli ma'lumotlar yo'q. Vakolatli subyektlar faqat mavjud ma'lumotlar bilan cheklanmoqda. Bular bo'yicha norma ijodkorlarida aniq tasavvur yo'q. Bu esa norma ijodkorligi jarayoniga katta jamoaviy aqlni jalb qilish tendensiyasiga chaqiriq sifatida yangramoqda.

Shunday qilib, yangiliklarni rag'batlantirish va yangi ish o'rinlarini yaratish bilan bir vaqtda jamoatchilikni himoya qiladigan siyosat va qonunchilikni ishlab chiqish ko'proq ma'lumot va tajribaga ega bo'lishni talab qiladi. Shu jihatdan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish yanada moslashuvchan va samarali bo'lishi uchun hamda norma ijodkorligi sifatini yaxshilash maqsadida kengroq tajriba va turli xil qarashlarga ega bo'lgan keng omma bilan muloqotning yo'lga qo'yilishi muhimdir.

Ilm-fan va texnologiya yutuqlari yashash tarzimizni tubdan o'zgartirib yuborishi tabiiy. Ko'pchiligimiz tushunmaydigan va nazorat qilishimiz qiyin bo'lgan texnologik tizimlarga bo'ysunib qolmasligimiz uchun davlat organlarini jamoaviy intellegensiya bilan bog'laydigan platformalarga zaruriyat har qachongidan ham ortib bormoqda.

Uchinchidan, dunyo miqyosida kuzatilayotgan tendensiya – bu aholining hukumatga nisbatan ishonchining tobora pasayib borayotganligidir. 2018-yilda so'rov o'tkazilgan 28 mamlakat aholisi orasida hukumatga bo'lgan ishonchning o'rtacha darajasi 28 foizni tashkil qilgan [18].

Turli xil manbalardan ma'lumotlar olish va ularni ko'pchilik ishtirokida qayta ishlash qonunchilik sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, shubhasiz. Ommaviy maslahatlashuvlar, albatta, yangi tushuncha emas. Bu boradagi xorij tajribasiga nazar soladigan bo'lsak, Amerika Qo'shma Shtatlarida 1946-yildayoq qabul qilingan qonun hujjatlariga fuqarolar tomonidan sharh berish huquqi kafolatlangan edi. Biroq bu qabul qilingan qonun hujjatlariga nisbatan tatbiq etilib, qonun hujjatlarning loyihalari, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga amalda hech qanday ta'sir o'tkazmas edi [19]. 2013-yilda Finlandiyada yo'l harakati qoidalari bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qonun loyihasi bir necha bosqichga asoslangan fuqarolar ishtiroki orqali ishlab chiqilgan va bu amaliyot samarasi butun dunyo tomonidan e'tirof etilgan edi [20].

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yuksalib borishi, fuqarolarning jamiyat va davlat ishlaridagi faolligining ortishi natijasida mazkur institutning yanada hayotiy ahamiyat kasb etayotganligiga guvoh bo'lish mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, bu jarayon norma ijodkorlari ish uslubining o'zgarishiga olib keladi. Ular endilikda muammoni chuqur anglab yetish va uni keng xalq ommasiga aniq qilib tushuntirib berishga harakat qilishlari kerak. Sababi fuqarolar ishtiroki shunchaki muayyan masala bo'yicha ovoz berish va ularni umumlashtirish emas, balki yangi g'oyalarni qabul qilish va ularni tahlil qilishdan iboratdir.

Xulosalar

Yuqoridagi tahlillarga asoslanib, norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtiroki quyidagi ijobiy xususiyatlarga ega ekanligini ta'kidlash o'rinli:

fikr va qarashlari davlat hokimiyati vakillari tomonidan tinglanishi va qabul qilinayotgan qonunchilik hujjatlarida aks etishi bilan bog'liq fuqarolarning ruhiy-ijtimoiy faolligini oshiradi;

norma ijodkorligi jarayonining sifat jihatdan yuqori darajaga ko'tarilishini ta'minlashga xizmat qiladigan kuchli jamoaviy intellektni shakllantiradi;

normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasida ko'proq va kengroq doiradagi masalalarni qamrab olish imkonini beradi;

fuqarolarning hokimiyat va boshqaruv organlariga nisbatan ishonchining ortishiga sabab bo'ladi;

norma ijodkorligi jarayoni qonuniyligining mustahkamlanishi hamda qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan vakolatli subyektlar va fuqarolarning *birgalikdagi javobgarligining* yuzaga kelishiga olib keladi;

fuqarolar tomonidan davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatiga to'g'ri va xolisona baho berilishi hamda bu orqali hukumatga nisbatan ongli hurmat ruhini paydo qiladi;

fuqarolarning qonuniy manfaatlarini ifoda etish platformasi bo'lib xizmat qiladi;

norma ijodkorlarining ochiqqligi va hisobdorligini yanada orttiradi.

Olimlar norma ijodkorligi jarayonida fuqarolarning ishtiroki ko'pgina ijobiy tomonlari bilan birga, ayrim kamchiliklardan ham xoli emasligini ta'kidlashadi:

amalga oshirilishi haqiqatda imkonsiz takliflarning ko'p berilishi;

normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va qabul qilish jarayonining sekinlashishi;

fuqarolarning norma ijodkorligida turli shakllarda ishtirok etishi qo'shimcha byudjet mablag'larini talab etishi [21].

Norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtirokini yanada rivojlantirish va bu orqali samarali normativ-huquqiy hujjatlar tizimini yaratishda quyidagi taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Bu boradagi barcha asosiy tushunchalarning ilmiy-nazariy ta'riflarini ishlab chiqish va qonunchilikda aks ettirish lozim;

2. Norma ijodkorligi jarayonida fuqarolarning samarali ishtirokini ta'minlash maqsadida jamiyatning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish borasida tizimli ishlarni amalga oshirish, jumladan, fuqarolarga norma ijodkorligini amalga oshirish bilan bog'liq zarur bilim va ma'lumotlarni taqdim etish mexanizmini joriy etish zarur.

3. Barcha turdagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda fuqarolar ishtirokini ta'minlash maqsadida norma ijodkorligining raqamlashtirish jarayonini nihoyasiga yetkazish maqsadga muvofiq.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakat Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi [Speech by the President-elect of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the solemn ceremony dedicated to the 24th anniversary of the adoption of the Constitution of the country]. Available at: <https://www.gazeta.uz/uz/2016/12/07/speech/>.

2. Jarmonova E.N. Otlchie normotvorchestva ot pravotvorchestva kak odna iz osnovnyh problem jurisprudencii [The difference between rule-making and law-making as one of the main problems of jurisprudence]. Nauchno-metodicheskij elektronnyj zhurnal «Koncept» – Scientific-methodical electronic journal "Concept", 2016, no. 1, p. 16. Available at: <http://ekconcept.ru/2016/76189.htm/>.

3. Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi [Theory of state and law]. Tashkent, Adolat, 2007, p. 585

4. Odilqoriyev X. Davlat va huquq nazariyasi [Theory of state and law]. Tashkent, Adolat, 2018, p. 325.

5. Saydullayev Sh.A. Davlat va huquq nazariyasi [Theory of state and law]. Tashkent, TSUL, 2020, p. 132

6. Morozova L.A. Teorija gosudarstva i prava [Theory of Government and Rights]. Moscow, Jeksmo, 2010, p. 221.

7. Nersesjanc V.S. Problemy obshhej teorii gosudarstva i prava [Problems of the general theory of state and law]. Moscow, 2002, 270 p.

8. Dobosh S.I. K voprosu o social'noj sushhnosti tehicheskikh norm [To the question of the social essence of technical norms]. Available at: <https://izron.ru/articles/>.

9. Nikishova N.V. Ponjatie i sushhnost' social'noj normy: social'no-filosofskij analiz [The concept and essence of social norms: socio-philosophical analysis yusch]. Gramota – Diploma, 2014, no 1 (39), issue 2, pp. 147-149.

10. Dimitrov N.N., Shagieva R.V. Osnovy normotvorchestva. Ucheb. posobie [Foundations of rule-making. Textbook. allowance]. Moscow, 2013, p. 41.

11. Jarmonova E.N. Otlichie normotvorchestva ot pravotvorchestva kak odna iz osnovnyh problem jurisprudencii [The difference between rule-making and law-making as one of the main problems of jurisprudence]. Nauchno-metodicheskij elektronnyj zhurnal «Koncept» – Scientific-methodical electronic journal "Concept", 2016, no. 1, p. 16. Available at: <http://ekconcept.ru/2016/76189.htm/>.
12. Sajdullaev Sh.A. Voprosy sovershenstvovaniya nauchno-teoreticheskikh i metodologicheskikh osnov normotvorcheskoj dejatel'nosti v Respublike Uzbekistan na fone zarubezhnogo opyta [Issues of improving the scientific, theoretical and methodological foundations of rule-making activities in the Republic of Uzbekistan against the background of foreign experience]. Studia Politologiczne, 2019, vol. 52.
13. O'zbek tilining izohli lug'ati. P. 54. Available at: www.ziyouz.com/.
14. "Hordiq plus" gazetasi ["Hordiq Plus" newspaper]. Available at: www.hordiq.uz/.
15. Vohidov E. Tirik xazina yoxud jahongashta so'z [A living treasure is a word in the world]. O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi – Literature and Art of Uzbekistan, 2009, no. 9.
16. Saydullaev S. Particular issues of identification of legal gaps in law. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 2020, vol. 12, no. S2, pp. 333-336.
17. Maslovskaja E.V. Sociologicheskie teorii prava [Sociological theories of law]. Sociologicheskij zhurnal – Sociological journal, 2005, no.1.
18. Edelman 2018. Trust barometer Global Report.
19. Beth Simone Noveck Crowdlaw. Collective Intelligence and Lawmaking.
20. Aitamurto T. Collective Intelligence in Law Reforms: When the Logic of the Crowds and the Logic of Policy-making Collide, 2016 49th Hawaii International Conference on System Sciences.
21. Aris M.S., Salman R. Public Participation in the Law Making Process in Change Era: A Comparative Study between Indonesia (East Java) and the United States (California) In Proceedings of the International Law Conference (iN-LAC 2018). Law, Technology and the Imperative of Change in the 21st Century, pp. 151-155. ISBN: 978-989-758-482-4/.

UDC: 349.6(042)(575.1)
ORCID: 0000-0003-4914-5609

EKOLOGIYA VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH – KONSTITUTSIYA HIMOYASIDA

Po'latov Mirzohid Qo'zimurodovich,Termiz davlat universiteti yuridik fakulteti o'qituvchisi,
e-mail: yusupov.mirzohid.91@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, insonlarning sog'ligi va tabiiy muhitning ifloslanishi, suv taqchilligi, tuproq unumdorligining pasayishi, ozon qatlamining yemirilishi, atmosfera havosi o'rtacha haroratining ko'tarilishi, inson hayoti va sog'lig'i bilan bog'liq masalalar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Ushbu tahlillar natijasida ekologiya va atrof-muhitga oid qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar berilgan. Bundan tashqari, mazkur maqolada ekologiya va atrof-muhit bilan bog'liq muammolar, xususan, hozirda ekologiya muammosi dunyo miqyosida bioxilma-xillikning qisqarishi, atrof tabiiy muhitning ifloslanishi, suv taqchilligi, tuproq unumdorligining pasayishi, ozon qatlamining yemirilishi, atmosfera havosi o'rtacha haroratining ko'tarilishi, inson hayoti va sog'ligining turli xil ekologik tahdidlarga duchor bo'lishi kabi o'ta jiddiy xavf-xatarli muammolarga to'xtalib o'tilgan. Maqolada tadbirkorlik maqsadlarida yer uchastkalari ajratishning huquqiy asoslarini milliy va xorijiy tajribada keng qiyosiy-huquqiy tahlil qilish orqali takomillashtirish masalalari ham yoritilgan. Shuningdek, tadbirkorlik maqsadlarida ajratilgan yer uchastkalaridan foydalanish tartibini buzganlik uchun qonunlarda belgilangan jazo choralari hamda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirishga oid taklif va xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ekologiya, tabiiy resurslar, atrof-muhit, atmosfera, tadbirkorlik, yuridik javobgarlik, intizomiy jazo, fuqarolik javobgarlik, jinoiy javobgarlik.

ЭКОЛОГИЯ И ОХРАНА ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ – ПОД ЗАЩИТОЙ КОНСТИТУЦИИ

Пулатов Мирзохид Кузимурадovich,преподаватель юридического факультета
Термезского государственного университета

Аннотация. В статье анализируются вопросы, связанные с охраной окружающей среды, рациональным использованием природных ресурсов, здоровьем человека и загрязнением окружающей среды, нехваткой воды, снижением плодородия почвы, истощением озонового слоя, повышением средней температуры. В результате анализа были даны рекомендации по совершенствованию законодательства в области экологии и окружающей среды. Кроме того, в статье рассматриваются экологические проблемы, в частности, актуальная проблема потери глобального биоразнообразия, загрязнения окружающей среды, дефицита воды, снижения плодородия почвы, истощения озонового слоя, повышения средней температуры атмосферы, которые создают наиболее серьезные угрозы для жизни и здоровья человека. В статье также рассматриваются вопросы совершенствования нормативно-правовой базы предоставления земельных участков под хозяйственные нужды посредством широкого сравнительно-правового анализа отечественного и зарубежного опыта. Также содержатся предложения и выводы по совершенствованию системы государственного управления в сфере экологии и охраны окружающей среды, а также введению штрафных санкций за нарушение правил использования земельных участков, выделенных для хозяйственных целей.

Ключевые слова: экология, природные ресурсы, окружающая среда, атмосфера, предпринимательство, юридическая ответственность, дисциплинарные взыскания, гражданская ответственность, уголовная ответственность.

ECOLOGY AND ENVIRONMENTAL PROTECTION - PROTECTED BY CONSTITUTION

Polatov Mirzohid Kozimurodovich,

Teacher at law faculty of
Termiz state university

Abstract. The article analyzes issues related to environmental protection, rational use of natural resources, human health and environmental pollution, lack of water, decreased soil fertility, depletion of the ozone layer, an increase in average temperature, as well as human life and health. As a result of this analysis, recommendations were made for improving legislation in the field of ecology and the environment. In addition, the article discusses ecological and ecological problems, in particular, the urgent ecological problem of the loss of global biodiversity, environmental pollution, water scarcity, a decrease in soil fertility, depletion of the ozone layer, an increase in the average temperature of the atmosphere, such as the most serious threats to humans. life and health, for example, exposure to various environmental threats. The article also discusses the issues of improving the regulatory framework for the provision of land plots for economic purposes through a broad comparative legal analysis of domestic and foreign experience. The article also contains proposals and conclusions on improving the system of public administration in the field of ecology and environmental protection, as well as penalties for violating the rules for the use of land plots allocated for economic purposes.

Keywords: ecology, natural resources, environment, atmosphere, entrepreneurship, legal liability, disciplinary actions, civil liability, criminal liability.

Kirish

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sivilizatsiya taraqqiyotining bugungi bosqichida kishilik jamiyatini saqlab qolish, milliy xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta'minlashning asosiy talablaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, hozirda ekologiya muammosi dunyo miqyosida bioxilma-xillikning qisqarishi, atrof tabiiy muhitning ifloslanishi, suv taqchilligi, tuproq unumdorligining pasayishi, ozon qatlamining yemirilishi, atmosfera havosi o'rtacha haroratining ko'tarilishi, inson hayoti va sog'ligining turli xil ekologik tahdidlarga duchor bo'lishi kabi o'ta jiddiy xavf-xatarli ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda.

Ushbu muammoning global xarakterda ekanligiga to'xtalib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida ta'kidlaganidek, "Bugungi kunning eng o'tkir ekologik muammolaridan biri – Orol halokatiga yana bir bor e'tiboringizni qaratmoqchiman. Dengizning qurishi bilan bog'liq oqibatlarini bartaraf etish xalqaro miqyosdagi sa'y-harakatlarni faol birlashtirishni taqozo etmoqda". Shuningdek, ekologiya muammosining dolzarbligi xususida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev haqli ravishda ta'kidlaganidek, "...aholini, ayniqsa, qishloq joylarda toza ichimlik

suvi bilan ta'minlash masalasi hamon dolzarb bo'lib qolmoqda. Maishiy chiqindilarni to'plash, qayta ishlash va utilizatsiya qilish masalasi ham oldimizda turgan eng og'ir muammodir. Eng muhim masala – aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur" [2].

Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda dunyoda ekologik muhitning yomonlashuvi turli xil kasalliklar, hayvonot va o'simlik dunyosining qirilib ketishi, ularning noyob turlari yo'qolishi, odamlarning ommaviy kasallanishi, o'rtacha umr ko'rish yoshining kamayishi, inson organizmida moddalar almashinuvining buzilishi bilan bog'liq yangidan-yangi xastaliklarning kelib chiqishi, yurak-qon tomir, saraton kabi kasalliklarning ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Bugungi kunda ekotizimdagi muvozanatning buzilishi shu darajada og'ir ko'rinish oldiki, buning natijasida insonlarning qulay atrof tabiiy muhitga ega bo'lish huquqini amalda ta'minlash dolzarb muammoga aylanib bormoqda.

Shuni aytish kerakki, tabiat bilan jamiyat bir-biri bilan o'zaro uzviy aloqa va chambarchas bog'liqlikda bo'ladi. Bu uzviylik va o'zaro ta'sir tabiatning umumiy qonuniyatlariga mos kelishi, o'zaro teng muvozanatda bo'lishni talab etadi. Aks holda, bu muvozanatning buzilishi og'ir salbiy holatlarni keltirib chiqarib, tirik mavjudotning yashashiga xavf soladi. Demak, atrof

tabiiy muhitni muhofaza etish global, eng dolzarb muammolardan biri bo'lib, u davlatning asosiy qonuni, ya'ni Konstitutsiya asosida tartibga solishni talab etadi. Shundan kelib chiqib aytish kerakki, Konstitutsiya asosida tartibga solinadigan eng muhim ijtimoiy masalalarga atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, ya'ni ekologik munosabatlar ham taalluqlidir. Shu sababdan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-, 54-, 55- va 100-moddalarida atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiat resurslaridan oqilona foydalanish bilan bog'liq ekologik huquqiy qoidalar mustahkamlanganligini alohida ta'kidlash o'rinlidir. Ushbu konstitutsiyaviy huquqiy normalarda atrof tabiiy muhit va fuqarolar salomatligini muhofaza qilishning asosiy tamoyillari belgilab berilgan.

Material va metodlar

Mazkur maqolada atrof-muhit va ekologiya tushunchasining yuridik tabiati ochib berilgan. Shuningdek, aholi punktlarining turlari amaldagi qonun hujjatlari asosida tavsiflangan. Muallif aholi punktlarini ekolog-huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari asosida tasniflagan. Shaharlardagi asosiy ekologik muammolar va ularni bartaraf qilishda huquqiy mexanizmlarni samarali qo'llash usullari ilmiy-huquqiy jihatdan o'rganilgan. Shahar va qishloq aholi punktlari huquqiy holati o'rtasidagi farqli jihatlar tahlil qilingan. Shuningdek, muallif xo'jalik va sanoat faoliyati, qurilish jarayonini ekologizatsiyalash, aholi punktlaridagi akustik ta'sir, atmosfera havosini muhofaza qilishning ekologik-huquqiy talablari, suv resurslari va aholi salomatligini saqlash bilan bog'liq sanitariya normalariga rioya qilish masalalari tahliliga alohida e'tibor qaratgan.

Ushbu maqola doktrinal tadqiqot sifatida qonun hujjatlari va ilmiy-nazariy manbalar tahlilini o'z ichiga oladi. Unda sohaga oid ilmiy tushunchalar, nazariyotchi olimlarning qarashlari, xulosa va fikrlari o'rganilgan. Shuningdek, ekologiya sohasiga oid qonun hujjatlari qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Maqola mavzuga oid asosiy tushunchalarni o'rganishdan boshlangan. Ushbu tushunchalarni rivojlantirish bilan davom ettirilgan hamda mavjud mexanizmlarni takomillashtirish, muammolarni hal qilish yo'llarini ko'rsatishga oid xulosalarga kelish bilan yakunlangan. Mazkur xulosalarning amaliyotga tatbiq

etilishi insoniyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashda aholi punktlarida atrof-muhitni sog'lomlashtirish hisobiga fuqarolarning qulay atrof tabiiy muhitga ega bo'lish huquqini ta'minlash maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida tabiat obyektlari umummilliy boylik ekanligi, ulardan oqilona va samarali foydalanish lozimligi, davlat tomonidan alohida tartibda muhofaza etilishi belgilangan (55-modda). Konstitutsiyaning boshqa normalarini talqin etib, aytish mumkinki, ularda har bir fuqaro milliy boylik hisoblangan tabiiy resurslar to'g'risida har qanday axborotni surishtirishi, olishi va tarqatishi mumkinligi (29-modda), tabiiy resurslardan foydalanish va muhofaza qilish muammolarini hal etish bo'yicha jamoat tashkilotlariga birlashish, atrof tabiiy muhitdan foydalanish bilan bog'liq munosabatlarda fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilgan taqdirda sud himoyasidan foydalanish mumkinligi (43-modda), shuningdek, atrof tabiiy muhitga nisbatan fuqarolar ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburligi (50-modda), mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar yetkazmasligi (54-modda), mahalliy hokimiyat organlari atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishi lozimligi (100-modda) kabi qoidalar o'z ifodasini topgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga intilishi belgilangan.

Asosiy qonunning 37-moddasida esa fuqarolar adolatli mehnat sharoitlarida mehnat qilish huquqiga egaligi o'rnatilgan bo'lib, ushbu huquqni amalda ta'minlash fuqarolarga qulay atrof tabiiy muhit yaratib berishni ham taqozo etadi. Fuqarolarning normal va sog'lom hayot kechirishlari, mehnat faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun ularni o'rab turgan atrof tabiiy muhit – atmosfera havosi, suv, o'simlik dunyosi, tuproq toza, inson sog'ligiga zararli ta'sir etmaydigan sifat va holatda bo'lishi lozim. Ma'lumki, mustabid tuzum davrida qabul qilingan atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish qonunlarida inson va fuqarolar manfaatlarining davlat va uning organlari manfaatlariga bo'ysunishi tamoyili hukmronlik qilar edi. Ushbu tamoyilga ko'ra, ekologik-iqtisodiy tizimda tabiiy resurslardan foydalanish bosh vazifa, ularni muhofaza qilish

esa ikkinchi darajali deb qaralardi. Bunday sharoitda insonlar hayoti va sog'ligini himoya qilishning iqtisodiy faoliyatdan ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning qulay atrof tabiiy muhit sharoitida mehnat qilish va dam olish huquqini kafolatlash ikkinchi darajaga surib qo'yilmasdan iloji yo'q edi. Vaholanki, tabiat resurslaridan foydalanishda shunday vositalarni topish, ularni qonunlarda o'rnatish, amaliyotga qo'llash lozimki, bu, bir tomondan, xo'jalik faoliyati taraqqiyotini ta'min etsin, ikkinchi tomondan, tabiatni muhofaza qilish munosabatlarini rivojlantirish va takomillashtirishga xizmat qilsin.

Muammoni shunday tartibda hal etish kerakki, bunda, birinchidan, tabiiy resurslardan foydalanishda ekologiya ham, iqtisodning ham manfaatlari hisobga olinsin; ikkinchidan, ularning uzviyligini ta'minlash mumkin bo'lmasa, ustuvorlik atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishga berilishi kerak. Demak, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonun ijodkorligi amaliyotida bosh g'oya, eng avvalo, insonning hayoti va sog'ligi uchun qulay atrof tabiiy muhitga ega bo'lish huquqini himoya qilishni ta'minlashga qaratilgan bo'lishi lozim. Shunday qilib, fuqarolarning qulay atrof tabiiy muhitga ega bo'lish huquqi, atrof tabiiy muhitni muhofaza etish bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlari, davlat organlarining atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari bilan bog'liq vazifalar Konstitutsiya asosida tartibga solinishi lozim bo'lgan eng muhim ijtimoiy masalalar sirasiga kiradi. Ammo bugungi kunda fuqarolarning qulay atrof tabiiy muhitga ega bo'lish huquqiga bag'ishlangan alohida maxsus qoida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'z ifodasini topmagan. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarini belgilashga bag'ishlangan ikkinchi bo'limini fuqarolarning qulay atrof tabiiy muhitga ega bo'lish huquqini tartibga soluvchi alohida norma bilan to'ldirish maqsadga muvofiq.

Yuqorida aytilganlardan tashqari, tabiat resurslarini muhofaza qilish maqsadida bugungi kun yangi islohotlar bosqichida mamlakatimizda bir qator keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ushbu tub o'zgarishlar asosli ravishda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish samarador-

ligini oshirish, atrof tabiiy muhit holatining yomonlashuviga yo'l qo'ymaslik, ekologik munosabatlarning huquqiy asoslarini takomillashtirish, davlatning ekologik nazorat funksiyasini kuchaytirish, iqtisodiyotning tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga ko'rsatayotgan salbiy ta'sirini bartaraf etish kabi muammolarni hal etishga qaratilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni asosida tasdiqlangan "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da "...odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta'minlash, maishiy chiqindilarni qayta ishlash komplekslarini qurish va modernizatsiya qilish, atrof-muhitga zararli moddalar chiqishini kamaytirish, atrof tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan ekologik muammolarning oldini olish" kabi chora-tadbirlarning belgilanishi mamlakatimizda ekologik xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, 2017-yil 21-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni qabul qilinib, unga ko'ra, respublikamizda ekologik xavfsizlikni ta'minlash va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvini tubdan takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasining Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi etib qayta tashkil etilganligi mamlakatimizda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning tashkiliy asoslarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Bundan tashqari, 2017-2018-yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olishga bag'ishlangan bir qator farmon va qarorlari qabul qilinganligini alohida ta'kidlash o'rinlidir.

Shunday normativ huquqiy hujjatlardan yana biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 18-maydagi PQ-3730-sonli «Maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbir-

lari to'g'risida"gi qaroridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-noyabrdagi PF-5241-sonli "Suv ta'minoti va suv chiqarish xizmati ko'rsatish sohasida to'lov intizomini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byuro-siga suvdan noqonuniy foydalanish, vodoprovod va kanalizatsiya tarmoqlariga o'zboshimchalik bilan ulanish holatlarini aniqlash, bartaraf etish va oldini olish, suv uchun to'lovlarning o'z vaqtida va to'liq undirilishi, suvni sotish va iste'mol qilishning hisobini yuritishda ishtirok etish vazifasi yuklatildi [14]. Yuqorida sanab o'tilgan farmon va qarorlarda aholining toza ichimlik suviga ega bo'lish huquqini himoya qilish, toza ichimlik suvini muhofaza qilish, ulardan foydalanish jarayonida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olish vazifalari belgilangan bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi, "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi, «Chiqindilar to'g'risida»gi va yana bir qator suvga oid qonunlarni takomillashtirishni talab etadi.

Chunonchi, O'zbekiston Respublikasining «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida»gi qonuniga ko'ra, suvni muhofaza qilish zonalarini, sohilbo'yi mintaqalari muhofaza etiladigan landshaftlarning turiga mansub hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida»gi qonunining 41-moddasiga asosan, sohilbo'yi mintaqalarida suv xo'jaligi obyektlarini qurishdan tashqari, har qanday turdagi boshqa qurilish obyektlarini barpo etish taqiqlangan. Ammo amaliyotda muhofaza etiladigan tabiiy hududlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasida suvni muhofaza qilish zonalarini, sohilbo'yi mintaqalarini muhofaza etish masalasida qonun talablari ta'minlanmasdan kelinmoqda. Bu holat, tabiiyki, suv obyektlarining ifloslanishi, bulg'anishi, qulay suv rejimini saqlab turish bilan bog'liq salbiy holatlarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Ushbu qonunning 41-moddasiga ko'ra, suvni muhofaza qilish zonalarida va qirg'oqbo'yi mintaqalarida kanalizatsiya-tozalash inshootlari va oqova suvlar to'planadigan inshootlarni qurish taqiqlangan bo'lsa-da, o'zboshimchalik bilan qurilgan obyekt va inshootlardan daryo va soy o'zanlariga maishiy va boshqa chiqindilar, shu

jumladan, oqova suvlar tashlanmoqda. Buning oqibatida atrof tabiiy muhit ifloslanmoqda, suv iste'molchisi bo'lmish insonning hayoti va sog'ligiga xavf solinmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasining «Ma'muriy javobgarlik to'g'risida»gi kodeksining 82-moddasining sanksiyasida davlat qo'riqxonasi rejimini buzganlik uchun fuqarolar va mansabdor shaxslarga solinayotgan minimal va maksimal jarima miqdorini oshirish maqsadga muvofiqdir [15].

Tadqiqot natijalari tahlili

Bugungi kunda tadbirkorlik maqsadlarida yer uchastkalari ajratish davlatimizning agrar siyosatining asosiy yo'nalishlaridan birini tashkil etadi. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasida "sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, melioratsiya va irrigatsiya obyektlari tarmoqlarini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullar, eng avvalo, suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, unumdorligi yuqori bo'lgan qishloq xo'jaligi texnikasidan foydalanish" lozimligi ham ko'rsatib o'tildi.

Yurtimizda tadbirkorlik maqsadlarida yer uchastkalari ajratishda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ta'бири bilan aytganda, "Yerdan unumli foydalanish va uni talon-toraj qilishning oldini olish eng muhim vazifalardan biridir" [2].

Shuningdek, Yurtboshimiz tashabbusi bilan "Har bir oila – tadbirkor" dasturi doirasida aholi uchun 400 million dollar ajratildi. Lekin shunday sa'y-harakatlarga qaramay, tomorqadan samarali foydalanishni tashkil etishda fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi hamda "Tomorqa xizmati" kutilganidek faollik ko'rsatmayotganligi ham alohida ta'kidlangan edi [3].

Alohida ta'kidlanganidek, jumladan, korupsiyaga yo'l ochib berayotgan yer ajratish amaliyoti tubdan isloh qilindi. Bu jarayon endilikda yer ajratish elektron tizimi orqali amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, yerni olib qo'yish va kompensatsiya to'lashning yangi tartibi, yer faqat mulk egasining roziligi bilan olinishiga oid qoidalar joriy qilindi [4].

Shuning uchun ham Prezidentimiz 2020-yil 24-yanvardagi Murojaatnomasida “Bu yil har bir hududda tadbirkorlarga yer uchastkalariga oid ma’lumotlarni ochiq va haqqoniy yetkazish bo’yicha yangi tizim joriy etamiz. Unga ko’ra, tadbirkorning faoliyat yuritishi uchun zarur bo’lgan bo’sh yer maydonlari, bino va inshootlar, ularning qiymati va shartlari haqidagi to’liq xaritanı istalgan vaqt va hududda onlayn tartibda olish imkoniyati yaratiladi” [1], deb alohida ko’rsatib o’tdi.

Tadbirkorlik maqsadlarida ajratilgan yer uchastkalaridan foydalanish tartibini buzganlik uchun qonunlarda belgilangan jazo choralari ni qo’llash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki qonunlarda ko’rsatilgan yerdan noto’g’ri foydalanilganlik uchun javobgarlikka tortuvchi, jazo choralari ni belgilovchi huquq normalari yerdan foydalanuvchi subyektlar, yer resurslarini tasarruf etuvchi davlat organlari va tadbirkorlarni yerdan qonunda belgilangan tartibda maqsadga muvofiq ravishda foydalanishga undaydi [3].

Shuningdek, yerdan foydalanishda tadbirkorlarga nisbatan qo’llaniladigan jazo choralari tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanuvchi subyektlarni O’zbekiston Respublikasining amaldagi tadbirkorlik, ekologik, agrar va boshqa qonunlariga og’ishmay rioya qilishlari hamda tabiiy resurslardan foydalanuvchi tadbirkorlar va yer egalari nıng buzilgan huquqlarini tiklashda va umuman, tadbirkorlik faoliyati sohasidagi qonun hujjatlarini ta’minlashga xizmat qiladi [4].

Ta’kidlash o’rinli ki, tadbirkorlarning yer uchastkalaridan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik jazo choralari hozirgi kun talabi darajasida deyi sh qiyin.

Uning sabablari, birinchidan, amaliyotda yer uchastkalaridan noto’g’ri foydalanish oqibatida sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun barcha holatlarda ham jazo choralari yetarlicha qo’llanilmayapti; ikkinchidan, tadbirkorlik faoliyati yer uchastkalaridan foydalanish sohasida sodir etilgan barcha huquqbuzarliklar uchun amaldagi qonunlarda yetarli darajada javobgarlik jazo chorasi o’rnatilmagan; uchin chidan, tadbirkorlar tomonidan yer uchastkalaridan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun qonunlarda o’rnatilgan jazo choralari sodir etilgan huquqbuzarliklarning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik zarari bilan solishtirilganda, ancha yengilligi shular jumlasidandir.

Shu sababli tadbirkorlarning yer uchastkalaridan foydalanish huquqini tartibga soladigan qonun hujjatlari talablarini buzganlik uchun javobgarlik jazo choralari masalalarini o’rganish, sodir etilayotgan huquqbuzarliklar uchun jazo choralari samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish, shunday tavsiyalar bilan O’zbekiston Respublikasining tegishli qonun normalarining sanksiyalarini kuchaytirish, umuman, tadbirkorlarning yer uchastkalaridan foydalanish huquqini buzganlik uchun javobgarlik muammolari ustida ilmiy-nazariy ishlar olib borish ham nazariy, ham amaliy, ham ilmiy ahamiyatga egadir.

Shu munosabat bilan O’zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlik maqsadlarida yer uchastkalarini ajratish masalasida 2018-yil 27-iyuldagi “Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi, 2018-yil 11-oktabrdagi “Davlat mulki obyektlari va yer uchastkalariga bo’lgan huquqlarni tadbirkorlik subyektlariga sotish tartibini soddalashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi, 2019-yil 13-avgustdagi “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo’llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to’g’risida”gi farmonlari katta ahamiyatga ega bo’lib, bu sohada ham javobgarlik masalalarini ancha kuchaytirdi.

Xususiyatli tomoni shundaki, tadbirkorlarning yer uchastkalaridan foydalanish huquqini buzganlik uchun intizomiy, ma’muriy, fuqarolik, jinoiy javobgarlik kabi jazo choralari qo’llanilishining asosiy sababi shundaki, tadbirkorlik qonunchiligi o’zida sanab o’tilgan jazo choralari ni belgilamaydi, balki yer uchastkalaridan foydalanish huquqi buzilganda, o’sha qonunlar normalarini qo’llash tavsiya etiladi.

Umuman olganda, yer uchastkalaridan foydalanish huquqini buzganlik uchun javobgarlik – bu tadbirkorlarning yer uchastkalaridan samarali va oqilona foydalanish hamda yer uchastkalaridan foydalanuvchi tadbirkorlarning huquqlarini

himoya qilishga qaratilgan huquq me'yorlarida o'z ifodasini topgan ma'lum choralar tizimidir [12; 13].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni ta'kidlash o'rinliki, tadbirkorlarning yer uchastkalari-dan foydalanish huquqini buzganlik uchun yuridik javobgarlikni qo'llash masalasi yer huquqida muhim ahamiyatga ega.

Shu munosabat bilan chop etilgan ayrim maqolalar [7; 8], monografiya [9] hamda yangi darsliklarda [10] tadbirkorlarning yer uchastkalari-dan foydalanish huquqi tartibini buzganlik uchun yuridik javobgarlik masalalari batafsil yoritilgan.

Xulosalar

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, tadbirkorlik maqsadlarida ajratilgan yer uchastkalari-dan foydalanish tartib va qoidalarini buzganlik uchun jinoiy-huquqiy javobgarlik tabiatni muhofaza qilish, tabiiy obyektlar bo'lgan yer, suv, yer osti boyliklari, o'rmon, havo, o'simlik va hayvonot dunyosidan foydalanishdan kelib chiqadigan huquqiy tartib-qoidalarini buzganlik uchun qo'llaniladigan jinoiy jazo choralari bilan bevosita bog'liqdir. Hozirgi ayrim yuridik adabiyotlarda ekologiya sohasida sodir etilgan jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikning xususiyatlarini o'rganishga ham alohida e'tibor qaratilgan [12].

Demak, yer va tabiiy resurslardan foydalanish va muhofaza qilish, ular to'g'risidagi qonun hamda talablarni buzganlikda jinoiy javobgarlikni qo'llash uchun ekologik va agrar qonun normalari bilan birgalikda jinoyat qonunlari normalari ham buzilgan bo'lishi va shu huquqbuzarliklar uchun Jinoyat kodeksida jazo chorasi belgilangan bo'lishi lozim. Aks holda, jinoiy javobgarlik kelib chiqmasligi ham mumkin.

Ta'kidlash o'rinliki, tadbirkorlik maqsadlarida ajratilgan yer uchastkalaridan foydalanish talab va qoidalari, ular to'g'risidagi qonunlarni buzganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortishda bir qator jinoyat tarkibi sodir etilgan bo'lishi lozim.

Bular huquqbuzarlik (jinoyat), aybning mavjudligi, ijtimoiy xavflilik darajasining borligi, huquqqa xilofligi hamda jazoga sazovorlik kabilardir.

Tadbirkorlik faoliyatida sodir etilgan mazkur jinoyat (huquqbuzarlik)ning subyekt sifatida fuqarolar, chet el fuqarolari, mansabdor shaxslar va boshqa jismoniy shaxslar tan olinadi.

Aslida, turizm ham migratsiyaning bir turi. Intellectual migratsiya, ichki va tashqi mehnat migratsiyasi ham migratsiyaning turlaridan hisoblanadi. Turizm migratsiyasi vakillari bo'lgan shaxslar xalqaro huquqda "visitor" ("*tashrif buyu-ruvchi*") deya yuritiladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ochiq siyosati O'zbekistonda turizm sohasining jadal rivojlanishiga keng yo'l ochdi. Aniq misol bilan aytadigan bo'lsak, 2017-yildan to 2019-yilga qadar turizm sohasidan olingan daromad – ushbu xizmatlar eksporti hajmi hamda ularning mam-lakat YIMdagi ulushi 2,5 barobar oshdi. 2019-yil-da turizm xizmatlari eksporti umumiy hajmining YIMga nisbati 2,3 foizni tashkil qildi [5].

Ma'lumotlarga ko'ra, Gruziyada turizmning YIMdagi ulushi 11,6 foizni tashkil etadi. Shu ma'noda iqtisodiyoti rang-barang O'zbekiston-da ayni sohaning so'nggi bir necha yil davomida jadal rivojlanishi natijasida undan tushadigan daromadning umumiy hajmi bir necha milliard dollarga yetishi mumkin edi. Biroq 2020-yil boshida dunyo bo'ylab tarqala boshlagan koro-navirus pandemiyasi ushbu rejalarni chetga surib qo'ydi. Jahondagi barcha mamlakatlar turizmida boshlangan inqiroz O'zbekistonni ham chetlab o'tmadi. 2019-yilda turistik xizmatlar eksporti hajmi 1,3-1,4 milliard dollarni tashkil qilgan edi (Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (hozirgi Turizm va sport vazirligi) ma'lumotlariga ko'ra – \$1,3 mlrd., Davlat statistika qo'mitasi ma'lumot-lariga ko'ra – \$1,4 mlrd.). 2020-yilning 1-yarim yilligida esa turistik xizmatlar eksportidan tush-gan daromad jami 203,5 million AQSH dollariga yetdi. Ushbu daromadning 99,5 foizi (\$202,4 mln) 2020-yilning 1-choragiga to'g'ri keladi. 2-chorak-da bu ko'rsatkich atigi 1,1 million dollarga teng bo'ldi.

Shunga qaramasdan, 2020-yilda mamlakatimizga 1 million 504 ming xorijiy sayyohlar tashrif buyurdi. Ko'rsatilgan sayyohlik xizmatlari qiymati 261 millionni tashkil etdi. 2021-yilda sayyohlar sonini 1,7 million, sayyohlik xizmatlari eksporti hajmini 370 mln dollarga yetkazish rejalashtirilgan. Shuningdek, ichki turizm ishtirokchilari soni 2020-yilda 1,8 millionni tashkil qilgan bo'lsa, joriy yilda mazkur ko'rsatkich 7,5 millionni tashkil etishi kutilmoqda [6].

Umuman olganda, so'nggi besh yil davomida O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari, ko'rsatiladigan xizmatlar turlari tubdan takomillashtirildi, turizm bilan shug'ullanuvchi alohida davlat organi – Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (hozirda Turizm va sport vazirligi) tashkil etildi, mazkur tashkilot rahbariga O'zbekiston Respublikasi bosh vazirining o'rinbosari maqomi berildi. Shuningdek, turizm sohasida kadrlarni tayyorlash, ilmiy izlanishlarni amalga oshirish tizimi qaytadan ko'rib chiqildi. Turizm sohasidagi kadrlarni tayyorlashga ixtisoslashgan "Ipak yo'li" xalqaro turizm universiteti tashkil etildi.

Sohani tartibga solish va rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar paketi yaratildi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar sirasiga "Turizm to'g'risida"gi Qonun, 2019–2025-yillarda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish konsepsiyasi, turizm sohasidagi biznesga turli imtiyoz va preferensiyalar berish, ushbu sohaga investitsiyalar jalb qilish va ularni rag'batlantirish, chet ellik investorlarga turli imtiyozlar taqdim etish kabi chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi qonunchilik hujjatlari kiradi.

Pandemiya sharoitida ham turizm sohasini qo'llab-quvvatlashga doir bir qator qonunchilik hujjatlari qabul qilindi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-martdagi PF-5969-son "Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-iyundagi PQ-4755-son "Turizm sohasini sanitariya-epidemiologik xavfsizlikning kuchaytirilgan rejimi talablariga qat'iy rioya qilgan holda rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasin-

ing 2020-yil 6-oktabrdagi 602-son "Koronavirus pandemiyasi tufayli yuzaga kelgan iqtisodiy vaziyatda turizm sohasi subyektlarini qo'llab-quvvatlash va turizm infratuzilmasini rivojlantirish to'g'risida"gi qarori asosida Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan turizm sohasi subyektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan tegishli hajm va shartlarda kompensatsiya qilindi. Bu esa inqirozli holatlarda turizm sohasi xo'jalik subyektlari faoliyatini barqaror rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Bundan tashqari, 2017-yil boshida fuqarolari O'zbekistonga vizasiz kiruvchi mamlakatlar soni 10 tadan oshmagan bo'lsa, oradan uch yil o'tib, ushbu ro'yxat tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga binoan deyarli 10 barobarga kengaytirildi. Xorijiy davlat fuqarolariga 5 kungacha mamlakatda mehmon bo'lishga ruxsat beruvchi vizasiz tranzit rejimi joriy etildi. Ularni hisobga va ro'yxatga olish tartibi ancha soddalashtirilib, elektron vizalarni rasmiylashtirish tartibi qabul qilindi. Vizalarning maxsus toifalari ishga tushdi.

Migratsiya

So'nggi yillarda turizm sohasida amalga oshirilgan islohotlar singari migratsiya, shu jumladan, mehnat migratsiyasi sohasida ham bir qator islohotlar amalga oshirildi. Ammo hali bu borada qilinishi lozim bo'lgan bir qator ishlar mavjud. Jumladan, migratsiya, ayniqsa, tashqi va ichki mehnat migratsiyasining huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash maqsadga muvofiqdir. Quyida shu haqda so'z yuritamiz.

Jahon miqyosida olib qaraydigan bo'lsak, Xalqaro migratsiya tashkiloti (XMT) ma'lumotiga ko'ra, xalqaro migrantlarning umumiy soni dunyo bo'ylab qariyb 272 million kishini tashkil etib, ularning uchdan ikki qismi mehnat migrantlari hisoblanadi. 2020-yilda dunyo bo'ylab migrantlarning rasmiy pul o'tkazmalari umumiy hajmi 689 mlrd AQSH dollaridan oshgan [7].

Birgina 2020-yil davomida Rossiya Federatsiyasidan o'zbekistonlik mehnat migrantlari tomonidan mamlakatimizga jo'natilgan pul mablag'lari 5,5 mlrd AQSH dollari yoki mamlakat yalpi ichki mahsulotining taxminan 10 foizini tashkil qiladi. Rossiyada faoliyat olib borayotgan jami mehnat migrantlari sonining 10 foizini o'zbekistonlik migrantlar tashkil etadi [8, 3-bet]. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur

yo'nalishdagi ishlarni takomillashtirishga qaratilgan ko'plab islohotlar amalga oshirildi.

Xususan, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tomonidan 2017-yilda 922 nafar fuqaro Rossiyaga tashkillashtirilgan tarzda ishga yuborilgan bo'lsa, 2018-yilda bu ko'rsatkich 50 ming nafarni tashkil etdi. Agentlikning xorijiy davlatlarda vakolatxonalari ochildi [9].

Mehnat migratsiyasining huquqiy asoslari takomillashtirildi. 2018–2021-yillar oralig'ida bu bo'yicha 10 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. "Xususiy bandlik agentliklari to'g'risida" va "Aholi bandligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari shular jumlasidandir. Ayni paytda "Tashqi mehnat migratsiyasi to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqilgan va uning muhokamasi olib borilmoqda.

Mehnat migrantlarining hayoti va ehtiyojlarini o'rganish hamda hal qilish bo'yicha yangi tizim joriy etilganligiga qaramasdan, xorijda vatandoshlarimiz orasida noqonuniy mehnat migrantlari uchrab turibdi. Masalan, Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vazirligi 2021-yil 16-aprelda RF hududida noqonuniy yashab kelayotgan 332 620 nafar o'zbekistonlik migrantlarni 2021-yilning 15-iyuniga qadar olib chiqib ketish kerakligini e'lon qilgan edi. Keyinchalik mazkur muddat 2021-yil 30-sentabrga qadar uzaytirildi [10]. Bu migrantlar pandemiya sababli hujjatlarini o'z vaqtida qonuniy rasmiylashtira olmagan respublikamiz fuqarolari edi.

2020-yil yakunlariga ko'ra, ish topish maqsadida 1 million 630 mingdan ortiq fuqarolarimiz mamlakatni tark etgan. Ulardan bir million nafarga yaqini, aniqrog'i, 944 328 nafari Rossiya Federatsiyasiga, 626 791 nafari Qozog'istonga, qolganlari Turkiya, Janubiy Koreya va boshqa davlatlarga chiqib ketgan.

Qayd etib o'tish joizki, bugungi kunda tashqi mehnat migratsiyasini tartibga solishga davlat rahbari darajasida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, joriy yilning 15-oktabr kuni 158 ming nafar o'zbekistonliklarning Rossiyaga kirishiga qo'yilgan taqiq olib tashlandi [11].

O'zbekiston 2019-yilda Xalqaro Migratsiya Tashkilotining 173-a'zosiga aylandi. Toshkent shahrida mazkur xalqaro tashkilot ofisi o'z faoliyatini boshladi. Toshkentda Xalqaro Migratsiya Tashkiloti (XMT)ning to'laqonli vakolatxonasini ochish maqsadida XMT va O'zbekiston o'rtasida

kelishuv imzolandi. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 26-dekabrda O'RQ-510-sonli Qonuni bilan Xalqaro Migratsiya Tashkiloti Konstitutsiyasi (Bryussel, 1953-yil 19-oktabr) ratifikatsiya qilindi.

2021-yil 16-oktabr kuni bo'lib o'tgan MDH davlat rahbarlari sammitida ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev migrantlar masalasiga e'tibor qaratib, ularning xavfsizligi va sog'ligini ta'minlash bo'yicha o'z takliflarini berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 11-avgustdagi PQ-4804-son qarori bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda "Ishga marhamat" monomarkazlari, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimidagi kasb-hunarga o'qitish markazlari, qisqa muddatli kasb-hunarga o'qitish kurslari va mahalla aholisini kasb-hunarga o'qitish maskanlari tashkil etilishi belgilandi. Mazkur kasb-hunarga o'qitish markazlarida kambag'al va ishsiz fuqarolarni bugungi kunda yurtimiz hamda jahonda talab yuqori bo'lgan kasblarga o'qitish orqali ularning farovon turmushi va bandligini ta'minlash maqsad qilingan.

Bundan tashqari, yoshlarni oliy ta'limga qadar axborot texnologiyalari, dasturchilik sohasida o'qitish orqali ularni nafaqat yurtimiz, balki jahonda talab yuqori bo'lgan ish o'rinlariga tayyorlash ko'zda tutilgan. Bu bo'yicha hududlarda IT akademiyalar tashkil etilmoqda.

Shu bilan birga, migratsiya sohasida amalga oshirilishi kerak bo'lgan bir qator ishlar mavjud.

Birinchidan, tashqi mehnat migratsiyasi bo'yicha fuqarolarni tashkillashtirilgan tarzda xorijga yuborish qamrovi yetarli darajada emas. Tashqi mehnat migratsiyasining ishonarli va to'g'ri statistikasi yo'q [12, 50-b.].

Ikkinchidan, ichki mehnat migratsiyasi to'g'risida tahliliy-statistik ishlar amalga oshirilmagan, garchi yetarlicha huquqiy asoslar bo'lsa-da, ichki mehnat bozorini rivojlantirish, ayni paytda talab yuqori kasblarga o'qitishni jadalashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar ko'lami yetarli emas. Bunda joylarda faoliyat olib bo-

ruvchi mazkur sohaga mas’ul kadrlarning yetarli bilimga ega emasligi va tajribasizligi asosiy rol o’ynamoqda. Mamlakat ichkarisida bir hududdan ikkinchi hududga ish topish, ishlash uchun ko’chib o’tgan aholi soni bo’yicha tahlillar yo’q. Bunday tahlillarning ahamiyati shundaki, aholi nega bir hududdan ikkinchi hududga ishlash uchun borayotganligi, har ikkala hududning iqtisodiy-ijtimoiy holati tahlil qilinadi. Tahlillardan kelib chiqqan holda, tegishli iqtisodiy-huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshirish mumkin.

Uchinchidan, tashqi va ichki mehnat migratsiyasini yagona tamoyillar hamda qoidalar asosida tartibga soluvchi va yagona migratsiya siyosatini belgilab beruvchi yagona migratsiya qonunchiligi ishlab chiqilmagan [13, 15-b.].

To’rtinchidan, yagona huquqni qo’llash amaliyotini shakllantirish, qonunchilikdagi tautologiya va tushunmovchiliklarning oldini olish maqsadida “tashqi mehnat migratsiyasi”, “ichki mehnat migratsiyasi”, “norasmiy bandlik”, “yoshlar bandligi”, “mavsumiy bandlik”, “yollanma mehnat” tushunchalariga xalqaro standartlarni inobatga olgan holda, milliy mehnat qonunchiligida aniq huquqiy ta’rif berish maqsadga muvofiq. Bu qonun hujjatlarining bir xilda va aniq tushunilishiga xizmat qiladi, ular haqidagi fikrlarning turli xilligiga barham beradi.

Beshinchidan, nafaqat tashqi migratsiya, balki migratsiyaning barcha turlari haqida ma’lumot beruvchi va to’g’ridan-to’g’ri amal qiluvchi “Migratsiya to’g’risida”gi qonun loyihasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. “Turizm to’g’risida”gi Qonunning qabul qilinishi turizm sohasidagi turli qonun va qonunosti hujjat normalarini birlashtirib, yagona turizm siyosati yo’nalishlarini ko’rsatib berishga xizmat qilgani kabi “Migratsiya to’g’risida”gi qonunning qabul qilinishi migratsiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo’nalishlari va vazifalarini belgilab beradi. Shu bilan birga, “Mehnat migrantlari to’g’risida”gi Xalqaro Mehnat Tashkiloti 97-son konvensiyasining O’zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilinishi ham yagona migratsiya qonunchiligi shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Oltinchidan, O’zbekistonga qonunchiligi, ijtimoiy-iqtisodiy holati yaqin bo’lgan MDH davlatlari, shuningdek, migratsiya sohasida boy tajribaga ega bo’lgan Filippin kabi davlatlar tajribasini o’rganish va amaliyotda foydalanish lozim.

Jumladan, yagona migratsiya qonunchiligini yaratish, mavjudlarini takomillashtirish yo’nalishlarini belgilab olish maqsadida O’zbekiston Respublikasining 2021–2027-yillarga mo’ljallangan davlat migratsiya siyosati konsepsiyasini yaratish maqsadga muvofiqdir. *Rossiya Federatsiyasida* bunday konsepsiya 2018-yil 31-oktabrdagi RF Prezidenti farmoni bilan tasdiqlangan [14].

Qozog’iston tajribasidan kelib chiqib, mamlakat migratsiya qonunchiligini tanqidiy ko’rib chiqish maqsadga muvofiq. Qozog’istonda migratsiyani tartibga soluvchi “Aholi migratsiyasi to’g’risida” va “Qochoqlar to’g’risida” (2011-yil)gi qonunlar qabul qilingan. Shuningdek, “Migratsiya protsessini tartibga solish to’g’risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqilgan [15].

Belarus Respublikasida “Tashqi mehnat migratsiyasi to’g’risida” (2010) va “Xorijiy fuqarolarga va fuqaroligi bo’lmagan shaxslarga qochoq, qo’shimcha va vaqtinchalik himoya taqdim etish to’g’risida” (2008)gi qonunlar qabul qilingan [16].

Migratsiya qonunchiligini takomillashtirishda yuqorida sanab o’tilgan davlatlar tajribasidan foydalanish o’rinli bo’ladi. Bundan tashqari, mehnat migrantlarini qo’llab-quvvatlash bo’yicha Filippin tajribasini o’rganish ham huquq ijodkorligi, ham huquqni qo’llash amaliyoti uchun bir xil foyda keltirishi mumkin.

Filippin ishchi kuchini eksport qilish bo’yicha dunyoda Xitoy, Hindiston va Meksikadan so’ng to’rtinchi o’rinda turadi. Hozirda har yili 3,5 mln. ga yaqin kishi vaqtinchalik mehnat faoliyati bilan shug’ullanish maqsadida mamlakatdan chiqib ketmoqda. XX asrning oxirlarida Filippin “iqtisodiy diplomatiyasi”ning asosiy vazifalaridan biri xorijga ishchi kuchi eksportini kengaytirish bo’ldi [17].

Hozirda 7,6 mln Filippin fuqarolari dunyoning 90 dan ortiq davlatlarida mehnat migranti sifatida faoliyat olib bormoqda.

1970-yildan boshlab Filippin Prezidenti Ferdinand Markos mehnat migratsiyasini boshqarishni ta’minlash va ishchi kuchini rasmiy ravishda eksport qilish siyosatini amalga oshira boshladi. Ushbu siyosat natijasida mamlakat ishsizlik, ijtimoiy bosim singari muammolarni hal etishga erishib, mamlakatga katta miqdorda valyuta kirib kelishini ta’minladi. 1974-yil “Mehnat to’g’risida”gi qonun qabul qilinib, ishchi kuchini eksport qilish qonuniylashtirildi.

1982-yilda mamlakat prezidentining 797-sonli Farmoni asosida xorijda ishlashni qo'llab-quvvatlash, rivojlantirish hamda mehnat migrantlari huquqlarini himoya qilish dasturi ishlab chiqildi. Ushbu dasturga ko'ra, mehnat migrantlariga ishga yollanish, mamlakatga kirish-chiqish, hujjatlar rasmiylashtirish, maoshni o'z vaqtida olish, ishga yollash agentliklari va ish beruvchi bilan bog'liq muammolarni hal etishda hukumat darajasida yordam beriladi. Shuning uchun ham har qanday chet ellik ish beruvchi Filippin fuqarolarini ishga yollashdan oldin o'zlarining qonuniy faoliyatlari to'g'risida Filippin Respublikasi Xorijda ish bilan ta'minlash agentligi va uning bo'limlariga hujjat taqdim qilishi lozim. Shunday qilingandan so'nggina tomonlar o'rtasida mehnat shartnomasi imzolanishi mumkin.

Filippinda Xorijda ish bilan ta'minlash agentligidan tashqari yana uchta davlat tashkiloti migratsiya masalalari bilan shug'ullanadi. Bular:

Xorijda filippinliklarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash masalalari agentligi va agentlik huzuridagi Filippinlik migrantlarni himoya qilish jamg'armasi;

Texnik ta'lim va ilm-fanni rivojlantirish agentligi (filippinliklarni xorijda talab yuqori bo'lgan kasblarga o'qitish, ular bormoqchi bo'lgan davlatlar tilini o'rgatish bilan shug'ullanadi);

Migrantlarni to'plash agentligi (migrantlarni tashkillashtirilgan tarzda guruh-guruh qilib xorijga yuborish bilan shug'ullanadi) [20]. Mazkur

agentlik migrantlarni xorijga tashkillashtirilgan tarzda yuborish bo'yicha yagona tashkilot emas. Garchi migrantlarni xorijga yuborishda sezilarli o'ringa ega bo'lsa-da, mamlakatda agentlik vazifasi bilan shug'ullanuvchi yana 1351 ta xususiy bandlik agentliklari mavjud [18, 131-b.].

Xulosalar

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, so'ngi yillarda turizm sohasida tub islohotlar amalga oshirilishi natijasida mazkur sohaning tashkiliy-huquqiy asoslari mutlaqo o'zgardi. Buning ijobiy natijasi turizm salohiyatining o'sish dinamikasida ham o'z ifodasini topganligini yuqorida ta'kidlab o'tdik. Ammo migratsiya sohasini tartibga solish hamda fuqarolarimizning xorijda qonuniy va xavfsiz ishlashlari uchun sharoit yaratish bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar talaygina. Keltirib o'tilgan muammolar va ularning yechimlariga oid takliflar esa ichki va tashqi mehnat migratsiyasini samarali tashkil etishda ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Shuningdek, 2021-yil 13-sentabrda e'lon qilingan Groundswell ("To'qqizinchi to'lqin")ning yangi hisobotida aytilishicha, 2050-yilga kelib Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyoda 5,1 mln nafargacha iqlim migrantlari paydo bo'lishi mumkin [19, 95-b.]. Bu umumiy prognoz qilinayotgan aholining 2,3 foizini tashkil qiladi. Ulardan taxminan 2,4 mln nafari Markaziy Osiyoda yashaydi. Bu kabi holatlarga qarshi turish uchun esa uzoq muddatli strategiyalar ishlab chiqish talab etiladi.

REFERENCES

1. Achilova L. Vliyaniye COVID-19 na gostinichniye usluga: natsionalniy i zarubejniy opit. Review of law sciences (2020) 96-101 [Elektronniy resurs] <https://cyberleninka.ru/article/n/vliyanie-covid-19-na-gostinichne-uslugi-natsionalnyy-i-zarubezhnyy-opyt>
2. Doklad o migratsii v mire 2020. Mejdunarodnaya organizatsiya po migratsii. www.iom.int/wmr. S. 550
3. Rossiyada mehnat migrantlariga talab ortyapti. <https://yuz.uz/news/rossiyada-mehnat-migrantlariga-talab-ortyapti>
4. Doklad o migratsii v mire 2020. Mejdunarodnaya organizatsiya po migratsii. www.iom.int/wmr. S. 550
5. O'zbekistonda turizm: pandemiyadan oldin va keyin. <https://www.uzanalytics.com/iqtisodi%D0%B5t/8193/>
6. Uzbekistan posetilo 1.5 mln turistov <https://www.gazeta.uz/ru/2021/01/09/turizm-stat/>
7. Mehnat migratsiyasi, geografiya va diversifikatsiya. <https://www.uzanalytics.com/iqtisodi%D0%B5t/graphics/4183/>

8. Abrorjon Otajonov. O'zbekiston Respublikasida mehnat migratsiyasini tashkiliy-huquqiy tartibga solishga doir muammo va yechimlar. Qonun hujjatlarini tizimlashtirish va qonunchilik texnikasi usullarini joriy etish: ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: Yuristlar malakasini oshirish markazi, 2021. 3–7-betlar.
9. O'zbekiston migratsiya siyosati. <https://sputniknews-uz.com/20180307/Ozbekiston-migratsiya-siyosati-7667454.html>
10. Ruzinazarov, SH. N., & Achilova, L. I. (2020). Elektronniye sdelki i problemi ix primeneniya v usloviyax sifrovogo grajdanskogo oborota. In Razvitiye Obshestva i Nauki v Usloviyax Sifrovoy Ekonomiki (pp. 4-25).
11. <https://bugun.uz/2021/10/12/rossiya-150-ming-ozbekistonlikning-deportini-bekor-qildi>
12. Yevropeyskaya Ekonomicheskaya Komissiya OON, Fond OON v oblasti narodonaseleniY. Statistika mejdunarodnoy migratsii. Prakticheskoye rukovodstvo dlya stran Vostochnoy Yevropi i Sentralnoy Azii. OON – 2021.
13. Neustoychivaya zanyatost v Uzbekistane: sostoyaniye, problemi i puti ix resheniY. PROON, 2018 (www.undp.org)
14. Migratsionnoye zakonodatelstvo <https://migrantmedia.ru/migracionnoe-zakonodatelstvo-rf/>
15. Zakon RK «O migratsii naseleniya» (2011 g., s izmeneniyami 2021 g.) <https://www.legislationline.org/ru/legislation/section/legislation/country/21/topic/10>
16. Zakon RK «O bejensax» (2011 g., s izmeneniyami 2020 g.) <https://www.legislationline.org/ru/legislation/section/legislation/country/42/topic/10>
17. Ruzinazarov, SH., & Achilova, L. (2020). Tendensii i razvitiya pravovogo regulirovaniya inostrannix investitsiy v Respublike Uzbekistan. Yurist axborotnomasi, 1(4), 71-75.
18. Mo'minov R.E., Isroilov B.M. Tashqi mehnat migratsiyasini boshqarish mexanizmlari: milliy va xorijiy tajriba. O'zbekiston Respublikasida migratsiya siyosatini ta'minlash muammolari va yechimlari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (2019-yil 17-may). – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019. 126–133-betlar
19. Groundswell, Acting on internal climate migration. Part II, 2021, International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank. P. 392. <https://openknowledge.worldbank.org/handle/10986/36248>
20. Isakulov, SH. (2021). Osobennosti sistematizatsii migratsionnix protsessov i mexanizmov upravleniY. Iqtisodiyot va ta'lim, (4), 281–288. izvlecheno ot <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/173>

UDC: 34(042)(575.1)
ORCID: 0000-0002-5961-9970

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNCHILIGI BO'YICHA YURIDIK SHAXS MUASSISI JAVOBGARLIGINING NAZARIY VA AMALIY MUAMMOLARI

Imomov Nurillo Fayzullayevich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
kafedra mudiri,
yuridik fanlar doktori, professor,
e-mail: nurillo_1212@mail.ru

Annotatsiya. Yuridik shaxsning javobgarligi bilan bog'liq masalalar, bunda mavjud bo'lgan muammoli va yechimini topishi lozim bo'lgan konseptual jihatlar, uzoq vaqtdan buyon davom etib kelayotgan munozarali savollar zamoniy voqeliklar, mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy-huquqiy islohotlar negizida rivojlangan bozor qonuniyatlaridan kelib chiqib tahlil etilishi dolzarbdir. Sodda qilib aytganda, yuridik shaxsning javobgarligi uning o'z majburiyatlari uchun o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk bilan javob berishini anglatadi. Bunda yuridik shaxs zimmasidagi majburiyatlarni bajarmaganligi uchun o'zining mulkida mavjud bo'lgan mol-mulk bilan javob beradi. Biroq bu sodda konstruktsiya har doim yuridik shaxsning javobgarligi uchun yetarli bo'lmaydi. Ko'p hollarda yuridik shaxsning majburiyatlari uchun javobgarlik yuzaga kelganda, uning mol-mulki yetmay qolishi mumkin va bu holatda javobgarlik kimning zimmasida bo'lishi muammosi yuzaga keladi. Yuridik shaxs konstruktsiyasining mohiyatida yuridik shaxs mol-mulking muassislari va ishtirokchilari mol-mulkidan ajratilganligi va yuridik shaxs faqat ixtiyoridagi mol-mulk bilan javob berishi e'tirof etilgan edi. Ushbu nuqtayi nazardan turib yondashilsa, yuridik shaxs javobgarligini ta'minlashda unda mavjud bo'lgan mol-mulkning yetarli bo'lmasligi kreditorlarning qolgan talabi qondirilmashligini anglatadi. Biroq bu holatda kreditor manfaatlariga putur yetgan va yuridik shaxs tuzib undan foyda olgan va uning faoliyatini bevosita amalga oshirgan shaxslar tomonidan turli suiiste'molliklar va qing'irlik (maxinatsiya)larga yo'l qo'yilishi yuzaga kelar edi. Shu sababli amaldagi qonunchilik yuridik shaxslar javobgarligini belgilashda bir-biridan mustaqil ikki subyekt – yuridik shaxs va uning muassisi (ishtirokchisi) aloqadorligi va mas'uliyatini belgilaydi. Bunday yondashuv yuridik shaxsning deyarli barcha tashkiliy-huquqiy shakli uchun xosdir.

Kalit so'zlar: yuridik shaxs, tashkilot, muassasa, muassis, mulkdor, fuqarolik-huquqiy javobgarlik, majburiyat, shartnoma, delikt, kreditor.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ОТВЕТСТВЕННОСТИ УЧРЕДИТЕЛЯ ЮРИДИЧЕСКОГО ЛИЦА ПО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВУ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Имомов Нурилло Файзуллаевич,
доктор юридических наук, профессор,
заведующий кафедрой
Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. Актуальным вопросом является анализ проводимых в стране экономических и правовых реформ на основе развитых рыночных законов, связанных с ответственностью юридического лица. Проблемные и спорные вопросы в этом аспекте возникли уже давно и являются реальностью. Так, ответственность юридического лица означает, что оно отвечает по своим обязательствам принадлежащим ему имуществом. В этом случае юридическое лицо несет ответственность за неисполнение своих обязательств имуществом, находящимся в его владении. Во многих случаях, когда

юридическое лицо отвечает по своим обязательствам, его имущество может быть недостаточным, и в этом случае возникает проблема, кто несет за него ответственность. Было отмечено, что в сущности построения юридического лица лежит разделение имущества учредителей и участников на имущество юридического лица и права собственности на имущество, находящееся в распоряжении юридического лица. С этой точки зрения недостаточность имущества, имеющегося у юридического лица для обеспечения своей ответственности, означает, что оставшиеся требования кредиторов не будут удовлетворены. Однако возможны различные злоупотребления и махинации со стороны лиц, которые нарушили интересы кредитора и создали юридическое лицо, извлекли из него выгоду и непосредственно осуществляли его деятельность. Таким образом, действующее законодательство определяет взаимоотношения и ответственность двух независимых лиц – юридического лица и его учредителя (участника) при определении ответственности юридических лиц, и такой подход характерен практически для всех организационно-правовых форм юридического лица.

Ключевые слова: юридическое лицо, организация, учреждение, учредитель, собственник, гражданско-правовая ответственность, обязательство, договор, деликт, кредитор.

THEORETICAL AND PRACTICAL PROBLEMS OF THE FOUNDER'S LIABILITY OF A LEGAL ENTITY UNDER UZBEK LAW

Imomov Nurillo Fayzullaevich,
Doctor of Law (DSC), Professor
Tashkent State University of Law
head of department

Abstract. The issues related to the liability of a legal entity, the existing problematic and conceptual aspects to be solved, the long-standing controversial issues should be analyzed on the basis of the current realities, market laws developed on the basis of economic and legal reforms in our country. Put simply, the responsibility of a legal entity means that it is liable for its obligations with the property belonging to it. In this case, the legal entity is liable for failure to fulfill its obligations with the property in its possession. However, this simple construction is not always sufficient for the liability of a legal entity. In many cases where liability for a legal person's obligations arises, its property may be lost, in which case the problem arises as to who is liable. Indeed, as noted in the above paragraphs, it has been recognized that the essence of building a legal entity is to separate the assets of the founders and participants from the assets of the legal entity and the ownership of assets held by the legal entity. From this point of view, the insufficiency of the property held by the legal person to secure its liability means that the remaining claims of creditors will not be satisfied. However, in this case various abuses and scandals are possible on the part of the persons who violated the creditor's interests and created the legal entity, benefited from it and directly carried out its activities. Thus, current legislation determines the relationship and responsibility of two independent persons - the legal entity itself and its founder (shareholders) in determining the liability of legal persons, and this approach is typical for almost all organizational-legal forms of legal entities.

Keywords: legal entity, organization, establishment, founder, owner, civil liability, obligation, contract, delict, creditor.

Kirish

Iqtisodiy muomala qatnashchilari qoida tariqasida o'z nomidan harakat qiladi. Bunda ular mulkiy mustaqillik va erk muxtoriyati asosida harakat qiladilar. Ayni paytda huquqiy munosabatda ishtiroki etar ekan, subyekt zimmasidagi majburiyatlari bo'yicha mustaqil mulkiy javobgarlikni ham olishi lozim bo'ladi. Bu jihat shaxsning fuqarolik-huquqiy munosabatlarning to'laqonli subyekt ekanligini tavsiflovchi belgilardan biri sanaladi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligiga ko'ra, jismoniy shaxslar bilan birga yuridik shaxs-

lar ham iqtisodiy muomala ishtirokchisi sifatida huquqlarga ega bo'ladi va zimmasiga majburiyat olishi mumkin. Biroq fuqarolardan farqli ravishda yuridik shaxslar "ortida" ularni tashkil etgan muassis (ishtirokchi)lar ham mavjud bo'ladiki, bu holat yuridik shaxsning huquqiy munosabatdagi ishtiroki hamda uning fuqarolik-huquqiy javobgarligiga ta'sir ko'rsatadi. Chunki yuridik shaxsni tashkil etgan muassis (ishtirokchi)lar uni boshqarish, tegishli qarorlar qabul qilishda suiiste'mollikka yo'l qo'yishlari va oxir-oqibat yuridik shaxsning zarari va o'z foydalarini ko'zlab harakat qilishlari

mumkin. Shu sababli qonunchilik huquqiy munosabatning mustaqil subyekti hisoblangan yuridik shaxsning mustaqil mulkiy javobgarligi bilan birga, istisno tariqasida muassis (ishtirokchi)larning fuqarolik-huquqiy javobgarligiga oid qoidalarini nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (FK)ning 39-moddasi birinchi qismida yuridik shaxs tushunchasiga berilgan ta'rifda "o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan" belgisi ham nazarda tutiladiki, bu holat yuridik shaxs o'zida mavjud bo'lgan yoki unga birlashtirilgan (operativ boshqarish va xo'jalik yuritish huquqida) mol-mulk doirasidagina mulkiy javobgar bo'lishini anglatadi. Boshqacha aytganda, yuridik shaxsning javobgarligi, avvalo, uni tashkil etilish maqsadidan kelib chiqadi. Zero, yuridik shaxs muassislari tomonidan alohida mol-mulk negizida tashkil etiladigan va shu mol-mulka asoslanib faoliyat yuritadigan tuzilma hisoblanadi va muassisning tavakkalchiligi ham faqat shu mol-mulk doirasi bilan cheklanadi. Ya'ni muassis shu yo'l bilan iqtisodiy muomalada qatnashadi va undan ko'zlangan maqsadga erishish uchun harakat qiladi. Masalan, mas'uliyati cheklangan jamiyat (MCHJ)ni tashkil etish orqali muassislari o'z mol-mulklarining muayyan qismini ajratish orqali daromad olish uchun harakat qiladilar va MCHJning majburiyatlari uchun faqat shu mol-mulk doirasida javobgar bo'ladilar. Bundan ko'rinadiki, yuridik shaxsning har qanday turini tashkil etishdan asosiy va bosh maqsad muassis (ishtirokchi)larning javobgarligini istisno qilish, ya'ni muassis (ishtirokchilar) o'z mol-mulki bilan o'zlari tuzgan yuridik shaxs uchun javobgar bo'lib qolishlarining oldini olish hisoblanadi.

Material va metodlar

Yuridik shaxs konstruksiyasi muassis (ishtirokchi)ning shu yuridik shaxs uchun "tikkan" mol-mulki doirasida javobgar bo'lishi va uning qolgan mol-mulklari daxl etmasligi uchun tashkil etilishiga oid yondashuv bugungi kunda ayrim istisnolar bilan qonunchilikda qabul qilingan va o'z ifodasini topgan. Jumladan, FK 48-moddasida yuridik shaxsning javobgarligi borasida quyidagi variantlar belgilangan:

1. Yuridik shaxs o'z majburiyatlari uchun o'z mol-mulki bilan javob beradi. Ya'ni yuridik shaxs javob berishi lozim bo'lgan paytda uning balansida qancha mol-mulk bo'lsa, javobgarlik shu mol-mulk

doirasida amalga oshiriladi. Agar yuridik shaxsning ixtiyorida mavjud bo'lgan mol-mulk uning majburiyatlari yuzasidan javobgarligi qoplashga yetarli bo'lmasa, unda bunday qarzdorlik so'ndirilmagan va umidsiz qarzdorlik bo'lib qolishi lozim. Zero, FKning 48-moddasi birinchi qismida belgilangan qoidadan shunday ma'no anglashiladi.

2. Yuridik shaxsning alohida tashkiliy-huquqiy shakli hisoblangan "davlat korxonasi" va "mulkdor tomonidan moliyaviy ta'minlab turiladigan muassasa"ning javobgarlik uchun alohida tartibi belgilangan. Bu tuzilmalarning majburiyatlari yuzasidan javobgarligini ta'minlashda mol-mulki yetarli bo'lmasa, ular uchun davlat va mol-mulk ega bo'lgan mulkdorning subsidiar javobgarligi belgilangan. Umumiy qoidadan ushbu istisno bu turdagi yuridik shaxslarning "ommaviy huquq" asosida tashkil etilishi [1] va faoliyat yuritishi bilan bog'liqligidan anglashiladi. Zero, bu tashkilotlar bevosita davlat yoki mol-mulk egasi tomonidan boshqariladi va ular tomonidan chiqarilgan qarorlar va berilgan topshiriqlar to'la-to'kis bajariladi. Shu sababli ham bunday tuzilmalar garchi yuridik shaxs sifatida mavjud bo'lsalar-da, ularning fuqarolik-huquqiy javobgarligi "ommaviy huquq" ta'siri ostida faoliyat yuritishlari bois "o'zgacha tartibotga bo'ysundirilgan". Ayrim xorijlik mutaxassislarining [2] e'tirof etishicha, bunday "rejim" ko'p holatlarda davlat manfaatlari uchun salbiy ta'sir ko'rsatishi, ko'p hollarda esa davlat korxonasi rahbariyatining noto'g'ri va asossiz qarori oqibatida yuzaga kelgan zararlarni qoplash davlat byudjeti zimmasiga tushishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli yuridik shaxslar javobgarligini hech bir istisnosiz umumiy konstruksiyaga birlashtirish va barcha turdagi yuridik shaxslar uchun mulkiy javobgarlik nuqtayi nazardan istisnolar faqat muassislarning roziligi va oldindan kelishib qo'yilgan tartibda (masalan, qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlarda) belgilanishi lozim.

3. Yuridik shaxs va uning muassisi majburiyatlar bo'yicha javobgarlikda bir-biridan mustaqil va alohida hisoblanadi. Bunda yuridik shaxs o'z muassisining majburiyatlari bo'yicha va muassis yuridik shaxsning majburiyatlari yuzasidan javobgar hisoblanmaydi. Biroq bu holat qat'iy qoida emas va ushbu holatda muayyan istisno ham mavjud. Bu borada qonun chiqaruvchi FK va yuridik shaxsning ta'sis hujjatlariga havola qiladi. Mazkur havo-laki normada qonun chiqaruvchi qat'iy ra-

vishda faqat ikki asosni keltirgan holda, javobgarlik muassis va yuridik shaxs o'rtasida o'zaro, ya'ni umumiy formulada keltirilganiga teskari tartibda ham yuzaga kelishi mumkinligini anglatadi. Jumladan, ushbu istisnoga ko'ra, yuridik shaxs majburiyatlari uchun muassis va muassis majburiyatlari uchun yuridik shaxs javobgar bo'lishi ham mumkin. Bunday istisno FKning 80-moddasidan ham anglashiladi. Bu moddadan anglashilishicha, davlat tomonidan tuzilgan yuridik shaxs davlatning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi, biroq qonunda nazarda tutilgan hollarda davlat o'zi tomonidan tuzilgan yuridik shaxs majburiyatlari uchun javob berishi mumkin. Bunday holatlardan biri sifatida FKning 80-moddasi ikkinchi qismida kafillik mavjud bo'lganda, davlat ham, yuridik shaxs ham bir-birining majburiyati bo'yicha javobgar bo'lishi belgilangan. Mazkur norma xususida munosabat bildirar ekan, professor M.X. Baratov davlat va unga tegishli yuridik shaxslarning majburiyatlari yuzasidan javobgarligi bahsliligicha qolayotganligi, bunda davlatning o'ziga qarashli yuridik shaxslar va organlarining majburiyatlari yuzasidan subsidiar va solidar javobgarligi holati mezonlarini belgilash lozimligini qayd etadi [3]. Ushbu istisno borasida akademik H. Rahmonqulov shunday fikr bildiradi: "Davlat tomonidan tuzilgan yuridik shaxslarning faoliyat yuritish uchun iqtisodiy manba bo'lgan mol-mulkning egasi davlatning o'zi hisoblanadi. Shunday ekan, yuridik shaxslar tomonidan tuzilgan har bir bitimning ortida, garchi ushbu bitim ular nomidan tuzilgan bo'lsa-da, davlat turadi" [4].

Fikrimizcha, yuridik shaxsning majburiyatlari yuzasidan mulkdor-muassis hisoblangan davlatning javobgarligi fuqarolik-huquqiy munosabatlarda davlat ishtirokining plyuralistik yondashuviga asoslanadi. Qolaversa, yuridik shaxslarning xususiy va ommaviy (davlat) yuridik shaxslarga bo'linish tendensiyasi milliy qonunchilikda qabul qilinmaganligi sababli ham davlat tuzgan yuridik shaxslar javobgarligiga nisbatan ana shunday yondashuvni tanlash zaruratini yuzaga keltirgan. Bundan farqli ravishda G'arbiy Yevropa davlatlari qonunchiligida xususiy va ommaviy yuridik shaxslarning ajratilishi hamda ommaviy yuridik shaxslarning vujudga kelishi, ulardagi boshqaruv va faoliyati yuzasidan qarorlar qabul qilish jarayonlari xususiy-huquqiy tartibga solish doirasidan tashqarida ekanligi, fuqarolik-huquqiy mu-

nosabatlarda ommaviy yuridik shaxslar ham xususiy yuridik shaxslar kabi ishtirok etishi [5] va ularning majburiyatlar yuzasidan javobgarligi ham umumiy tartibotga bo'ysundirilganligi bilan ajralib turadi.

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy bilishning tarixiy, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, mantiqiy, induksiya va deduksiya, statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullar qo'llanilgan.

Tadqiqot natijalari

Yuridik shaxsning majburiyatlari yuzasidan muassisning javobgarligini belgilash asosi FK 48-moddasining to'rtinchi qismida yuridik shaxsning nochorligi (bankrotligi) va shunga muassis va mulkdorning bog'liqligi keltirilgan. Ya'ni muassis yuridik shaxs uchun majburiy ko'rsatmalar berish huquqiga ega bo'lsa va yuridik shaxsning bankrotligi uning g'ayriqonuniy harakatlari oqibatida yuzaga kelgan bo'lsa, mazkur yuridik shaxsning majburiyatlari bo'yicha muassis subsidiar javobgar bo'ladi. Muassis bilan birga yuridik shaxs mol-mulki mulkdori ham aynan mana shartlar va asoslarga ko'ra, yuridik shaxsning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lishi belgilangan. Bunda muassis va yuridik shaxs mol-mulkining mulkdori majburiyatlar yuzasidan javobgarlikni qoplashda yuridik shaxsning mol-mulki yetarli bo'lmaganda, subsidiar javobgar bo'lishi nazarda tutilgan. Shu bilan birga, muassis va mulkdorning "majburiy ko'rsatmalar berish huquqi" tegishli yuridik shaxsning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilishi lozim. O'z navbatida, FKning 48-moddasi oltinchi qismida majburiy ko'rsatmalar berish huquqiga ega bo'lgan muassis yoki mulkdor qaysi holatda yuridik shaxsning bankrotligini yuzaga keltirgan, deb hisoblanishi keltirib o'tilgan. Unga binoan, birinchidan, muassis yoki mulkdor o'z harakati oqibatida yuridik shaxs bankrot bo'lishini oldindan bilishi lozim. Ikkinchidan, muassis yoki mulkdor oldindan bilgan holda yuridik shaxsni bankrotlikka olib keladigan harakatni amalga oshirish yuzasidan o'z huquqidan foydalangan bo'lishi kerak.

Ushbu shartlar va umuman, yuridik shaxs muassisining yuridik shaxs majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgarligiga nisbatan akademik H.Rahmonqulov quyidagi mulohazani bildiradi: "FK 48-moddasining beshinchi-oltinchi qismlari ushbu moddaning to'rtinchi qismiga mos kelmaydi va muassisning yuridik shaxs majburiyatlari uchun subsidiar javobgarligini yo'qqa chiqaradi" [6].

Fikrimizcha, FK 48-moddasi to'rtinchi qismining ushbu modda beshinchi-oltinchi qismlari o'rtasidagi nomutanosiblik ayni paytda quyidagi mezonlar va shartlarni izohlash bilan bog'liqdir. Birinchidan, "majburiy ko'rsatmalar berish huquqi" iborasi mavhum va nimani anglatishi qonunchilikda mavjud emas. Chunki yuridik shaxs tashkil topganidan keyin huquqning mustaqil subyektiga aylanadi va erk-muxtoriyati asosida harakat qiladi. Yuridik shaxs nomidan uning muassislari emas, balki organlari harakat qiladi (FKning 45-moddasi). Bunda muassis yoki mulkdorning to'g'ridan-to'g'ri majburiy ko'rsatma berish huquqi qanday asos va tartibga ko'ra amal qilishi esa noaniqdir. Qonun chiqaruvchi bu boradagi barcha mavhumlikni yuridik shaxsning ta'sis hujjatlariga havola etish orqali hal qilish harakati ham tushunarsizdir. Zero, yuridik shaxs nomidan uning organlari ish yuritar ekan, muassis yoki mulkdorning "majburiy ko'rsatmalar berish huquqi" qonunchilik nuqtayi nazaridan ham to'g'ri hisoblanmaydi. Yuridik shaxslarning tashkiliy-huquqiy shakllariga bag'ishlangan maxsus qonunlarda (O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 6-dekabrda 308-II-son "Xo'jalik shirkatlari to'g'risida"gi, 2001-yil 6-dekabrda 310-II-son "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi qonunlari) ham "muassisning majburiy ko'rsatmalar berish huquqi" mavjudligi xususida normalar nazarda tutilmagan. Muassis yoki mulkdorning bunday huquqi mavjudligiga misol tariqasida FK 48-moddasi sharhida [7] sho'ba xo'jalik jamiyati keltiriladi. Lekin sho'ba xo'jalik jamiyatlariga bag'ishlangan FKning 67-moddasida esa asosiy jamiyat (muassis yoki mulkdor emas)ning sho'ba jamiyat qarzlari bo'yicha subsidiar javobgar bo'lishi belgilangan. Bu javobgarlik asosiy jamiyatning aybi bilan sho'ba jamiyat bankrot bo'lganida yuzaga kelishi nazarda tutilgan. Bundan farqli ravishda O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 6-maydagi O'RQ-370-son "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 8-moddasi beshinchi qismida asosiy jamiyat sho'ba jamiyatiga "majburiy ko'rsatmalar berish huquqi"ga bo'lgani holda, sho'ba xo'jalik jamiyati mazkur ko'rsatmalarni bajarish uchun tuzgan bitim yuzasidan asosiy jamiyat sho'ba jamiyati bilan solidar javobgar bo'lishi belgilangan. Asosiy jamiyatning majburiy ko'rsat-

malar berish huquqi sho'ba xo'jalik jamiyati bilan tuzilgan shartnomada yoki sho'ba xo'jalik jamiyatining ustavida nazarda tutilgan hollarda mavjud bo'lishi mumkin.

Shunga qaramasdan ta'kidlash lozimki, qonunchilik hujjatlari bilan birga huquqni qo'llash amaliyotida ham "muassis yoki mulkdorning majburiy ko'rsatmalar berish huquqi" borasida hech qanday tushuntirish berilmagan va mazkur huquq nimani anglatishi va qanday namoyon bo'lishi xususida izoh ham mavjud emas. Bu masalada MDH davlatlari qonunchiligida ham turli xil yondashuvlar mavjud. Xususan, ayrim mamlakatlar fuqarolik qonunchiligida "muassis yoki mulkdorning majburiy ko'rsatmalar berish huquqi" nazarda tutilmagan. Xususan, Rossiya Federatsiyasi Grajdanklik kodeksining "yuridikshaxsning javobgarligi" nomli 56-moddasida, Qozog'istonning Grajdanklik kodeksining shu masalaga bag'ishlangan 44-moddasida muassis yoki mulkdorning majburiy ko'rsatmalar berish huquqi mavjud emas. Ukraina Grajdanklik kodeksining 96-moddasi uchinchi qismida yuridik shaxs ishtirokchisi (muassisi) uning majburiyatlari uchun ta'sis hujjatlari va qonunda nazarda tutilgan hollardan tashqari javob bermasligi belgilangan. Bundan farqli ravishda, Belarus Grajdanklik kodeksi 52-moddasining ikkinchi qismiga ko'ra, iqtisodiy nochor (bankrot) deb tan olingan yuridik shaxs mol-mulkining mulkdori, uning muassis (ishtirokchi)lari yoki boshqa shaxslar, shu jumladan, yuridik shaxs rahbari shu yuridik shaxs uchun majburiy ko'rsatmalar berish huquqiga yoki boshqacha tarzda uning harakatlarini belgilash imkoniga ega bo'lsa, yuridik shaxsning iqtisodiy nochorligi (bankrotligi) ushbu shaxslarning aybli (qasddan) harakati oqibatidan kelib chiqqan hollarda, yuridik shaxsning mol-mulki yetarli bo'lmaganda, qonunchilik hujjatlarida boshqa hol belgilanmagan bo'lsa, subsidiar javobgar bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, "muassis yoki mulkdorning majburiy ko'rsatmalar berish huquqi" iborasi Belarus qonunchiligi tajribasidan foydalangan holda, O'zbekiston FKga olingan. Biroq Belarus sivilistika nazariyasi va qonunchiligida ham ushbu huquqning mazmuni va mohiyati borasida aniq tasavvur mavjud emasday ko'rinadi. Chunki bunday majburiy ko'rsatma berish huquqi yuridik shaxs faoliyatining qaysi yo'nalishlarida va qanday qarorlar borasida mavjudligi, ushbu huquqning mazmuni hamda amalga oshirish mexanizmlari

mavjud emas. Bu, o'z navbatida, akademik H. Rahmonqulov taklif qilganidek, mazkur tushunarsiz qoidani FKning 48-moddasidan chiqarib tashlash lozimligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Shu bilan birga, FKning xo'jalik shirkatlari hamda unitar korxona, muassasalarga bag'ishlangan normalarida yuridik shaxs muassis (ishtirokchi)lari va mulkdorning yuridik shaxs majburiyati yuzasidan javobgarligiga oid qoidalar FKning 48-moddasida belgilangan normalardan farqli ravishda ifodalangan. Jumladan, FKning "to'liq shirkat" deb nomlangan 60-moddasi birinchi qismidan anglashilishicha, ishtirokchilar to'liq shirkat majburiyatlari bo'yicha o'zlariga tegishli barcha mol-mulk bilan javob beradilar. Bu qoida "Xo'jalik shirkatlari to'g'risida"gi qonunda rivojlantirilgan holda ifodalangan bo'lib, mazkur qonunning 21-moddasi ikkinchi qismiga binoan, "shirkat ishtirokchilari shirkatning majburiyatlari yuzasidan o'z mol-mulkilari bilan solidar tarzda subsidiar javobgar bo'ladilar". Bu shuni anglatadiki, unga ko'ra, ishtirokchilar shirkatning majburiyatlari yuzasidan sheriklik asosida shirkat mol-mulki qarzlarni to'lash uchun yetarli bo'lmaganda, qo'shimcha javobgar bo'ladilar. Bunday javobgarlik (solidar tarzda subsidiar javobgarlik) mohiyatan sheriklarning umumiy ishi yurituvida mavjud bo'lgan mol-mulk qarzlarni to'lashga yetarli bo'lmaganda, qo'shimcha yuzaga keladi hamda hissalariga bo'lingan to'lovlar hisoblanaadi. Har qanday holatda ham xo'jalik shirkatining mol-mulki sheriklarga ulushli asosda tegishli bo'lgan "jamlanma"dan tashkil topadi va mustaqil ravishda boshqa sheriklar tomonidan tasarruf etilmaydi. Chunki har bir ishtirokchi o'z ulushini shirkatdan ajratib olishga, qonunchilikda belgilangan tartibda uni tasarruf etishga haqli hisoblanaadi. Qolaversa, qonun ishtirokchi mol-mulki uning qarzlarini to'lashga yetarli bo'lmaganda, kreditorlar undiruvni ushbu ishtirokchining shirkat ustav fondidagi ulushiga qaratishiga yo'l qo'yadi ("Xo'jalik shirkatlari to'g'risida"gi qonunning 17-moddasi). Fikrimizcha, bu holatda shirkat konstruksiya va uning mohiyati FKda yuridik shaxs tushunchasiga berilgan legal ta'rifga unchalik mos kelmaganday ko'rinadi. "Xo'jalik shirkatlari to'g'risida"gi qonunning 3-moddasi to'rtinchi qismida belgilangan "xo'jalik shirkati o'zining mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkiga ega bo'la-

di" qoidasi ham shunchaki formal talabdir. Zero, mustaqil balansda hisobga olinadigan alohida mol-mulk – yuridik shaxsning asosiy belgilaridan biri "alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan" tashkilot talabiga mos kelmaydi. Shu o'rinda FKning 58-moddasi birinchi qismida xo'jalik shirkati yoki jamiyati qanday mol-mulk-larga nisbatan mulk huquqiga ega bo'lishi nazarda tutilganligiga e'tibor qaratish lozim. Ushbu normada "muassislar (ishtirokchilar) qo'shgan hissalar yoki ular sotib olgan aksiyalar hisobiga vujudga keltirilgan, shuningdek, xo'jalik shirkati yoki jamiyati o'z faoliyati jarayonida ishlab chiqargan va sotib olgan mol-mulk mulk huquqi asosida unga tegishli" ekanligi belgilangan.

Muassis yoki mulkdorning yuridik shaxs majburiyatlari yuzasidan javobgarligi yuridik shaxsning alohida turlarida ham havolalar orqali berilganligini ko'rish mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda "Xususiy korxonalar to'g'risida"gi 558-II-son qonuni-ning 3-moddasi to'rtinchi qismida "xususiy korxonaning mol-mulki majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo'lmaganda, uning mulkdori qonunchilikka muvofiq o'ziga qarashli mol-mulk bilan subsidiar javobgar bo'lishi" belgilangan. Bunda "qonunchilikka muvofiq" deyilganda, aynan qaysi qonun nazarda tutilganligi aniq bo'lmasa-da, bu o'rindagi havola FKning 48-moddasiga qaratilganligini anglash qiyin emas. Chunki qonunchilikda yuridik shaxs majburiyatlari uchun muassis yoki mulkdorning subsidiar javobgarligiga oid umumiy qoida FKning 48-moddasida belgilangan. Muassis yoki mulkdorning yuridik shaxs majburiyatlari yuzasidan subsidiar javobgar bo'lishiga oid havolaki norma fermer xo'jaliklariga nisbatan ham belgilangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgustdagi "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi 662-II-son Qonuni 35-moddasi ikkinchi qismiga binoan, "fermer xo'jaligining mol-mulki yetarli bo'lmaganda, uning majburiyatlari bo'yicha fermer xo'jaligining boshlig'i o'ziga qarashli mol-mulk bilan qonunchilikka muvofiq subsidiar javobgar bo'ladi".

Yuridik shaxs mulkdori va muassisining yuridik shaxs majburiyatlari va qarzlari yuzasidan javobgarligi hamda undiruvni mulkdor va muassisning mol-mulkiga qaratilishiga oid qoidalar O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgust-

dagi “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari ijro etish to’g’risida”gi 258-II-son Qonunning 48³-moddasi birinchi-ikkinchi qismlarida belgilanishicha, “yuridik shaxsning qarzlari bo’yicha undiruv yuridik shaxsning mulkdori, muassisi va ishtirokchilarning pul mablag’lari va boshqa mol-mulkiga qaratiladi” hamda “undiruv xususiy korxona mulkdori, muassasa mulkdori, fermer xo’jaligining rahbari, dehqon xo’jaligining a’zolari, ishlab chiqarish kooperativining a’zolari, qo’shimcha mas’uliyatli jamiyat ishtirokchilari, to’liq shirkat ishtirokchilari, shuningdek, kommandit shirkatdagi to’liq sheriklar pul mablag’lari va boshqa mol-mulkiga qaratilishi” mumkin.

Bundan ko’rinadiki, yuridik shaxs muassis yoki mulkdorning yuridik shaxs majburiyatlari uchun javobgarligiga oid normalarda “qonunchilikka muvofiq” degan havola asosida subsidiar javobgarlik belgilanmoqda. Qonunchilikda esa bunday javobgarlikning bitta sharti, ya’ni FKning 48-moddasi to’rtinchi qismida belgilangan “majburiy ko’rsatma berish huquqiga ega bo’lgan muassis (ishtirokchi) yoki mulkdorning g’ayriqonuniy harakatlari” yuridik shaxs nochorligi (bankrotligi)ga olib kelishi va yuridik shaxsning mol-mulki qarzlarni qoplash uchun yetarli bo’lmasligi hisoblanadi.

Agar guvohlar onlayn sud majlisida ishtirok etayotgan bo'lsalar, fuqarolik ishlari bo'yicha sud ularning ishga aralashuviga yo'l qo'ymasligini ta'minlashi kerak. Onlayn guvohlik xonasi va boshqa holatlar sud platformasida shakllantirilishi lozim. Sud zarur deb topsa, guvohni oflayn rejimda ko'rsatma berish uchun sudga chaqirishi mumkin.

Fuqarolik ishlari bo'yicha sudning rozilgisiz hech kim qonun va qoidalarni buzgan holda, onlayn sud jarayonini o'z ichiga olgan audio, video va grafik materiallarni yozib olishi, saqlashi yoki tarqatishi mumkin emas.

Onlayn sud muhokamasi qo'llaniladigan holatlarda fuqarolik sud ishi jarayonida elektron fayllar yaratilishi kerak. Elektron arxivlarni topshirish, saqlash va ulardan foydalanish sudning ichki tartib-qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Agar ishda qog'oz materiallar bo'lmasa yoki barcha qog'oz materiallar elektron materiallarga aylantirilgan bo'lsa, birinchi instansiya sudi ish

hujjatlarini apellyatsiya instansiyasiga topshirishda qog'oz fayllar o'rniga elektron fayllardan foydalanishi mumkin.

Qog'oz hujjatlar materiallari mavjud bo'lsa, onlayn sud jarayoniga taalluqli bo'lgan hollarda, fayllar tegishli ichki qoidalariga muvofiq topshiriladi va saqlanadi.

Onlayn sud platformasida elektron materiallarni topshirish, ijro varaqalarini elektron tarzda MIBga yuborish mumkin.

Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar platforma orqali mulkka taqiq qo'yilganini tekshirish, onlayn tartibda narxlarni aniqlash va mol-mulkni baholash, onlayn auksion platformalar va kredit tizimlaridan qarzdorlikni aniqlashtirishi mumkin.

Mulkni tekshirish, unga nisbatan da'vo ta'minlash choralarini ko'rish onlayn tarzda amalga oshirilishi mumkin.

Onlayn sud muhokamasida ishtirok etuvchi tegishli subyektlar ma'lumotlar xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha tegishli qonun va qoidalariga rioya qilishlari, shuningdek, ma'lumotlar xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish majburiyatlarini bajarishlari shart. Fuqarolik ishlari bo'yicha sud tomonidan qonunga muvofiq oshkor qilinganlardan tashqari, hech kim qonun hujjatlari va me'yoriy hujjatlar buzilgan holda, onlayn sud jarayonlari ma'lumotlarini oshkor qilish, tarqatish va ulardan foydalanishga haqli emas.

Fuqarolik ishlari bo'yicha sud shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va sud ishlarini yuritishni buzish holatlarini aniqlasa, tegishli shaxslar va xodimlar qonuniy javobgarlikka tortilishi mumkin. Zarurat tug'ilganda, jinoiy javobgarlikka tortish maqsadida ma'lumotlar prokuratura organlariga yuborilishi lozim.

Tijorat sirlari, davlat sirlari, oilaviy yoki shaxsiy ma'lumotlar onlayn sud jarayonida oshkor qilinmaydi. Bunday turdagi fuqarolik sud ishlari onlayn sud jarayonining audio, video, grafik yoki matnli materiallarini yozib olish, saqlash yoki tarqatish mumkin emas.

Tadqiqot natijalari tahlili

Bizning nazarimizda, onlayn sud – bu fuqarolik sud ishini onlayn tarzda ro'yxatdan o'tkazish, onlayn tarzda davlat bojini to'lash, sud hujjatlarini yuborish va onlayn chaqiruv qog'ozlari orqali taraflarni ogohlantirish, maxsus platformada sud muhokamasini o'tkazish hamda sudning hal qiluv qarorini e'lon qilishidir.

Onlayn sud muhokamalari odil sudlovga erishishni osonlashtiradi, nizolarni tezroq hal qilish imkonini beradi, sud jarayonini onlayn rejimga o'tkazish orqali sud xarajatlarini tejashga yordam beradi. Bundan tashqari, sudyalarga uchun sud qarorlari loyihasini ishlab chiqishda ko'maklashadi, natijada sudyaning ish hajmini oshiradi.

Onlayn sud xizmatlari sifatini baholash yoki tahlil qilish imkonini beradi.

AQSH, Singapur, Irlandiya, Vengriya kabi mam-lakatlar sud majlislarida audio yozib olish va uni transkripsiya qilish tizimlari keng qo'llanilmoqda. Ovoz yozib olish sud kotiblarining ishini osonlashtiradi. Singapurda stenograf to'g'ri chiqishi uchun sudya va taraflar o'z ko'rsatmalarini takrorlashi mumkin.

Onlayn sud majlislari quyidagi afzalliklarga ega:

- masofadan turib sud majlisida ishtirok etish imkoniyatining mavjudligi (sudning mobil ilovalardan foydalanish orqali);
- nosinxron sud majlisining mavjudligi;
- avtomatlashtirilgan protseduralar orqali sud hujjatlari va sud harakatlarini kuzatib borish imkoniyati berilishi;

– sudyalarga tomonidan sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanib, ish materiallarini tahlil qilgan holda qaror qabul qilish;

– audio protokol tizimlaridan foydalanish imkoniyati;

– sud hujjatlarini avtomatlashtirilgan holda tarqatish (chaqiruv qog'ozlari, sud topshiriqlari va boshqalar);

– hujjatlarning to'liq hajmda ekanligini elektron ko'rib chiqish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Xulosalar

Onlayn sud jarayonlarini standartlashtirish, Internet bilan bog'liq nizolarni hal qilish uchun Internet texnologiyasidan foydalanish taraflar uchun sud jarayonini osonlashtirish va ishlarni ko'rib chiqish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Onlayn sud jarayonlarini o'tkazish uchun normativ talablarni soddalashtirish va ulardan foydalanish amaliyotini mos ravishda kengaytirish, fuqarolik sud ishlarini ko'rib chiqishni yanada avtomatlashtirish va robotlashtirish, texnologiyalarni soddalashtirilgan tartibda ish yuritishga joriy etishimiz mumkin.

REFERENCES

1. Shortreed. Online legal magazine. Available at: <https://shortread.ru/kak-hodatajstvovat-o-provedenii-on-lajn-zasedaniya-chtoby-arbitrazhnyj-sud-ego-dovletvoril/>.
2. Arifin R. Legal Services and Advocacy in the Industrial Revolution 4.0: Challenges and Problems in Indonesia, Indonesian Journal of Advocacy and Legal Services, vol. 1, pp. 159-162. DOI: <https://doi.org/10.15294/ijals.v1i2.36488/>.
3. Platforma. Pervyj v rossii servis po finansirovaniyu sudebnyh sporov [Platforma is the first russian dispute financing service]. Available at: <https://platforma-online.ru/media/detail/onlayn-zasedaniya-v-arbitrazhnykh-sudakh-kak-yuristy-polzuyutsya-ovym-servisom/>.
4. Jelektronnoe pravosudie v stranah mira [Electronic justice around the world]. Available at: <https://ilex.by/news/elektronnoe-pravosudie-v-stranah-mira/>.
5. Lupo G., Bailey J. Designing and Implementing e-Justice Systems: Some Lessons Learned from EU and Canadian Examples. Laws, 2014, no. 3, pp. 353-387. DOI: 10.3390/laws3020353.
6. E-justice: enhancing transparency, effectiveness and access to justice. Available at: <https://www.un.org/ruleoflaw/blog/2016/06/e-justice-sharing-national-experiences-in-enhancing-transparency-effectiveness-and-access-to-justice/>.
7. How the U.S. can compete with China on digital justice technology. Available at: <https://www.brookings.edu/techstream/how-the-u-s-can-compete-with-china-on-digital-justice-technology/>.
8. E-justice: does electronic court reporting improve court performance? Available at: <https://blogs.worldbank.org/europeandcentralasia/e-justice-does-electronic-court-reporting-improve-court-performance/>.
9. Velicogna M. Electronic Access to Justice: From Theory to Practice and Back, Droit et cultures [En ligne], 61, 2011-1, mis en ligne le 18 octobre 2011, consulté le 22 décembre 2021. Available at: <http://journals.openedition.org/droitcultures/2447>.
10. Quality of justice including digital transformations of the judiciary. Available at: <https://www.coe.int/en/web/cepej/cepej-work/quality-of-justice/>.

UDC: 349.6(042)(575.1)
ORCID: 0000-0001-9357-3200

SHAHARSOZLIK SOHASIDA EKOLOGIK TALABLARGA RIOYA ETISHNING HUQUQIY MASALALARI

Uzakova Go'zal Sharipovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
"Ekologiya huquqi" kafedrası mudiri,
yuridik fanlar nomzodi, dotsent,
e-mail: g.uzakova@tsul.uz

Annotatsiya. Shaharsozlik sohasida ekologik talablarga rioya etish masalalari huquqiy fanlarning ham o'rganish obyekti bo'lib, bunday talab va me'yorlarni belgilashdan asosiy maqsad fuqarolar uchun qulay yashash sharoitini ta'minlashdan iboratdir. Shaharlar atrof-muhitini huquqiy muhofaza qilish masalalari BMTning Inson atrof-muhiti masalalari bo'yicha Stokgolm konferensiyasi (1972-yil), BMTning uy-joy va barqaror shahar rivojlanishi bo'yicha Xabitat III konferensiyasida (2016-yil 17–20-oktabr, Kito, Ekvador) ko'rib chiqilgan bo'lib, Xabitat III konferensiyasi doirasida yangi shaharsozlik dasturi qabul qilindi. Bugungi kunda dunyo shaharlaridagi asosiy ekologik muammolar qurilish ishlarini amalga oshirish bilan bog'liq ravishda ko'rib chiqiladi. Bunda qurilish ishlarini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlari va ilmiy-nazariy asoslarini o'rganishga yuridik fanlar tizimida alohida e'tibor qaratiladi. Mazkur maqolada hududlarni zonalashtirish, qurilish jarayonini ekologizatsiyalash, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning afzalliklari, chiqitsiz texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, energiya tejамkor bino-inshootlar va uy-joylarni barpo etish masalalari ilmiy-huquqiy jihatdan o'rganildi. Bundan tashqari, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi strategik maqsadlarga erishishda ekologik jihatdan samarali innovatsion texnologiyalarni joriy etish, atrof-muhitga salbiy ta'sirining oldini olish va kamaytirish, ekologik yo'naltirilgan iqtisodiyotning o'sishini ta'minlash, qurilish faoliyatida ham "yashil" standartlarni qo'llashning ilmiy-nazariy asoslari ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: barqaror rivojlanish, shaharsozlik faoliyati, "yashil" iqtisodiyot, "yashil" standartlar, ekologizatsiyalash, kamchiqit texnologiya, energiya tejамkor inshoot.

ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ СОБЛЮДЕНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ТРЕБОВАНИЙ В СФЕРЕ ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВА

Узакова Гузал Шариповна,
кандидат юридических наук, доцент,
заведующая кафедрой "Экологическое право"
Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. Вопросы соблюдения экологических требований в градостроительстве также являются объектом изучения юридических наук, основной целью определения таких требований и нормативов считается обеспечение благоприятных условий жизни граждан. Вопросы правовой охраны городской среды рассматривались на Стокгольмской конференции по проблемам окружающей человека среды (1972 год), конференции Хабитат-III по жилью и устойчивому городскому развитию (17-20 октября 2016 года, Киото, Эквадор), и в рамках конференции Хабитат-III была принята новая программа градостроительства. Сегодня основные экологические проблемы в городах мира рассматриваются в связи с осуществлением строительных работ. В системе юридических наук особое внимание уделяется изучению организационно-правовых мер и научно-теоретических основ строительных работ. В данной статье с научной и юридической точки зрения были изучены вопросы зонирования территорий, экологизации строительного процесса, преимущества развития «зеленой» экономики, внедрения безотходных технологий, а также создания энергоэффективных зданий и домов. Кроме того, были разработаны научно-теоретические основы внедрения экологически эффективных инновационных технологий в достижение стратегических

целей в области охраны окружающей среды, предотвращения и снижения негативного воздействия на окружающую среду, обеспечения роста экологически ориентированной экономики, применения «зеленых» стандартов в строительной деятельности.

Ключевые слова: устойчивое развитие, градостроительная деятельность, «зеленая» экономика, «зеленые» стандарты, экологизация, малоотходные технологии, энергоэффективное строительство.

LEGAL ISSUES OF ENVIRONMENTAL COMPLIANCE IN URBAN PLANNING

Guzal Uzakova Sharipovna,

Head of the Environmental Law Department
of Tashkent State University of Law,
PhD, Associate Professor

Abstract. The issues of compliance with environmental requirements in the field of urban planning are also the subject of study of legal sciences, and the main purpose of setting such requirements and standards is to provide comfortable living conditions for citizens. Issues of legal protection of urban environment were discussed at the UN Stockholm Conference on Human Environment (1972), the UN Habitat III Conference on Housing and Sustainable Urban Development (October 17-20, 2016, Kyoto, Ecuador). A new urban development program was adopted as part of the Habitat III conference. Today, the main environmental problems in cities around the world are considered in connection with the implementation of construction work. At the same time, special attention is paid in the system of legal sciences to the study of organizational and legal measures and the scientific and theoretical basis of the construction work. This article examines the issues of zoning, greening the construction process, the benefits of developing a "green" economy, the introduction of waste-free technologies, as well as the construction of energy-efficient buildings and housing. In addition, the scientific and theoretical basis for the introduction of environmentally friendly innovative technologies in achieving strategic goals in the field of environmental protection, prevention and reduction of negative impact on the environment, ensuring the growth of environmentally oriented economy, application of "green" standards in construction.

Keywords: sustainable development, urban planning, "green" economy, "green" standards, environmentalization, low-tech, energy-efficient construction.

Kirish

Ekologizatsiya haqida soʻz borganda, shuni taʼkidlash lozimki, ekologiya huquqi kompleks huquq sohasi sifatida jamiyat va tabiat oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlar sohasida shakllanadigan murakkab munosabatlarni tartibga soladi. Ushbu jarayonda vujudga keladigan munosabatlarni ikki turga ajratish mumkin: iqtisodiy (insonlar tomonidan ularning ehtiyojlarini qondirish uchun tabiiy resurslardan foydalanish) va ekologik (insonlar va ularning tabiiy yashash muhitini saqlab qolish uchun atrof-muhitni muhofaza qilish). Professor Sh.X. Fayziyev taʼkidlaganidek, ekologizatsiyalash jarayoni, yaʼni ekologik norma va talablarni tegishli qonunchilik bilan tartibga solinadigan ishlab chiqarish-xoʻjalik faoliyatiga tatbiq etish jarayoni kun sayin oʻsib bormoqda. Bu ekologizatsiyalashgan normativ-huquqiy hujjatlar miqdori oshishi hamda takomillashuviga sabab boʻlmoqda [1].

B.B. Alixonov esa "boshqa sohalaridagi qonunchilikning ekologiya talablariga mutanosibligi, uning jamiyat ehtiyojlariga muvofiqligini taʼmin-

lash ekologik qonunchilikni takomillashtirishning asosiy mezonlaridan sanaladi" [2], deb hisoblaydi.

M.M. Brinchukning yozishicha, ekologizatsiya ekologik talablarni joriy qilish va tatbiq etish jarayoni sifatida insonlarning xoʻjalik va atrof-muhit tabiiy holatiga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin boʻlgan boshqa faoliyatlarini amalga oshirishlarida inobatga olishlari lozim boʻlgan tabiatni rivojlantirish qonunlari ustuvorligini eʼtirof etishga asoslanadi. Uning maqsadi ekologik talablarni xoʻjalik, boshqaruv va atrof-muhit tabiiy holatiga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin boʻlgan boshqa faoliyatni amalga oshirish jarayoniga tatbiq etishdan iborat [3].

Ekolog-huquqshunos olim D.I. Safarov taʼkidlaganidek, aksar hollarda ekologizatsiyalash masalasi atrof tabiiy muhit va alohida tabiiy resurslarni muhofaza qilishni taʼminlash zaruriyati nuqtayi nazaridan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini cheklash bilan bogʻliq boʻladi. Muallifning fikricha, ekologizatsiyalash, shubhasiz, ekologik

munosabatlarni huquqiy tartibga solish sohasini kengaytirish hamda sifatini oshirishga xizmat qiluvchi jarayon bo'lib, basharti, u ekologik qonunchilik doirasida puxta o'ylanmagan, har tomonlama ishlanmagan va sinovdan o'tkazilmagan bo'lsa, o'zini oqlamasligi mumkin [4].

Tabiiy resurslardan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish munosabatlari "ikki tomonlama jarayon" hisoblanadi. "Tabiatni muhofaza qilish, agar dialektik tushuniladigan bo'lsa, undan oqilona, har tomonlama va ilmiy jihatdan foydalanishni anglatadi" [5]. Tabiiy obyektlardan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishdan kelib chiqadigan munosabatlar o'xshashdir. Bu munosabatlar turlicha bo'lsa-da, ularning kelib chiqish sohasi bir xil, yagona maqsad va mazmunga ega (tabiat yoki uning tarkibiy qismlarini saqlash, tiklash, yaxshilash, oqilona foydalanish). Tabiiy resurslardan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlar shu qadar chambarchas bog'liqqi, aslida, ularni bir-biridan ajratish qiyin [6], garchi bu munosabatlar ayrim hollarda qarama-qarshi jihatlariga ega bo'lsa ham.

Tabiiy resurslarning roli, bir tomondan, ularidan foydalanish orqali insonning iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish, ikkinchi tomondan, hayotni ta'minlovchi funksiyalarni bajarish va ularning ekotizimdagi ahamiyati bilan belgilanadi. Bu borada S.A. Bogolyubov ta'kidlaganidek, ekologiya huquqini kompleks huquq tarmog'i sifatida tushunish "tabiatni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanishni sun'iy ravishda ajratmaslikka imkon beradi" [7].

Ekologiya bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish nafaqat maxsus qonunlar, balki atrof-muhitga oid munosabatlarni qamrab olgan fuqarolik, ma'muriy, mehnat, jinoyat, shaharsozlik va boshqa huquq sohalarida ham amalga oshiriladi.

M.M. Brinchuk aytganidek, ekologik va huquqiy normalarni amalga oshirish mexanizmi xo'jalik faoliyatining turli bosqichlarini tartibga soluvchi ekologizatsiyalashgan me'yorlarni o'z ichiga oladi [8]. Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida huquqiy tartibga solish maqsadiga erishish "qonunning boshqa tarmoqlarini ekologizatsiyalashdan ajralgan holda imkonsizdir" va "tabiatni muhofaza qilish talablarini hisobga olish qonunchilik tizimining rivojlanishi uchun eng muhim

tamoyil bo'lishi kerak" [9]. Qonunchilikni ekologizatsiyalash deganda, ekologik talablarning qonunchilikning boshqa sohalarida aks ettirilishi tushuniladi [10]. Bunda hamisha ham ekologik talablar to'g'ridan-to'g'ri qonunchilik hujjatlariga singdirilmaydi, bir qator hollarda normalarni sharhlash orqali huquqni qo'llash amaliyotini ekologizatsiyalash ham muhim rol o'ynaydi. [11] Qonunchilikni ekologizatsiyalash nafaqat O'zbekiston, balki aksariyat xorijiy mamlakatlarda ham keng qo'llaniladi. Masalan, Germaniya Federativ Respublikasi bir qator jiddiy ekologik muammolar bilan to'qnash kelishi natijasida huquqiy tartibga solishning barcha sohalarida ekologizatsiyalashni amalga oshirdi.

Ekologizatsiyalashgan normalarni turli xil normativ-huquqiy hujjatlarga kiritish mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi, ekologik inqiroz xavfi, ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi va hayotning turli sohalarida tabiat qonunlari, insonlar tomonidan ekologik talablarga rioya qilish va ijro qilishni hisobga olish zarurati bilan bog'liq.

Material va metodlar

Mazkur maqola doktrinal tadqiqot sifatida qonun hujjatlari va ilmiy-nazariy manbalar tahlilini o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada sohaga oid ilmiy tushunchalar, nazariyotchi olimlarning qarashlari, xulosa va fikrlari o'rganilgan. Shuningdek, qurilish sohasiga oid qonun hujjatlari qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Maqola mavzuga oid asosiy tushunchalarni o'rganishdan boshlangan, ushbu tushunchalarni rivojlantirish bilan davom ettirilgan hamda mavjud mexanizmlarni takomillashtirish, muammolarni hal qilish yo'llarini ko'rsatishga oid xulosalarga kelish bilan yakunlangan. Bu xulosalarning amalga oshishi insoniyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashda qurilish sohasini ekologizatsiyalashning o'rni va rolini ochib berish, aholi punktlarida atrof-muhitni sog'lomlashtirish hisobiga fuqarolarning qulay atrof tabiiy muhitga ega bo'lish huquqini ta'minlash maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Qurilish jarayonini ekologizatsiyalash ko'p jihatdan ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi texnika vositalari va qo'llaniladigan texnologiyalarga bog'liq. Aholi punktlarida qurilish qilishda, birinchi navbatda, maxsus texnika vositalaridan foydalanish va muayyan texnik operatsiyalar (payvandlash, metallni kesish, bo'yoq va lak kabi uchuvchi

tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan boshqa materiallarni surish)ni bajarish natijasida bir qator ifloslantiruvchi moddalar (azot dioksidi, temir oksidi, marganes va uning birikmalari va boshqalar) atmosfera havosiga chiqariladi.

Qurilish faoliyatining vaqtinchalik xususiyatiga qarab, havoga chiqariladigan chiqindilar qisqa muddatli xususiyatga ega bo'lib, qurilish faoliyati ishga tushgandan keyin ularning tarkibi va tabiati o'zgaradi.

Shu bilan birga, ko'p hollarda aholi punktlarida qurilish ishlari amalga oshiriladigan hududlarda hosil bo'ladigan qurilish chiqindilarini joylashtirish uchun maxsus poligonlar mavjud emasligini ta'kidlash lozim.

Tabiiy resurslar zaxiralari kamayganda, ularidan foydalanish hajmining o'sishi global miqyosda tabiiy muhit tanazzulining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Qayta tiklanmaydigan tabiiy manbalardan oqilona foydalanish va qayta tiklanadigan manbalardan to'laqonli foydalanish bu sohadagi asosiy vazifalardan hisoblanadi. Bu borada V.V. Kruglov ta'kidlaganidek, sanoat korxonalarining tabiatni muhofaza qilish bo'yicha faoliyatini huquqiy tartibga solish va tashkil etish kamchiqitli va chiqitsiz, resurslarni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, ekologik xavfsiz mahsulotlar chiqarish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashga qaratilgan bo'lishi lozim [12].

O'zbekiston Respublikasida qurilish sohasi so'nggi yillarda izchil rivojlanayotgan iqtisodiy taraqqiyotning drayveri bo'lmoqda. Shu bilan birga, qurilish sohasini ekologizatsiyalash, ya'ni ekologik jihatdan tejamkor, kamchiqitli texnologiyalarni qo'llash bo'yicha zarur chora-tadbirlar belgilanmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 2-apreldagi PF-5392-son Farmonida ham Qurilish vazirligining asosiy vazifalaridan biri sifatida resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydigan energiya samarador va energiya tejaydigan innovatsion loyiha va qarorlarni qurilish faoliyatiga joriy etish nazarda tutilgan.

Ta'kidlash lozimki, g'isht ishlab chiqarishning tabiiy va iqtisodiy zarari ko'p, xususan, tuproqni qayta tiklab bo'lmaydi, yerning unumdorligi pasayib ketadi, gaz sarfi katta, shuningdek, ekologi-

ya va atrof-muhitga salbiy ta'siri yuqori. Sobiq ittifoq mamlakatlaridan tashqari, ko'plab davlatlar, xususan, Yevropa davlatlarida g'isht ishlab chiqarishdan allaqachon voz kechilgan. Shularni inobatga olib, kelgusida gazobeton, penobeton kabi zamonaviy qurilish materiallarini ishlab chiqarishni kengaytirish qurilish sohasini ekologizatsiyalashga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasining qurilish sohasiga oid qonun hujjatlari tizimini o'rganish shundan dalolat beradiki, so'nggi 2-3 yil ichida mamlakatda qurilish sohasini ekologizatsiyalashga qaratilgan o'nga yaqin qonun hujjatlari qabul qilindi. Ularda, jumladan, quyidagi tartib-qoidalar belgilandi:

birinchidan, loyiha hujjatlari obyektning energiya samaradorligi talablariga muvofiqligi bo'yicha majburiy tartibda ekspertizadan o'tkazilishi shartligi belgilandi;

ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi huzuridagi Qurilish sohasida nazorat inspeksiyasi va hududiy inspeksiyalar inspektorlariga obyektlarda inson salomatligi va hayotiga tahdid soluvchi sifatsiz qurilish materiallari va buyumlar qo'llanilgani aniqlangan hollarda, qurilish materiallari va buyumlar ishlab chiqarish, sotish va qo'llashni to'xtatib turish haqida tegishli organ va tashkilotlarga taqdimnomalar yuborish huquqi berildi;

uchinchidan, energiya tejamkorlik mezonlariga muvofiq kelmaydigan qurilish materiallari ishlab chiqaruvchilarni 2021-yildan e'tiboran ko'mir va tabiiy gazga muqobil bo'lgan boshqa yoqilg'i turlaridan foydalanishga bosqichma-bosqich o'tkazish belgilandi;

to'rtinchidan, zamonaviy innovatsion ishlanmalarni hisobga olgan holda, qurilish me'yorlari va qoidalarini takomillashtirish hamda ekologik jihatdan xavfsiz qurilish materiallarini amaliyotga joriy etish yo'nalishida bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda;

beshinchidan, O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishini ta'minlashda texnologik modernizatsiyalash va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda;

oltinchidan, 2025-yilgacha milliy shaharsozlik normalari hamda qoidalarini kamida 50 foiz darajasida xalqaro normativ va standartlarga moslash vazifasi belgilandi.

Ta'kidlash lozimki, ushbu maqsadli ko'rsatkichga erishish maqsadida 2021-yilda 10 %, 2023-yilda 30 % hamda 2025-yilda 50 % milliy shaharsozlik normalari va qoidalarini xalqaro normativ va standartlar bilan uyg'unlashtirish nazarda tutilgan. Biroq mazkur maqsadli ko'rsatkichlarga erishish uchun milliy shaharsozlik normalari va qoidalarining ro'yxati qayta ko'rib chiqilishi lozim.

Qurilish faoliyatining ekologik-huquqiy mexanizmi (xo'jalik faoliyati turi sifatida)dan foydalangan holda, huquqiy tartibga solish uzoq vaqtdan beri qo'llaniladi. Aholi sonining o'sishi va urbanizatsiya kengayishi tufayli harakatga kelgan qurilish sohasining o'zi ham xalqaro, ham milliy iqtisodiy o'sishning qulay omili hisoblanadi. BMT Taraqqiyot dasturida ta'kidlanishicha, qurilish sektori manbalarni tejash muammosini hal qilishda markaziy o'rinni egallashi kerak, chunki qurilish sohasi dunyoning ko'pgina energiya manbalarini iste'mol qiladi, shu bilan birga, ushbu soha (boshqa tarmoqlar bilan solishtirganda) o'z samaradorligini oshirish uchun katta va dunyo miqyosida issiqxona gazlarini kamaytirish uchun eng katta imkoniyatlarga ega [13].

Qurilish sohasini ekologizatsiyalash tabiatdan foydalanish samaradorligini oshirish, atrof-muhitga zararli ta'sirni kamaytirish, qurilish uchun tabiiy obyektlar va bino yoki inshootning butun hayot sikli davomida qulay atrof-muhit va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy, huquqiy, iqtisodiy, texnologik, texnikaviy va boshqa tadbirlar tizimini qabul qilishni ko'zda tutadi.

Ekologizatsiyalash qurilish sohasining raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy o'sishni jadalashtirish, ijtimoiy muammolarni hal qilish bilan chambarchas bog'liq. Qurilish sohasini ekologizatsiyalash asosida barqaror rivojlanish va qulay muhitni ta'minlash maqsadida inson, jamiyat va davlatning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini oqilona uyg'unlashtirish tamoyili yotadi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi inson faoliyati va tabiiy manbalarni tejashning oqilona uyg'unlashuvidan iborat bo'lib, zamonaviy jamiyatning asosiy ehtiyojlari, kelajak avlodlar ehtiyojlarini ta'minlash imkoniyatini xavf ostiga qo'ymasdan qondirishga imkon beradigan iqtisodiy rivojlanishni nazarda tutadi.

Bunda davlatning asosiy vazifasi iqtisodiy rivojlanish sharoitida ommaviy va xususiy man-

faatlarning muvozanatini ta'minlash hamda ekologik va iqtisodiy nizolarni hal qilishdan iboratdir.

Iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi, tabiiy zaxiralarning kamayishi va atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan boshqa ekologik muammolar bilan bog'liq global ekologik muammolar fan va amaliyotda "yashil" atamasining hayot faoliyatining turli xil obyektlari va jarayonlariga nisbatan faolroq qo'llanilishini belgilaydi. Bu ularning ekologik jihatdan xavfsiz xususiyatlarini ko'rsatadi (Masalan, BMTning Atrof-muhit bo'yicha dasturi, Xalqaro mehnat tashkiloti, Xalqaro ish beruvchilar tashkiloti va Kasaba uyushmalarining xalqaro konferensiyasi birgalikda "Yashil ishchi o'rinlari" deb nomlangan tadbir o'tkazmoqda). Shu bilan birga, qurilish sohasining ekologizatsiyalashuvi so'nggi yillarda fan va amaliyotda yangi qurilayotgan bino va inshootlarning "yashil" qurilish [14] kabi yuqori sifatini ta'minlovchi yangi yo'nalishning paydo bo'lishiga olib keldi. "Yashil" qurilish tushunchasining paydo bo'lishi dunyo iqtisodiyotining "yashil" iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan umumiy tendensiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, bunda, avvalambor, ishlab chiqarishning energiya tejamkorligi, energiya samaradorligi strategiyasini targ'ib qilish, muqobil energiya manbalaridan keng foydalanish kabi maqsadlar ko'zlanadi. "Yashil" iqtisodiyot konsepsiyasi xalqaro hamjamiyat tomonidan 2008-yildagi moliyaviy inqirozni hal qilish vositasi sifatida qo'llanilib, 2012-yilda bo'lib o'tgan BMTning barqaror rivojlanish bo'yicha "Rio + 20" konferensiyasida barqaror rivojlanish va kambag'allikni qisqartirish doirasidagi mavzulardan biri bo'lgan. 2011-yilda BMTning Taraqqiyot dasturi "yashil" iqtisodiyot haqida ma'ruza e'lon qildi va uni insoniyat farovonligini yaxshilash hamda atrof-muhit o'zgarishi va ekologik resurslar yetishmovchiligi bilan bog'liq tahdidlarni qisqartirish orqali ijtimoiy tenglikni ta'minlashga yo'naltirilgan iqtisodiyot sifatida ta'rifladi.

Qonunchilikda energiya tejash va energiya samaradorligini oshirish bo'yicha O'zbekiston iqtisodiyotining umumiy yo'nalishi yanada izchilroq aks ettirilmoqda. Qurilish jarayonining barcha bosqichlarida va binoning hayot siklida ushbu yo'nalishni amalga oshirish tabiiy qayta tiklanmaydigan energiya manbalarini (neft, ko'mir, tabiiy gaz) iste'mol qilishning pasayishi,

issiqxona gazlari va boshqa zararli moddalarning emissiyasi ko'inishida atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishining kamayishiga olib kelmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 21-maydagi "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi O'RQ-539-son Qonuni 14-moddasida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi imtiyozlar va preferensiyalar belgilangan. Unga ko'ra, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan energiya ishlab chiqaruvchilar qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini (nominal quvvati 0,1 MVt va undan ortiq bo'lgan) o'rnatganlik uchun mol-mulk solig'ini to'lash hamda ushbu qurilmalar bilan band bo'lgan uchastkalar bo'yicha yer solig'ini to'lashdan ular foydalanishga topshirilgan paytdan e'tiboran o'n yil muddatga ozod etiladi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini ishlab chiqaruvchilar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran besh yil muddatga soliqning barcha turlarini to'lashdan ozod etiladi. Amaldagi energetika resurslari tarmoqlaridan to'liq uzib qo'yilgan yashash uchun mo'ljallangan joylarda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanuvchi shaxslar egaligidagi mol-mulkka qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanilgan oydan e'tiboran uch yil muddatga jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i solinmaydi.

Mamlakatimizda yashil qurilishning huquqiy va texnik jihatdan tartibga solinishi atrof-muhitni qurilish, rekonstruksiya qilish, foydalanishga topshiriladigan obyektni ishlatishning salbiy ta'siridan himoya qilish, qurilish materiallari va konstruksiyalarining ta'sirini kamaytirish, qurilish ishlari davomida chiqindilar hosil bo'lish hajmini sezilarli darajada qisqartirish, energiya tejash, bino-inshootlarning energiya samaradorligi va suvdan oqilona foydalanishni ta'minlashga qaratilgan.

"Yashil" qurilish – bu bino va inshootlarni qurishda ekologik toza materiallardan foydalanish, binolar, inshootlarning energiya samaradorligini oshirish va ularning atrof-muhitga salbiy ta'siri eng kam darajada bo'lishini ko'zda tutuvchi integratsiyalashgan tushunchadir. "Yashil" qurilish talablarining joriy etilishi qurilish sohasining ekologizatsiyalashuvini ta'minlaydi hamda tabiatga zararli ta'sirni kamaytirish, tabiiy manbalarni (shu jumladan, energetik) iste'mol qilish darajasini pasaytirish va ulardan oqilona foyda-

lanishni amalga oshirishning eng muhim sharti hisoblanadi.

Maxsus adabiyotlarda "yashil qurilish"ning uchta ustuni ifodalangan: binoning qulayligiga qo'yiladigan maxsus talablar, obyekt tomonidan resurslar sarfini sezilarli darajada kamaytirish, shuningdek, binoning uning ichidagi odamlar va atrof-muhitga ta'sirining yo'qligi [15]. Boshqacha aytganda, "yashil" qurilish – barqaror rivojlanish tamoyillariga muvofiq, qulaylik, energiya tejamkorlik, ekologik jihatdan tozalik va atrof-muhitni muhofaza qilish talablariga javob beradigan qurilish hisoblanadi.

Shu bilan birga, huquqiy tartibga solishning yetarli darajada emasligi ko'chmas mulk bozori ishtirokchilari tomonidan "ekologik qurilish" rivojlanishi yo'lidagi jiddiy to'siqlardan biridir. "Yashil" qurilishga ko'maklashishga qaratilgan huquqiy normalar qurilish sohasida ommaviy va xususiy manfaatlarning uyg'unligini ta'minlashi hamda ekologiyaga yo'naltirilgan tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zamin yaratishi kerak.

2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasida resurslardan foydalanishni optimallashtirish va tabiatni muhofaza qilish faoliyatining samaradorligini oshirish, shuningdek, "yashil infratuzilma"ni yaratish, binolarning energiya samaradorligini oshirish sohasidagi chora-tadbirlar, past uglerodli texnologiyalar (issiqlik nasoslari, qayta tiklanadigan energiya manbalari) va xususiy xo'jaliklarda yanada toza yoqilg'i turlaridan foydalanishni rag'batlantirish kabilar belgilangan.

Guvohi bo'lganimizdek, 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining "Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi"da ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatining asoslari, bu boradagi davlat siyosatining strategik maqsadiga erishishni ta'minlovchi asosiy vazifalar qatoriga ekologik yo'naltirilgan iqtisodiyotning o'sishini ta'minlash va ekologik jihatdan samarali innovatsion texnologiyalarni joriy etish, atrof-muhitga salbiy ta'sirining oldini olish va kamaytirish nazarda tutilmoqda. Mazkur muammoni hal qilishda iqtisodiyot tarmoqlari, shu jumladan, qurilish faoliyatida ham "yashil" standartlarni qo'llash bo'yicha xalqaro tajribani hisobga olgan holda, sertifikatlangan bino va inshootlarni qurish hajmini (ko'chmas mulk obyektlarini ixti-

yoriy ekologik sertifikatlash tizimida) ko'paytirish talab etiladi.

Tadqiqot natijalari

Turli maqsadlarda qurilayotgan mavjud bino va inshootlarning ekologik samaradorligini baholash uchun xorijiy mamlakatlarda "yashil" standartlar ishlab chiqilgan. Binolarning ekologik samaradorligini baholash uchun bir nechta xalqaro tizimlar mavjud. Qurilishdagi xalqaro "yashil" standartlar orasida eng taniqli tizimlarga BREEAM (Buyuk Britaniya), LEED (AQSH), DGNB (Germaniya) kabilarni kiritish mumkin. Mazkur tizimlarning har biri ishlab chiqilgan reyting ko'rsatkichlari asosida turli darajadagi sertifikatlashni ta'minlaydi. Ushbu tizimlar xalqaro maqomga ega va binolarni ularning hududiy joylashuvi va "milliy" mansubligidan qat'i nazar baholash uchun ishlatiladi. Masalan, 2018-yil ma'lumotlariga ko'ra, LEED sertifikatiga ega bo'lgan binolarning 43 % m² AQSH hududidan tashqarida joylashgan. Ushbu davrda Rossiya Federatsiyasida 122 ta, Qozog'istonda 44 ta obyektlar BREEAM standartlari bo'yicha qamrab olingan bo'lsa, O'zbekistonda birorta ham "yashil" standartga ega bo'lgan bino mavjud emas. Shu bilan birga, Tashkent City kompleksida BREEAM standarti bo'yicha sertifikatlashtirishdan o'tish rejalashtirilganligi ma'lum qilingan.

Ta'kidlash joizki, ushbu tizim milliy qonunchilikda standartlashtirish va sertifikatlashtirish elementlarini qamrab oluvchi texnik tartibga solish mexanizmi asosida qurilayotgan bino va inshootlarga (shu jumladan, loyihalash bosqichida) kuchaytirilgan ekologik talablarni shakllantirish nuqtayi nazaridan qurilish faoliyatini huquqiy tartibga solishni ta'minlaydi.

"Yashil" mezonlar asosida standartlashtirish fuqarolarning hayot sifati va mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) raqobatdoshligini oshirishning samarali vositasi sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Texnik jihatdan tartibga solish obyektlariga qo'shimcha talablarni belgilash orqali standartlar amalga oshirilganda, fuqarolarning hayoti yoki sog'lig'i, ekologik xavfsizligi, hayvonlar va o'simliklar xavfsizligi darajasini oshirish ta'minlanadi.

"Yashil" standartlarga ega bino va inshootlarning, joylashuvidan qat'i nazar, atrof-muhitga zararli ta'sirini baholash uchun bir xil mezonlarni qo'llash mumkin. "Yashil" sertifikatlash tizimi iste'molchilarga binolarni atrof-muhit va tabiatga

ta'siri darajasi bo'yicha taqqoslash imkonini beradi. Tashkilotlar tomonidan qabul qilingan "yashil" (ekologik) standartlar mamlakatda "yashil" qurilishni ta'minlaydigan qoidalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Dunyo mamlakatlarida "yashil" qurilishning rivojlanishi ushbu konsepsiyani ommalashtirish hamda fuqarolarning ekologik madaniyati va ekologik faolligining umumiy darajasini oshirish orqali ham ta'minlanadi. Tabiiy resurslarga iste'molchilik munosabati ularning samarasiz ishlatilishi va atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishiga olib keladi.

Qurilish sohasida ortib borayotgan ekologik talablardan, shu jumladan, xususiy-huquqiy vositalar yordamida foydalanish, bu mumkin bo'lgan xavfning oldini olish va minimallashtirishga imkon beradigan bino va inshootning atrof-muhit uchun xavfsizligining qo'shimcha kafolatidir. "Yashil" standartlar asosida qurilgan binolardan foydalanishning iqtisodiy afzalligi bunday binoning ishlash bosqichida namoyon bo'ladi (suv sarfining kamayishi, energiya sarfi, ijara to'lovlari ning ko'payishi va boshqalar).

Qurilishning boshlang'ich bosqichida – binoni loyihalashda "yashil" standartlardan foydalanish ular narxining sezilarli darajada oshishiga olib kelmaydi. Masalan, xalqaro mutaxassislarining fikriga ko'ra, ekologik ofis binosini qurish xarajatlarining o'rtacha o'sishi 4-8 %, eng murakkab loyihalar uchun 18 % gachani tashkil etadi.

Nomoddiy imtiyozlardan tashqari bunday bino muhandislik tarmoqlariga ulanish narxini pasaytirish, energiya va manbalar uchun to'lovlarni kamaytirish, texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarini qisqartirish, ijara haqini ko'paytirish va bo'sh joylar ulushini kamaytirish imkonini beradi. Natijada binoning butun hayot siklini hisobga olganda, ekologik qurilish har doim ham afzalroqdir. Xususan, Greg Kats tadqiqotlarida (2010-y.) oddiy va "yashil" qurilish narxi o'rtasidagi farq yuqori emasligi hamda AQShdagi 170 ta "yashil" binolar bo'yicha ma'lumotlar ular oddiy binolardan o'rtacha 1,5 foizga qimmatroqligi qayd etiladi [16]. BMT Taraqqiyot dasturining hisobotida (2011-y.) bino qurilganidan keyin "yashil modernizatsiya" loyihalashtirishning [16] dastlabki bosqichlarida barqaror rivojlanish qoidalarini birlashtirishga qaraganda moliyaviy va ekologik jihatdan katta xarajatlarni talab etishi qayd etilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasida byudjet mablag'lari hisobidan qurilish jarayonida "yashil" standartlarni ommalashtirish va amalga oshirishning samarali usullari – ekologik sertifikatlariga ega bo'lgan qurilish mahsulotlariga davlat va jamoat ehtiyojlarini qondirish uchun tovarlar, ishlar, xizmatlarni sotib olish bo'yicha tender hujjatlari talablarini belgilash maqsadga muvofiqdir. Ushbu holat AQSH va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining ekologik sertifikatlashtirish va "yashil" standartlarni amaliyotga joriy etish tajribasiga mos keladi. Masalan, AQShda ijtimoiy va munitsipal obyektlar uchun ularni majburiy ekologik sertifikatlashtirish tizimi joriy qilingan [17]. Shuningdek, qurilish uchun yer uchastkasini auksion (tender) asosida ajratishda qurilishni "yashil" standartlarga binoan amalga oshirishni taklif etayotgan talabgorga ustunlik berish to'g'risidagi qoidani ham qonunchilikda qayd etish maqsadga muvofiq.

Ta'kidlash lozimki, qonunchilikda "yashil" qurilishni rivojlantirishni rag'batlantirish, uning afzalliklari to'g'risida aholini xabardor qilish va tegishli talablarni hayotga tatbiq etish jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun zamin yaratishi mumkin.

Umuman olganda, "yashil" qurilish tabiiy resurs sarfini kamaytirish va maqbullashtirishga qaratilgan. Shu bilan birga, kelgusida bino va inshootlarning energiya tejashi va energiya samaradorligini ta'minlashning huquqiy asoslarini ishlab chiqish lozim.

Xulosalar

Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirish jarayonida quyidagi xulosalarga kelindi.

Tabiiy obyektlardan hozirgi va kelajak avlodlar manfaatlariga muvofiq oqilona foydalanishni ta'minlaydigan qulay atrof-muhitga mavjud bo'lgan ehtiyoj va barqaror rivojlanish konsepsiyasi dunyo xalqlari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qurilish sohasini ekologizatsiyalashni izchil va tizimli ravishda amalga oshirishni taqozo etadi.

Ko'chmas mulk obyektlarini loyihalashtirish, qurish va rekonstruksiya qilish va ular asosida binolarni sertifikatlashtirishda "yashil" standartlardan qisman foydalanilganiga qaramay, "yashil" qurilish ushbu sohani ekologizatsiyalashning o'ziga xos va istiqbolli usulidir. "Yashil" qurilishning afzalliklari to'g'risida aholini xabardor qilish va "yashil" standartlar talablarini amalga xususiy va ommaviy huquq vositalari asosida joriy etish jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun zamin yaratadi. "Yashil" qurilishni huquqiy tartibga solish qurilish materiallari va konstruksiyalarning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish, qurilish ishlarini bajarishda chiqindilarni kamaytirish, energiya tejash, bino va inshootlarning energiya samaradorligini oshirish, suvdan oqilona foydalanishga qaratilganligi isbotlangan. Shu sababli qurilish sohasini ekologizatsiyalashning yana bir usuli – atrof-muhit va uning tarkibiy qismlarini muhofaza qilishning talablarini hisobga olgan holda, tabiiy obyektlardan (o'rmon, yer, suv obyektlari, yer osti boyliklari) qurilish maqsadlarida oqilona foydalanishdir.

"Yashil" qurilish talablarining joriy etilishi qurilish sohasining ekologizatsiyalashuvini ta'minlaydi hamda tabiatga zararli ta'sirni kamaytirish, tabiiy manbalarni (shu jumladan, energetik) iste'mol qilish darajasini pasaytirish va ulardan oqilona foydalanishni amalga oshirishning eng muhim sharti hisoblanadi.

"Yashil" qurilish o'sish sur'atlarining tezlashishiga ta'sir ko'rsata oladigan ommaviy-huquqiy vositalar tizimida davlat tomonidan iqtisodiy rag'batlantirish choralari muhim ahamiyatga ega. Davlat tomonidan rag'batlantirishning asosiy turlari sifatida ko'chmas mulk bozori ishtirokchilarining aksariyati "yashil" loyihalar uchun soliq imtiyozlari, ekologik qurilish sohasidagi davlat dasturlarini rivojlantirish, "yashil" loyihalarni subsidiyalash, ekologik jihatdan samarali uy-joy sotib olishda jismoniy shaxslar uchun maxsus imtiyozlarni ko'rsatish mumkin.

REFERENCES

1. Fayziev Sh.X. Teoreticheskie problemi pravovogo obespecheniya ekologicheskoy politiki Respubliki Uzbekistan. Diss. dokt. yurid. nauk [Theoretical problems of legal support of environmental policy of the Republic of Uzbekistan. Dr. sci. of law diss.]. Tashkent, 2004, 95 p.

2. Alixonov B. Ekologik qonunchilik istiqboli [Prospects of environmental legislation]. Huquq va burch – Rights and duties, 2010, no. 3, pp. 7-8.
3. Brinchuk M.M. Teoreticheskie problemi jekologizacii zakonodatelstva. Razvitie idey O.S. Kolbasova o koncepcii ekologicheskogo prava [Theoretical problems of ecological legislation. Development of ideas O.S. Kolbasova on the concept of ecological law]. Ekologicheskoe pravo – Ecological law. Moscow, 2007, no. 6, pp. 16-21.
4. Safarov Dj.I. Ekologik qonunchilikni tizimlashtirish va qonunchilikning boshqa tarmoqlarini ekologizatsiyalash masalalari [Issues of systematization of ecological legislation and greening of other branches of legislation]. TDYuI Axborotnomasi – Bulletin of TSLI, 2010, no. 2, pp. 92-93.
5. Muhitdinov N.B. Zakon Respubliki Kazahstan ob ohhrane okruzhayushhej prirodnoj sredy: problemi i osobennosti ih resheniya [Law of the Republic of Kazakhstan on environmental protection: problems and features of their solution]. Gosudarstvo i prav – State and Law, 1992, no. 8, p. 90.
6. Yakovlev V.N. Ekologicheskoe pravo [Environmental law]. Kishinev, Shtiinsa Publ., 1998, 23 p.
7. Bogolyubov S.A. Aktual'nye problemy jekologicheskogo prava: uchebnik dlja magistrrov [Actual problems of environmental law: a textbook for masters]. Moscow, Yurayt Publ., 2011, 27 p.
8. Petrov V.V. Koncepcija jekologicheskogo prava kak pravovoj obshnosti, nauki i uchebnoj discipliny [The concept of environmental law as a legal community, science and academic discipline]; Brinchuk M.M. Jekologo-pravovoj mekhanizm: ponyatie i sushnost [Ecological legal mechanism: concept and essence]. Jekologicheskoe pravo – Environmental law, 2013, no. 3, pp. 12-13, 37.
9. Vasil'eva M.I. Konceptual'nie voprosy sovershenstvovaniya jekologicheskoy politiki i zakonodatelstva ob ohhrane okruzhayushhej sredy [Conceptual issues of improving environmental policy and legislation on environmental protection]. Jekologicheskoe pravo – Environmental law, 2007, no. 2, p. 9.
10. Brinchuk M.M. Teoreticheskie problemy jekologizacii zakonodatel'stva [Theoretical problems of the greening of legislation]. Jekologicheskoe pravo Rossii: Sbornik materialov nauchno-prakticheskix konferensiy (2005-2007)]. [Environmental law of Russia: Collection of materials of scientific and practical conferences (2005-2007)]. Moscow, 2009, pp. 327-332. (In Russ.)
11. Vasil'eva M.I. O metodah, sredstvax i sposobah pravovogo regulirovaniya jekologicheskix otnoshenij [On the methods, means and ways of legal regulation of environmental relations]. Ekologicheskoe pravo – Environmental law, 2009, no. 2/3, p. 60.
12. Kruglov V.V. Teoreticheskie osnovy pravovogo regulirovaniya i organizacii prirodoohrannoy dejatel'nosti promyshlennyh predpriyatij v usloviyax rynochnoj jekonomiki v RF [Theoretical foundations of legal regulation and organization of environmental protection activities of industrial enterprises in a market economy in the Russian Federation]. Rossijskij juridicheskij zhurnal – Russian legal journal, 2012, no. 4, pp.190-197.
13. UNEP, 2011. Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. Buildings: Investing in energy and resource efficiency. Available at: www.unep.org/greenconomy/.
14. Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. Available at: <http://www.unep.org/greenconomy/>.
15. Duving S. "Zeljonye" zdaniya v Rossii i za rubezhom ["Green" buildings in Russia and abroad]. YuNIDO v Rossii – UNIDO in Russia, 2012, no. 8, p. 72.
16. UNEP, 2011, Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. Buildings: Investing in energy and resource efficiency).
17. Rossijskij fond informacii [Russian information fund]. Available at: <http://www.rfimnr.ru/activity/green-standards.html/>.

UDC: 342.9(042)(575.1)
ORCID: 0000-0002-6609-4527

MA'MURIY SUD ISH YURITUVINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA UNING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI

Bakayev Shaxriyor Baxtiyorovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi,
e-mail: sh.bakaev@bk.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeks normalari tahlili asosida ma'muriy sud ish yurituvini tushunchasiga mualliflik ta'rif berilgan. Shuningdek, bu borada amalga oshirilgan islohotlar, huquqshunos olimlar qarashlari hamda ma'muriy sud ish yurituvini mazmunidan kelib chiqib, mazkur huquqiy institutning o'ziga xos xususiyatlari va tashkiliy-huquqiy asoslari sanab o'tilgan. Jumladan, ma'muriy sud ish yurituvining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lib ommaviy hokimiyat organlari va tashkilotlarining noqonuniy qarorlari, mansabdor shaxslarning harakatlari (harakatsizligi) ustidan xususiy shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hisoblanishi ko'rsatilgan. Bundan tashqari, ma'muriy sud ish yurituvida alohida subyektlar tarkibi – xususiy shaxslar va ommaviy huquqdagi shaxslar bo'lishi qayd etilgan. Shuningdek, ma'muriy sud ish yurituvida ma'muriy ishlar odil sudlovni amalga oshirishning asosiy qoidalari va prinsiplariga rioya qilgan holda alohida protsessual tartibda ko'rib chiqilishi bayon etilgan. Ma'muriy sud ish yurituvining tashkiliy-huquqiy asoslari sifatida esa ushbu faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan ma'muriy sudlarni hamda ularning tashkil etilishini, vakolatlari va faoliyatini protsessual jihatdan tartibga soluvchi huquqiy hujjatlar va boshqa kompleks chora-tadbirlarni tushunish lozimligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: ma'muriy sud ish yurituvini, ommaviy-huquqiy munosabatlar, ma'muriy-huquqiy nizolar, sud nazorati, sud hokimiyati, ma'muriy sudlar.

ОСОБЕННОСТИ И ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ АДМИНИСТРАТИВНОГО СУДОПРОИЗВОДСТВА

Бакаев Шахриер Бахтиерович,
самостоятельный соискатель
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье на основе анализа норм Кодекса об административном судопроизводстве приводится авторское определение понятия административного судопроизводства. Также, исходя из осуществленных реформ, взглядов ученых-правоведов по этому направлению и сущности административного судопроизводства, рассматриваются особенности и организационно-правовые основы данного правового института. В частности, основной целью и задачей административного судопроизводства является защита прав, свобод и законных интересов частных лиц от неправомерных решений органов публичной власти и организаций, действий (бездействия) должностных лиц. Кроме того, отмечается, что в административном судопроизводстве имеется отдельный состав субъектов – частные лица и лица публичного права. Также указывается, что в административном судопроизводстве административные дела рассматриваются согласно отдельному процессуальному порядку и в соответствии с основными правилами и принципами отправления правосудия. В качестве организационно-правовой основы административного судопроизводства необходимо понимать административные суды как органы, уполномоченные осуществлять эту деятельность, а также правовые документы и другие комплексные меры, регулирующие их организацию, полномочия и деятельность.

Ключевые слова: административное судопроизводство, публично-правовые отношения, административно-правовые споры, судебный контроль, судебная власть, административные суды.

FEATURES OF ADMINISTRATIVE PROCEEDINGS AND ITS ORGANIZATIONAL-LEGAL BASICS

Bakaev Shakhriyor Bakhtiyorovich,

independent-researcher of the Tashkent State University of Law

Abstract. In this article on the basis analysis of the legal norms Code of administrative proceedings provides author's definition of the concept of administrative proceedings. Also, based on realized reform, views of legal scholars in this direction and essence of administrative proceedings enumerate specific features and organizational-legal basics of this legal institution. In particular, the main goal and task of administrative proceedings is to protect the rights, freedoms and legal interests of private persons from unlawful decisions, public authorities and organizations, actions (inaction) of public officers. In addition, it is noted that there is a separate composition of subjects in administrative proceedings – private persons and persons of public law. It is also indicated that in administrative proceedings administrative cases are considered in accordance with a separate procedural order and in accordance with the basic rules and principles of justice. As the organizational-legal basics of administrative proceedings it is necessary to understand the administrative courts that are authorized to carry out these activities, as well as legal documents and other comprehensive measures governing their organization, powers and activities.

Key-words: administrative proceedings, public-legal relations, administrative and legal disputes, judicial control, judicial authority, administrative courts.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarining ilk kunlaridan boshlab davlat va jamiyat hayotini bosqichma-bosqich isloh qilish, davlat boshqaruvini yanada demokratlashtirish, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini samarali himoyasini kafolatlashga doir chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimiz rivojlanishining bugungi bosqichida esa davlat organlari va tashkilotlari bilan munosabatlarda shaxsning buzilgan huquqini sud orqali himoya qilish bo'yicha konstitutsiyaviy kafolatni hayotga to'laqonli tatbiq etishga qaratilgan chinakam tarixiy o'zgarishlar amalga oshirildi.

Mazkur o'zgarishlar tom ma'noda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak", "Insonlarning dard-u tashvishlarini o'ylab yashash – odamiylikning eng oliy mezonidir" degan g'oyalarning ajralmas qismi hisoblanadi.

Ta'kidlash kerakki, bugungi kunga qadar ma'muriy sud ish yurituvining umumtan olingan tushunchasi ishlab chiqilmagan, qonun chiqaruvchi organ tomonidan esa Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksda mazkur tushuncha shakllantirib berilmagan.

Biroq O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi kuchga kiritilgan paytdan boshlab ma'muriy sud ish yurituvini alohida mustaqil institut sifatida tan olingan.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeks 3-moddasining birinchi qismida u fuqarolar va yuridik shaxslarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to'g'risidagi ma'muriy ishlarni ko'rib chiqish hamda hal etishda ma'muriy sud ishlarini yuritishni amalga oshirish tartibiga nisbatan tatbiq etilishi belgilangan.

Mazkur moddaning ikkinchi qismida ushbu Kodeks ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritishga nisbatan tatbiq etilmasligi ko'rsatib o'tilgan.

Demak, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi "ma'muriy sud ish yurituvini" tushunchasi mazmunini faqat birgina ma'noda, ya'ni sudlar tomonidan ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarning hal etilishini tushunadi.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi normalarni

o'rgangan holda shuni aytish mumkinki, bizning fikrimizcha, *ma'muriy sud ish yurituv*i – bu davlat organlari va tashkilotlari bilan munosabatlarda qonun ustuvorligini, fuqarolar va yuridik shaxslar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash maqsadida ma'muriy va boshqa ommaviy-huquqiy munosabatlar sohasida sud hokimiyatini amalga oshirishga qaratilgan hamda ma'muriy protsessual qonun hujjatlari bilan tartibga solingan sudlov faoliyati turi hisoblanadi.

Ma'muriy sud ish yurituvining boshqa har qanday sud ish yurituv kabi yagona konstitutsiyaviy maqsad va vazifasi bo'lib shaxs va fuqaro huquqlari va erkinliklarini, tashkilotlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hisoblanadi [1, 273–281].

Sud ish yurituvlarining barchasida fuqarolar hamda korxona, muassasa, tashkilotlarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlarini yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sud orqali himoya qilish, qonuniylikni mustahkamlash va huquqbuzarliklarning oldini olishga ko'maklashish, shuningdek qonunga va sudga nisbatan hurmatda bo'lish munosabatini shakllantirish vazifasi belgilangan.

Boshqacha qilib aytganda, fuqarolar va tashkilotlar sud hokimiyatining har qanday organiga faqat o'zining buzilgan huquqlari va erkinliklarini himoya qilish maqsadida murojaat qilishi mumkin.

Biroq Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksda ma'muriy sud ish yurituvining boshqa sud ish yurituvlaridan farqlanuvchi eng asosiy vazifasi ko'rsatilgan.

Mazkur Kodeks 2-moddasining ikkinchi xatboshisiga ko'ra ma'muriy organlar bilan munosabatlarda qonun ustuvorligini, fuqarolar, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash ma'muriy sud ish yurituvining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Demak, ma'muriy sudlardan ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni ko'rish va hal qilish jarayonida ma'muriy organlar bilan munosabatlarda **qonun ustuvorligini ta'minlash** bilan bir qatorda **fuqarolar, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash** ham talab etiladi.

Ma'muriy sud ish yurituv orqali davlat organlarining **o'zboshimchaligi** hamda ijro hokimiyati organlarining **noqonuniy qarorlari, harakatlari va harakatsizligi** ustidan samarali himoya amalga oshiriladi. Ma'muriy sud ish yurituvining asosiy vazifasi aynan shunda ko'rinadi [2, 273–281].

Huquqiy davlatda hokimiyat faqat o'zining qonuniy vakolatlariga muvofiq harakat qilishi zarurligi hamda qarorlarni qabul qilish va harakatlarni amalga oshirish jarayonida muhim prinsiplarga amal qilishi shartligi barchaga ma'lum bo'lgan fakt hisoblanadi [3, 70].

Hokimiyat (davlat organlari va ommaviy tashkilotlar) bilan fuqarolar va tashkilotlar o'rtasidagi ommaviy-huquqiy nizolarni hal qilish vakolatining aynan sud hokimiyatida saqlab qolinishi bu hokimiyatlar bo'linishi prinsipining hayotga tatbiq etilishini anglatadi. Bu orqali davlat hokimiyati organlari o'rtasida o'zaro nazoratni nazarda tutuvchi muvozanat va bir-birini tiyib turish tizimi amalga oshiriladi [4, 597].

Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning normalarini tahlil qilgan holda ma'muriy sud ish yurituvining **o'ziga xos bo'lgan quyidagi xususiyatlarini** sanab o'tish mumkin:

1. Ma'muriy sud ish yurituv doirasida ma'muriy ishlarni ko'rib chiqish va hal qilish predmeti bo'lib har doim fuqarolar va tashkilotlarning davlat hokimiyati organlari bilan ma'muriy va boshqa ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan hamda davlat va boshqa ommaviy vakolatlarning qonuniyligi va asoslantirilganligi ustidan sud nazorati bilan bog'liq bo'lgan nizolar hisoblanadi [5, 137–144].

2. Ma'muriy sud ish yurituv orqali davlat va boshqa ommaviy vakolatlariga ega bo'lgan davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari va mansabdor shaxslar qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan maxsus sud nazorati o'rnatiladi.

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishning darajasi eng avvalo, boshqaruvda sud organlari nazoratining nechog'li tashkil etilganligi bilan bog'liqdir [6, 13]. S.D.Knyazev shunday yozadi: "...Hech qanday mubolag'asiz aytish mumkinki, ijro hokimiyatining faoliya-

ti ustidan sud nazorati bir tomondan jismoniy va yuridik shaxslarni davlat organlari va mansabdor shaxslarning tazyiqidan muhofaza qilsa, ikkinchi tomondan ma'muriy organlarning samarali faoliyatini ta'minlashga xizmat qiladi" [7, 45].

3. Ma'muriy sud ish yurituvida alohida subyektlar tarkibi – xususiy shaxslar va ommaviy huquqdagi shaxslar bo'ladi.

Bunda, bir tomondan, ma'muriy da'vogar: 1) o'zining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun sudga fuqarolar va yuridik shaxslar bo'lgan xususiy shaxslar; 2) prokuror, ommaviy vakolatlarini amalga oshiruvchi organ yoki mansabdor shaxs tomonidan sudga manfaatida bunday ariza taqdim etilgan shaxs; 3) qonun hujjatlari bilan yuklatilgan nazorat va boshqa ommaviy funksiyalarni amalga oshirish maqsadida sudga murojaat qilgan prokuror, ommaviy vakolatlarini amalga oshiruvchi organ yoki mansabdor shaxs hisoblanadi.

Ikkinchi tomondan, ma'muriy javobgar – davlat va boshqa ommaviy vakolatlariga ega bo'lgan davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari va mansabdor shaxslar hisoblanadi [8, 137–144].

G'. Xakimov ma'muriy sud ish yurituviga ma'muriy yustitsiya sifatida baho berib, uning subyektlari tarkibiga sanab o'tilgan ikki toifadagi shaxslardan tashqari uchinchi toifani ham kiritib o'tadi.

Uning fikricha, ma'muriy yustitsiya uchun maxsus "ma'muriy-yustitsiyaviy" munosabat subyektlarining mavjud bo'lishi ham xosdir (fuqarolar, davlat boshqaruvi organlari, mansabdor shaxslar va maxsus sud organlari). Ma'muriy-huquqiy nizolarni ko'rib chiquvchi mansabdor shaxslar, ya'ni sudyalarda davlat boshqaruvi sohasida yetarli bilim va malakaga ega bo'lishlari lozim [9, 13–14].

4. Ma'muriy sud ish yurituvida ma'muriy ishlar odil sudlovni amalga oshirishning asosiy qoidalari va prinsiplariga rioya qilgan holda xususiy va ommaviy manfaatlarini o'zida mujassamlashtirish imkonini beradigan alohida protsessual tartibda ko'rib chiqiladi.

5. Ma'muriy sud ish yurituvining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lib ommaviy hokimiyat organlari

va tashkilotlarining noqonuniy qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan xususiy shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hisoblanadi.

6. Ma'muriy sud ish yurituvining asosiy funksiyasi bo'lib ma'muriy ishlarni ko'rib chiqish va hal etish hisoblanadi. Ma'muriy ishlar tabiati ma'muriy yoki ommaviy huquq sohasidagi moddiy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadi. Bunday huquqiy munosabatlarda bir tarafda har doim fuqaroga nisbatan majburlov chorasini qo'llash vakolatiga ega bo'lgan kuchli subyekt – davlat organi yoki tashkiloti, uning mansabdor shaxsi tursa, ikkinchi tarafda – oddiy fuqaro yoki yuridik shaxs turganligi sababli hech qachon taraflar tengligi bo'lmaydi.

7. A. Martinov ma'muriy sud ish yurituvining yana bir o'ziga xos xususiyatini alohida ta'kidlab o'tadi.

Uning fikricha, ma'muriy sud ish yurituvini ommaviy-huquqiy xarakterga ega bo'ladi. Agar fuqarolik protsessida moddiy-huquqiy munosabatlar subyektlari huquq va majburiyatlarga o'z xohishi-ga ko'ra va o'zining manfaatida ega bo'lsa, ma'muriy sud ish yurituvida ma'muriy-huquqiy munosabatlarning kelib chiqishi uchun bunday talab asosiy hisoblanmaydi [10, 273–281].

8. I. Filippova ma'muriy sud ish yurituvining o'ziga xos xususiyatlari qatoriga mansabdor shaxslar uchun belgilangan majburiyatlarning ijro etilishi sifatining nazorat qilinishini; davlat organlari yoki tashkilotlari, ularning mansabdor shaxslari o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun ularga nisbatan javobgarlik mexanizmi ishlashining ta'minlanishini; jismoniy va yuridik shaxslar buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining amalda tiklanishiga ko'maklashilishini hamda obyektiv huquq normalarining obro'si va mavqeining belgilanishi va saqlanishini ham qo'shib o'tadi [11, 17].

Ma'muriy sud ish yurituvining tashkiliy-huquqiy asoslari bo'yicha tadqiqot olib borish jarayonida, avvalo, **"tashkiliy-huquqiy asos"** deganda aynan nimalar tushunilishini, mazkur tushuncha doirasini aniqlab olish zarur hisoblanadi.

Tashkiliy asos deganda – ijtimoiy muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'ziga xos vazifalar yuklatilgan hamda ularni amalga oshirish uchun zarur

vakolatlarga ega bo'lgan idoralar va tashkilotlar tizimi tushuniladi. Bunday idoralar va tashkilotlar sifatida davlat organlari yoki ularning mansabdor shaxslari yoxud belgilangan vazifalarga erishish uchun o'zaro munosabatlarga kirishadigan davlat organlari yoki ularning mansabdor shaxslari majmui bo'lishi mumkin.

Huquqiy asos deganda esa odatda u yoki bu faoliyatni samarali va to'g'ri yo'lga qo'yilishini ta'minlash maqsadida uni tartibga soluvchi huquqiy hujjatlar tizimi tushuniladi.

Muayyan bir faoliyatning tashkiliy-huquqiy asosi deganda ushbu faoliyatni ta'minlash va takomillashtirishga qaratilgan tashkiliy va huquqiy xarakterdagi chora-tadbirlarning kompleks ravishda amalga oshirilishini tushunish zarur.

Demak, ma'muriy sud ish yurituvining tashkiliy-huquqiy asoslari sifatida ushbu faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan ma'muriy sudlarni hamda ularning tashkil etilishini, vakolatlari va faoliyatini protsessual jihatdan tartibga soluvchi huquqiy hujjatlar va boshqa kompleks chora-tadbirlarni tushunish lozim.

T. Kolomoyetsning fikriga ko'ra, ma'muriy sud ish yurituvining huquqiy makonga kiritilishi hozirgi zamonda huquqiy davlat tuzilishi amaliyotiga ilmiy tadqiqotlarning joriy etilishini ko'rsatuvchi muhim holat hisoblanadi. Mazkur voqea – ommaviy administratsiya tomonidan fuqarolarning huquqlari buzilganda ularni himoya qilishga nisbatan jamiyatning demokratik rivojlanishi uchun obyektiv zaruratning amaldagi ijrosi hisoblanadi. Mazkur holatning amaldagi ifodasi ma'muriy sudlarning tashkil etilishida ko'rinadi [12, 41–47].

Mamlakatimizda zamonaviy ma'muriy sud ish yurituvini joriy etish, ma'muriy sudlarni tashkil qilish, ularning vakolatlarini belgilash hamda xorijiy tajriba asosida yanada takomillashtirish, faoliyatini protsessual jihatdan tartibga solish bilan bog'liq amaliy chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tashabbusida amalga oshirildi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4966-son Farmoni mamlakatimizda ma'muriy sudlarning

tashkil etilishi va shakllanishi tarixini boshlab berdi.

Mazkur Farmon bilan 2017-yil 1-iyundan boshlab ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ma'muriy nizolarni, shuningdek ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishga vakolatli bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari, tuman (shahar) ma'muriy sudlari tashkil etildi.

2018-yil 25-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksini tasdiqlash haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan esa ma'muriy sudlar faoliyatini protsessual jihatdan tartibga soluvchi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeks tasdiqlangan hamda 2018-yil 1-apreldan e'tiboran kuchga kiritilgan.

O'tgan qisqa davrda ma'muriy sudlar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish, odil sudlov va qonun ustuvorligini ta'minlash borasida o'ta muhim ishlar amalga oshirildi. Buni birgina mahalliy davlat hokimiyati organlarining 2019-yilda 1 ming 255 ta, 2020-yilda 1 ming 597 ta qarorlari sud tomonidan haqiqiy emas deb topilgani misolida ham yaqqol ko'rish mumkin [13, 42–43].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-iyuldagi "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6034-sonli Farmoni bilan ma'muriy sudlar vakolatlari va ularning tashkiliy tuzilmasi xorijiy tajriba asosida yanada takomillashtirildi.

2021-yil 1-yanvardan boshlab ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolati ma'muriy sudlardan jinoyat ishlari bo'yicha sudlarga o'tkazildi.

Shuningdek, tuman (shahar) darajasidagi ma'muriy sudlar tugatilib, ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ma'muriy nizolarni ko'rishga ixtisoslashtirilgan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida tumanlararo ma'muriy sudlari tashkil etildi.

Bunda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari esa saqlab qolindi.

O'zbekistonda ma'muriy huquqbuzarlikka oid ishlarning ma'muriy sudlardan jinoyat ishlari bo'yicha sudlarga o'tkazilishi va ma'muriy sudlarning mustaqil sud sifatida saqlab qolinishi Birlashgan Millatlar Tashkiloti rivojlanish dasturi, Germaniya rivojlanish sohasida hamkorlik tashkiloti (GIZ) va Nagoya universiteti ekspertlari tomonidan to'g'ri qaror deb baholangan [14, 42-43].

2021-yil 28-iyulda "Sudlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining yangi tahrirda qabul qilinishi bilan ma'muriy sudlarning huquqiy maqomi yanada mustahkamlandi, viloyat

va tuman darajasidagi ma'muriy sudlarning vakolatlari, sud raislari, o'rinbosarlari hamda sudyalarning vazifalari aniq belgilab berildi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev boshchiligida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasida mamlakatimizda ma'muriy sud ish yurituvchi alohida huquqiy institut sifatida shakllantirildi hamda ma'muriy organlar bilan munosabatlarda qonun ustuvorligini ta'minlash bilan bir qatorda fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi ma'muriy sudlar tashkil etildi.

REFERENCES

1. Martinov A.V. Ponyatiye i sushnost administrativnogo sudoproizvodstva v Rossiyskoy Federatsii // Vestnik Nijegorodskogo universiteta im. N.I. Lobachevskogo, 2015, no. 5–6, pp. 273–281.
2. Nozdrachev A.F. Administrativnoye sudoproizvodstvo kak formiruyushiy institut administrativnogo prava // Administrativnoye sudoproizvodstvo v Rossiyskoy Federatsii: razvitiye teorii i formirovaniye administrativno-protssessualnogo zakonodatelstva. Ser.: Yubilei, konferensii, forumi. Vip. 7. Voronej: Izd-vo Voronejskogo gosudarstvennogo universiteta, 2013, pp. 455–467.
3. Galligan D., Polyanskiy V.V., Starilov Y.N. Administrativnoye pravo: istoriya razvitiya i osnovniye sovremenniye konsepsii. Moscow, Yurist, 2002. p.70.
4. Pravosudiye v sovremennom mire: Monografiya / Pod red. V.M. Lebedeva, T.Y. Xabriyevoy. Moscow, Norma: INFRA-M, 2012, p.597.
5. Glodina A.V. O ponimaniy administrativnogo sudoproizvodstva // Vestnik VGU. 2016, no. 2. pp. 137–144.
6. G.T.Xakimov. O'zbekistonda ma'muriy yustitsiyani rivojlantirishning muammolari. Monografiya. Tashkent, TDYUI nashriyoti, 2009, p. 13.
7. Knyazev S.D. Prinsipi administrativnogo prava Rossiyskoy Federatsii: otraslevoi format i yuridicheskoye znachenie // GiP, 2003, no. 10, p. 45.
8. Glodina A.V. O ponimaniy administrativnogo sudoproizvodstva // Vestnik VGU. 2016, no. 2, pp. 137–144.
9. G.T.Xakimov. O'zbekistonda ma'muriy yustitsiyani rivojlantirishning muammolari. Monografiya. Tashkent, TDYUI nashriyoti, 2009, pp.13-14.
10. Martinov A.V. Ponyatiye i sushnost administrativnogo sudoproizvodstva v Rossiyskoy Federatsii // Vestnik Nijegorodskogo universiteta im. N.I. Lobachevskogo, 2015, no. 5–6, pp. 273–281.
11. Filippova I.A. Organizatsionno-pravoviye i teoreticheskiye problemi stanovleniya administrativnix sudov v Rossiyskoy Federatsii: Avtoref. diss. ...k-ta yurid. nauk. Chelyabinsk, 2006, p. 17.
12. Kolomoys T.A. Pravovaya identifikatsiya administrativnogo sudoproizvodstva v ukrainskoy administrativno-pravovoy nauke // Administrativnoye pravo i protsess. 2019, no. 9, pp. 41–47.
13. Mahmudova R.A. Ma'muriy sudlar jamiyat va fuqarolar himoyasida // Demokratlashtirish va inson huquqlari. 2020, no. 4, pp. 42-43.
14. Mahmudova R.A. Ma'muriy sudlar jamiyat va fuqarolar himoyasida // Demokratlashtirish va inson huquqlari. 2020, no. 4, pp. 42-43.
15. Derjuzhinskij V.F. Administrativnye sudy v gosudarstvax Zapadnoj Evropy [Administrative courts in the states of Western Europe]. Saint Petersburg, 1906, p. 7.
16. Administrativnoye pravo zarubezhnykh stran [Administrative law of foreign countries]. A.N. Kozyrin, M.A. Shtatina. Moscow, Spark, 2003, pp. 189-192, 272, 312-317.

17. Astanov M., Maripova S. Odin god novomu Kodeksu: dostizheniya, problemy, rassuzhdeniya [One year to the new Code: achievements, problems, reasoning yusch]. Advokat – Advocate, 2018, no. 5-6, pp. 60-64.
18. Starilov Ju.N. Administrativnaya justiciya. Teoriya, istoriya, perspektivy [Administrativnaya justiciya. Teoriya, istoriya, perspektivy]. Moscow, 2001, p. 54.
19. Bojcova V.V. Nuzhna li nam administrativnaya justiciya? [Do we need administrative justice?]. Sovetskaya mjusticiya – Soviet justice, 1993, no. 7, p. 12.
20. Nikolaeva L.A., Solov'eva A.K. Administrativnaya justiciya i administrativnoe sudoproizvodstvo [Administrative justice and administrative proceedings]. Saint Petersburg, R. Aslanov's Publishing House "Legal Center" Press ", 2004, pp. 36, 97.
21. Vasil'eva E.S., Nehajchik V.K. Konceptiya administrativnogo sudoproizvodstva v mehanizme administrativno-pravovogo vozdejstviya [The concept of administrative proceedings in the mechanism of administrative and legal impact yusch]. Administrativnoe i municipal'noe pravo – Administrative and municipal law, 2011, no. 10, pp. 38-39.
22. Hamaneva N.Ju. Administrativnaya justiciya i administrativno-pravovye otnosheniya: teoreticheskie problemy [Administrative justice and administrative-legal relations: theoretical problems]. Trudy instituta gosudarstva i prava Rossijskoj akademii nauk – Proceedings of the Institute of State and Law of the Russian Academy of Sciences, 2009, no. 1, pp. 41-50.

UDC: 342.5(042)(575.1)
ORCID: 0000-0002-8897-1295

HOKIMIYAT YOKI MANSAB VAKOLATI DOIRASIDAN CHETGA CHIQISHNING OBYEKTI YUZASIDAN AYRIM MULOHAZALAR

Sagdullayev Fathulla Shukurullayevich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi,
e-mail: sagdullayev87@internet.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish jinoyati tarkibining asosiy belgisi sifatida ushbu qilmishning obyekti tahlil qilingan. Bunda mazkur jinoyatning boshqa mansabdorlik jinoyatlari qatorida umumiy, turdosh va maxsus obyektlari hamda ushbu jinoyatning o'ziga xos jihati sifatida bevosita asosiy va bevosita qo'shimcha obyektlari yuzasidan mualliflik xulosalari berilgan. Shuningdek, ushbu jinoyatning bevosita asosiy va bevosita qo'shimcha obyektlari raqobati yuzasidan fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: jinoyatning obyekti belgilari, jinoyat obyekti, hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish, mansabdorlik jinoyatlari, ijtimoiy munosabat, inson huquqlari, ijtimoiy (huquqiy) manfaat, ijtimoiy xavfsizlik, ikki obyektli jinoyat, obyektlar raqobati, turdosh obyekt, maxsus obyekt, bevosita asosiy obyekt, bevosita qo'shimcha obyekt.

НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ ПО ПОВОДУ ОТКЛОНЕНИЯ ОТ СФЕРЫ ПОЛНОМОЧИЙ ИЛИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ

Сагдуллаев Фатхулла Шукруллаевич,
самостоятельный соискатель
Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. В данной статье анализируется объект деяния как ключевой признак преступления, заключающегося в отклонении от властных или служебных полномочий. При этом даются авторские выводы об особенностях этих преступлений в отличие от других должностных преступлений, в том числе по общим, идентичным и специальным объектам, а также основным и дополнительным объектам непосредственно как специфическому аспекту этого преступления. Также высказываются мнения о прямой конкуренции основных и прямых дополнительных объектов с общими, родственными и особыми объектами этого преступления.

Ключевые слова: объективные признаки преступления, объект преступления, отклонение от служебных или служебных полномочий, служебные преступления, общественные отношения, права человека, общественный (правовой) интерес, социальное обеспечение, двухобъектное преступление, конкуренция объектов, связанный объект, специальный объект, прямой основной объект, непосредственно дополнительный объект.

SOME CONSIDERATIONS ABOUT DEVIATION FROM THE SCOPE OF AUTHORITY OR PROFESSIONAL COMPETENCE

Sagdullaev Fatkhulla Shukrullaevich,
Independent researcher of Tashkent State University of Law

Abstract. This article analyzes the object of this act as a key feature of the crime, which consists in deviation from authority or official authority. At the same time, the author's conclusions are given among other official crimes of this

crime and on general, identical and special objects, as well as main and additional objects directly as a specific aspect of this crime. Opinions are also expressed about direct competition between the main and direct additional objects of this crime about the common, related and special objects of this crime.

Keywords: *objective signs of a crime, the object of a crime, deviation from official or official authority, official crimes, public relations, human rights, public (legal) interest, social security, two-object crime, competition of objects, related object, special object, direct main object, directly additional object.*

Kirish

Jinoyat huquqi nazariyasida jinoyat tarkibi jinoyatning obyektiv (jinoyatning obyekti va obyektiv tomoni) va subyektiv belgilari (jinoyatning subyekti va subyektiv tomoni) dan iborat ekanligi qayd etilgan. Jinoyat haqida xabar bermaslik yoki uni yashirishning obyektiv belgilarini yoritish ekanmiz, eng avvalo, uning obyekti masalasiga to'xtalish maqsadga muvofiq. Ma'lumki, har qanday jinoyatning obyekti gorizontall (umumiy, maxsus, turdosh va bevosita obyektlar) va vertikal yo'nalish (bevosita asosiy, bevosita qo'shimcha va bevosita fakultativ obyektlar) bo'yicha turga ajratiladi.

Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish jinoyatining obyektini to'g'ri aniqlash ushbu jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi haqida to'g'ri tasavvur hosil qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Sababi bunday holatda mazkur qilmishning aynan qaysi munosabatlarga tajovuz qilishi uning ijtimoiy xavflilik darajasini ifodalaydi. Bu haqda M.Usmonaliyev "Jinoyatning obyekti har bir jinoyat tarkibining zaruriy belgisidir. Jinoyat obyekti har bir tarkibining zaruriy belgisi bo'lishi bilan birga, muayyan jinoyatning mohiyati va uning ijtimoiy xavflilik darajasini ham belgilaydi" [1, 154-b.], deb ta'kidlagan edi. Shu jihatdan olib qaraganda, hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish jinoyatining obyektini tahlil qilish va o'rganish asosida uning ijtimoiy xavfliligi namoyon bo'ladi. Xususan, mansabdorlik jinoyatlari tizimida hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish jinoyatining ijtimoiy xavfliligi alohida o'rin egallaydi.

Material va metodlar

U.M. Mirzayev qayd etganidek, "jinoyat obyekti tushunchasini ta'riflashda jinoiy jazoga sazovor qilmish tufayli yetkazilgan yoki yetkazish xavfi bo'lgan zararining mohiyati va yo'nalishi to'g'risidagi masala asos qilib olinishi kerak"ligidan kelib chiqib [2], olimlar jinoyatning obyektini ijtimoiy munosabatlar [1, 152-b.; 3; 4; 5; 6], inson (odamlar) [7; 8], inson huquqlari [9], muayyan ijtimoiy

(huquqiy) manfaat [10; 11] yoki ijtimoiy xavfsizlik [12] deb hisoblaydi. Jinoyat huquqi nazariyasida "obyekt – ijtimoiy munosabatlar" konsepsiyasining inkor qilinishiga [13; 14] qaramay, mazkur konsepsiya tarafdorlari juda ko'p va u hozirda ham o'zining ustuvor mavqeyini yo'qotgani yo'q [15]. Bizning fikrimizcha ham masalaga "obyekt – ijtimoiy munosabatlar" konsepsiyasi nuqtayi nazaridan yondashish to'g'ridir.

Ta'kidlash lozimki, ayrim xorijiy jinoyat-huquqiy tizimlarda "jinoyat obyekti" termini umuman ishlatilmaydi. Uning o'rniga "huquqiy manfaat", "muhofaza qilinadigan huquqiy manfaat" va boshqa shu kabi tushunchalar qo'llaniladi [16].

Tadqiqot natijalari

Umuman olganda, jinoyat huquqi fanida jinoyatning obyekti to'g'risidagi masala atrofida bahs-munozara uzoq yillardan beri davom etayotganini inobatga olib, biz ushbu tadqiqot doirasida jinoyatning obyekti deganda, jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan, g'ayriqonuniy qilmish bilan ziyon yetkazilgan yoki ziyon yetkazish xavfi tug'dirilgan ijtimoiy munosabatlar majmuyini tushunish lozim, degan an'anaviy konsepsiyaga amal qilamiz.

Jinoyat huquqi nazariyasida jinoyat obyektlarini "vertikal" va "gorizontall" tasniflash odat tusini olgan. Jinoyat obyektlarini tasniflashning to'rt bosqichli tizimidan kelib chiqib, kontrabandaning umumiy, maxsus, turdosh va bevosita obyektlari farqlanadi [17]. Bundan tashqari, "gorizontall" tasnifga ko'ra, kontrabandaning bevosita obyekti bevosita asosiy, qo'shimcha va fakultativ obyektlarga ajratish maqsadga muvofiq.

Milliy jinoyat qonunchiligida mansabdorlik jinoyatlariga jinoiy tajovuzning alohida turi deb qaraladi va mazkur tajovuzning obyekti va subyektiga alohida e'tibor berilgan [18]. Demak, hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish jinoyatining obyektini aniqlash mazkur qilmishni boshqa g'ayriqonuniy tajovuzlardan ajratish, uning obyektiv tomoni va subyektiv bel-

gilarini tavsiflash uchun birinchi darajali ahamiyatga egadir.

Umumiy obyekt deganda, jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan barcha ijtimoiy munosabatlar majmuyi tushuniladi [19]. Bu majmua JK 2-moddasida nazarda tutilgan obyektlardir. Jinoyat haqida xabar bermaslik yoki uni yashirishning umumiy obyekti ham mazkur moddaga asoslanadi.

Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish jinoyati JKning "Hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi jinoyatlar" deb nomlangan beshinchi bo'limining "Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar" deb nomlangan XV bobiga kiritilgan. 1994-yilgi JK bo'yicha jinoyatlar obyektlarining to'rt darajali tizimiga [20] muvofiq, mansabdorlik jinoyatlarining maxsus obyekti qonun chiqaruvchi hokimiyat va boshqaruv faoliyatini amalga oshirishga doir ijtimoiy munosabatlar guruhi sifatida belgilangan (Unda jinoyatning O'zbekiston Respublikasi JK 2-moddasining birinchi qismida mustahkamlangan umumiy obyekt, qoida tariqasida, O'zbekiston Respublikasi JK Maxsus qismi bo'limining nomida qayd etilgan maxsus, turdosh va bevosita obyektlar farqlanadi. Ilmiy adabiyotlarda obyektning boshqacha tasniflari ham keltiriladi). JKning XV bobi nomidan kelib chiqadigan bo'lsak, tarkiblari unda bayon etilgan jinoyatlarining turdosh obyekti boshqaruv faoliyati sohasidagi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

JKning 206-moddasini XV bobga joylashtirish va tegishli ravishda ko'rib chiqilayotgan jinoyatni boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar qatoriga kiritish uchun mezon bo'lib hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish bevosita obyektining mazmuni va boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar maxsus obyekti mazmunining xususi va umumiy obyektlar sifatidagi o'zaro nisbati xizmat qilgan.

Jinoyat huquqiga oid ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy munosabatlar azaldan jinoyat obyekti sifatida qaraladi [21]. Shunga qaramay fanda mazkur tushunchaning ko'p sonli talqinlari mavjud. Ular turlicha tavsiflansa-da, adabiyotlarda bir-biridan butunlay farq qiladigan uch nuqtayi nazar ajratiladi: 1) ijtimoiy qadriyatlar sifatidagi u yoki bu hodisalarga doir qonun bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar majmuyi jinoyatning obyekti hisoblanadi [22; 23]; 2) yuridik ahamiyatga molik

faktlar va voqealar yuzasidan vujudga keladigan, huquq normalari bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabatlar jinoyatning obyekti hisoblanadi [24]; 3) jinoyatning obyekti – bu jinoyat bilan zarar yetkaziladigan umum ahamiyatiga molik ijtimoiy boylik (ne'mat, ijtimoiy munosabat, manfaat) [25].

Jinoyat obyektining asl mazmuni xususida uzoq yillar mobaynida davom etayotgan bahs-munozaralarning siklli xususiyatini e'tiborga olmaganda, bugungi kunda jinoyat obyektining jinoiy tajovuz natijasida kamaymaydigan va yo'q bo'lib ketmaydigan o'zgarmas voqelik sifatidagi mohiyatini aks ettiruvchi birinchi nuqtayi nazar, ayniqsa, asoslidir. Shunday qilib, ijtimoiy munosabatga zarar pozitiv (real) zarar-ziyon tarzida emas, balki uni inkor etish tarzida yetkaziladi. Aks holda, formal tarkibli jinoyatni obyektga emas deb topish kerak bo'lar edi.

Mazkur nuqtayi nazarga muvofiq, JKning XV bobida sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan jinoyatlarning maxsus obyekti sifatida qonun bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy qadriyatlar – davlat hokimiyati, davlat xizmati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlaridagi xizmatga doir ijtimoiy munosabat amal qiladi.

Shunga qaramay, ilmiy adabiyotlarda ko'rib chiqilayotgan jinoyatlar guruhining maxsus obyekti xususida ilgari surilgan boshqacha nuqtayi nazarlarga ham duch kelish mumkin. Masalan, professor G.M. Minkovskiy va professor V.P. Revin fikriga ko'ra, mazkur jinoyatlar guruhining maxsus obyekti sifatida davlat organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, davlat muassasalari, Qurolli Kuchlar va harbiy tuzilmalar faoliyati amal qiladi [26]. Bu fikrga biz quyidagi sababga ko'ra qo'shila olmaymiz: Qurolli Kuchlar faoliyati (harbiy xizmat), Qurolli Kuchlar va ularning mol-mulkiga boshqarish borasidagi faoliyatdan farqli ravishda, JKning Yettinchi bo'limi ("Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar")da nazarda tutilgan jinoyatlarning obyekti sifatida qaralishi mumkin.

JKning XV bobiga kiritilgan jinoyatlarning turdosh obyekti ilmiy adabiyotlarda qonunchilik, ijro va sud hokimiyati davlat organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari ko'rinishidagi boshqaruv apparatining normal faoliyati sifatida tavsiflanadi [27; 28]. Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish jinoyatining

turdosh va bevosita obyektlari bir-biri bilan o'zaro bog'liq [29; 30]. Bu jinoyat boshqaruv apparatining ayrim bo'g'ini mansabdor shaxslarining faoliyatini ularga berilgan vakolatlar doirasida va qonunda belgilangan tartibda ta'minlovchi aniq ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiladi. Uning qo'shimcha bevosita obyektini fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari, davlat va jamoat manfaatlarini ta'minlash sohasidagi ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi. Aynan qo'shimcha obyektga ziyon yetishi "asosiy obyektga qilingan tajovuzga jinoyat-huquqiy mazmun baxsh etadi" [31]. Binobarin, mazkur jinoyatning xususiyati shu bilan belgilanadiki, "qonunda ko'rsatilgan huquqlar va manfaatlarga ziyon yetkazish davlat apparati faoliyatini izdan chiqarishning aniq shaklini tashkil etadi" [32].

JK 206-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish jinoyati asosiy tarkibining bevosita obyektini JKning XV bobida nazarda tutilgan jinoyatlar maxsus obyektining mazmuni bilan muvofiq keladi.

Shuni qayd etish lozimki, hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish jinoyatining bevosita obyektini muammosi jinoyat huquqi fanida hanuzgacha o'zining yagona yechimini topgani yo'q. Masalan, M.H. Rustamboyevning yozishicha, "Jinoyatning bevosita obyektini davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining normal faoliyat yuritishini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Qo'shimcha bevosita obyekt esa fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlardir" [33]. R.A. Zufarov hamda M. Qodirovlar ham bu borada o'xshash fikr bildirib o'tganlar [34; 35]. B.J. Axrarov esa boshqaruv tartibiga qarshi mansabdorlik jinoyatlarining bevosita obyektini "davlat xizmati va davlat hokimiyati faoliyati amalga oshirilishining konkret sohalari" [36], deb qayd etadi.

A. Otajonov va M. Haydarovning ta'kidlashicha, mazkur jinoyatning bevosita obyektini davlat organi, jamoat birlashmasi, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining normal faoliyat yuritishini ta'minlash sohasidagi ijtimoiy munosabatlardir. Mazkur jinoyatning qo'shimcha bevosita obyektini sifatida shaxslarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash sohasidagi ijtimoiy munosabatlar tushuniladi [37]. Albatta, jinoyatning

bevosita obyektini yuzasidan ushbu qarash ham bugungi kunda munozarali. Chunki 2015-yildan e'tiboran mamlakatimizda jamoat birlashmasi boshqaruvidagi normal faoliyatni ta'minlash sohasidagi munosabatlar ushbu jinoyatning obyektlari ro'yxatidan chiqarildi.

Ayrim kriminalistlar mansabdorlik jinoyatlarining, shu jumladan, hokimiyat yoki mansab vakolatlarini doirasidan chetga chiqishning ham bevosita obyektini maxsus obyektini bilan bir xil [38; 39; 40; 41], deb hisoblaydilar. Bu nuqtayi nazar A.B. Saxarov tomonidan, ayniqsa, izchil bayon etilgan. Uning fikricha, mansabdorlik jinoyatining bevosita obyektini uning maxsus obyektidan ajratishga urinish muqarrar tarzda amaliy ahamiyatga ega bo'lmagan soxta konstruksiyalar o'ylab topilishiga olib keladi [42]. Bu nuqtayi nazar bir qator mualliflar tomonidan tanqid qilindi. Ularning fikricha, obyektlarni bunday birxillashtirish uchun hech qanday asos yo'q [43]. Hokimiyat yoki mansab vakolatlarini doirasidan chetga chiqish jinoyati bevosita obyektining mazkur talqini haddan tashqari kengdir, chunki mansabdorlik jinoyatlarining aniq turi ularning maxsus obyektini tashkil etuvchi munosabatlarning bir tomoni yoki bir nechta tomonini buzadi.

Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish jinoyati mansabdor shaxs qaysi hokimiyat organining vakolatlarini amalga oshirayotgan bo'lsa, shu hokimiyat organining obro'siga putur yetadi [44-50]. Aniqroq aytganda, mazkur jinoyat davlat boshqaruvi apparatining normal faoliyatiga tajovuz qiladi, boshqaruv organlari faoliyatini izdan chiqaradi, davlat institutlarini aholi ko'z o'ngida obro'sizlantiradi.

Shunday qilib, hokimiyat organlarining obro'si ularning muhim tarkibiy elementlaridan biridir. Shu tufayli ham mansabdor shaxsning fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ziyon yetkazgan g'ayriqonuniy harakatlari hokimiyat organlarining obro'siga, hech shubhasiz, putur yetkazadi. Zero, mazkur organlar faoliyatining asosiy mazmunini inson va fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga rioya etish hamda ularni himoya qilish tashkil etishi lozim.

Demak, yuqoridagi tahlillardan xulosa sifatida hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqishning obyektini yuzasidan quyidagilar bayon etiladi:

turdosh obyekti – hokimiyat va boshqaruv organlarining normal faoliyatini tartibga soluvchi ijtimoiy munosabatlar;

maxsus obyekti – davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida boshqaruv tartibini belgilovchi ijtimoiy munosabatlar;

bevosita asosiy obyekti – davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining normal faoliyati va obro'sini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar;

bevosita qo'shimcha obyekti – fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlar yoxud davlat yoki jamoat manfaatlarini muhofaza qiluvchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Ko'rib turganimizdek, ushbu jinoyatda bir nechta bevosita obyektlar mavjud. Odatda, eng katta qiyinchiliklar jinoyat-huquqiy munosabatlarning raqobatlashuvchi bir nechta obyektlaridan iborat bo'lgan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda va aybdor bir vaqtning o'zida tajovuz qiluvchi ijtimoiy munosabatlar mustaqil jinoyat obyektlarini hosil qiladigan jinoyatlar majmuyi bilan bog'liq hollarda yuzaga keladi.

Qayd etish lozimki, jinoyat bevosita obyektlarining raqobati ijtimoiy hayotning murakkabligi natijasida paydo bo'ladi. Voqelik hodisalarining umumiy o'zaro aloqasi shunga olib keladiki, ko'pgina jinoiy qilmishlar bir qator o'xshash ijtimoiy munosabatlar sohasiga zarar yetkazadi. Qonun chiqaruvchi muayyan jinoyat uchun javobgarlikni belgilar ekan, ushbu holatni hisobga oladi. Jinoyat tarkibini tuzish, uni jinoyat qonunchiligi tizimidagi muayyan bobga kiritish qilmish bilan barcha ijtimoiy munosabatlar sohasiga – bevosita obyektlarning barchasiga yetkaziladigan zararni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Biroq bu yerda asosiy bevosita obyekt, ya'ni tegishli norma qaysi obyektga qo'riqlash uchun qabul qilinayotgan bo'lsa, shu obyekt birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Bunda qo'shimcha bevosita obyektlarga zarar yetkazish ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'ladi, biroq jinoyatning bunday oqibatlari e'tibordan soqit etilmaydi va javobgarlikni og'irlashtiruvchi belgilar yordamida hisobga olinadi.

Ikki obyektli jinoyatlarning yana bir xususiyati shundaki, ayrim hollarda qo'shni obyektga zarar yetishi muqarrar bo'ladi, ayrim hollarda esa bunday muqarrarlik mavjud bo'lmaydi. Demak, umumiy qoidaga ko'ra, qo'shimcha obyekt

ijtimoiy manfaatlar nuqtayi nazaridan mazkur jinoyat tarkibida asosiy bevosita obyekt bilan taqqoslaganda, kamroq darajada ijtimoiy qimmatga ega bo'ladi.

Jinoyatning raqobatlashuvchi bir nechta bevosita obyektlari orasidan bevosita asosiy, bevosita qo'shimcha va fakultativ bevosita obyektlarini farqlash qilmishni kvalifikatsiya qilish muammosini yechishni sezilarli darajada yengillashtiradi, biroq uni to'liq yechish imkonini bermaydi. Ushbu maqsadga erishish uchun bevosita qo'shimcha yoki fakultativ bevosita obyektning jinoyatni sodir etish mexanizmidagi rolini aniqlash talab etiladi. Bunda qo'shimcha bevosita obyektga zarar yetkazish aksariyat hollarda asosiy bevosita obyektga zarar yetkazish usuli, uning tarkibiy qismi hisoblanishi ayon bo'ladi.

Ba'zan asosiy bevosita obyektga zarar yetkazish faqat qo'shimcha bevosita obyektga zarar yetkazish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. Bevosita qo'shimcha obyektga zarar yetkazish asosiy bevosita obyektga zarar yetkazishning muqarrar usuli, tarkibiy qismi hisoblangani va aks holda, zarar yetkazish mumkin emasligi tufayli, bunday jinoyatlarning tarkiblari qo'shimcha bevosita obyektga zarar yetkazishni ham qamrab oladi, degan xulosaga kelish mumkin. Demak, bunday qilmishlar faqat jinoyat qonuni Maxsus qismining jinoyat-huquqiy qo'riqlash asosiy bevosita obyektiga tajovuz uchun javobgarlik nazarda tutilgan moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Yuqorida bayon etilganlar jinoyat-huquqiy munosabatlarning boshqa obyektlariga tajovuz qiladigan ijtimoiy xavfli qilmishlarni kvalifikatsiya qilishga doir ayrim umumiy qoidalarni ta'riflash imkonini beradi: qo'shimcha bevosita obyektga zarar yetkazish asosiy bevosita obyektga zarar yetkazish usuli, uning tarkibiy qismi hisoblanadigan qilmish yagona jinoyatni hosil qiladi. Sodir etilayotganda, qo'shimcha bevosita obyektga zarar yetkazish fakultativ tarzda amalga oshiriladigan qilmish esa jinoyatlar majmuyini vujudga keltiradi.

Ushbu qoidalardan huquq ijodkorligi va huquqni qo'llash faoliyatida foydalanish jinoyatlarni, shu jumladan, hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqishni kvalifikatsiya qilishning murakkab muammosini yechishni sezilarli darajada yengillashtiradi hamda jinoyat

huquqi fanining jinoyatlar majmuyi va ularni kvalifikatsiya qilish to'g'risidagi ko'pgina bahsli masalalarini yechishga ko'maklashadi.

Jinoyatning bevosita obyektlari raqobati barcha mansabdorlik jinoyatlari qatorida tahlil qilinayotgan hokimiyat yoki mansab vakolati

doirasidan chetga chiqishda va ayrim boshqa jinoyatlarda ham yuzaga kelishi mumkin. Qilmishni to'g'ri kvalifikatsiya qilish uchun tajovuzning asosiy bevosita obyektini tanlash bunday hollarda ham yuqorida ko'rib chiqilgan qoidalar bo'yicha amalga oshiriladi.

REFERENCES

1. Usmonaliev M. Criminal Law (General Part): Textbook. Tashkent, Yangi asr avlodi, 2005, p. 154.
2. Novoselov G.P. Teaching about the object of the attack. Methodological aspects. Moscow, Norma, 2001, p. 45.
3. Rustamboyev M.H. Criminal law (general part). A textbook for universities. Tashkent, TSUL, 2006, p. 125.
4. Criminal law of Russia. Part General: Textbook for Universities. Ed. prof. L. L. Kruglikov. Moscow, BEK, 1999, pp. 117-119.
5. Russian criminal law. In two volumes. A common part. Ed. prof. A.I. Raroga. Moscow, Jurist, 2001, vol. 1, pp. 103-105.
6. Sharapov R.D. Physical abuse in criminal law. Saint Petersburg, Legal Center Press, 2001, pp. 160-167.
7. Kudryavtsev V.N. On the question of the relationship between the subject and the subject of the crime. Soviet state and law. Moscow, 1951, no. 8, pp. 58-59.
8. Novoselov G.P. The doctrine of the object of the crime. Methodological aspects. Moscow, Norma, 2001, p. 60.
9. Krasikov A.N. Criminal law protection of human rights and freedoms in Russia. Saratov, 1996, pp. 2-3.
10. Norbutaev E.Kh. Problems of the effectiveness of legal measures to combat crime (theory and practice). Author's abstract. dis. doct. Sciences of law. Tashkent, 1991, p. 32.
11. Naumov A.V. Criminal law. A common part. Lecture course. Moscow, 1996, pp. 146-151.
12. Zatelepin O. To the question of the concept of the object of a crime in criminal law. Criminal law. Moscow, 2003, no. 1, pp. 29-31.
13. Criminal law of Russia. Textbook for universities. In two vol. A common part. Moscow, 1998, vol. 1, pp. 101-105.
14. Rastoropov S. Concept of the object of the crime: history, state, perspective. Criminal law. Moscow, 2002, no. 1, pp. 37-40.
15. Mirzaev U.M. Problems of liability for embezzlement or robbery. Tashkent, TSUL, 2009, p. 37.
16. Krylova E., Serebrennikova A.V. Criminal law of modern foreign countries (England, USA, France, Germany). Textbook. Moscow, 1997, pp. 58-73.
17. Frolov E.A. Controversial issues of the doctrine of the object of the crime. sat. scientific works. Sverdlovsk, 1968, issue 10, p. 203.
18. Ahrorov B.D. Laws on official crimes. New codes of the Republic of Uzbekistan: theory and practice. Proceedings of the scientific-practical conference. Tashkent, 1994, pp. 86-89.
19. Rustambaev M.H. Course of Criminal Law of the Republic of Uzbekistan. T.1. General section. The Doctrine of Crime. A Textbook. Tashkent, Ilm Ziya Publ., 2010, p. 141.
20. Gaukhman L.D. Qualification of crimes: law, theory, practice. Moscow, 2005, p. 79.
21. Piontkovsky A.A. Criminal law of the RSFSR. Part General. Moscow, 1924, pp. 129-130.
22. Aminov D.A. Object of the crime. Criminal law of Russia. General and Special parts. Textbook. Ed. V.P. Revin. Moscow, Jurid. lit., 2000, p. 93.
23. Criminal law. General and Special parts. Complete intensive course in algorithms. Ed. L.D. Gaukhman and A.A. Engelhardt. Moscow, 2003, p. 8.
24. Kibalnik A.G., Solomonenko I.G. Lectures on criminal law. Stavropol, 2000, p. 44.
25. Criminal law of the Russian Federation. Ed. L.V. Inogamova-Khegai. A common part. Moscow, 2002, p. 41.
26. Criminal law of Russia. General and Special parts. Textbook. Ed. V.P. Revin. Moscow, Jurid. lit., 2000, p. 705.

27. Volzhenkin B.V. Service crimes: Commentary on legislation and judicial practice. Saint Petersburg, 2005, p. 52.
28. Criminal law. Special part: Textbook for universities. Ed. I.Ya. Kozachenko, Z.A. Neznamova, G.P. Novoselov. Moscow, 1998, p. 593.
29. Zdravomyslov B.V. Official crimes. Concept and qualifications. Moscow, 1975, p. 9.
30. Asnis A.Ya. Criminal liability for official crimes in Russia. Moscow, 2004, p. 200.
31. Rarog A.I. Guilt and qualification of crimes. Moscow, 1982, p. 59.
32. Rustambaev M.H. Course of criminal law of the Republic of Uzbekistan. Volume IV. Special section. Crimes in the field of economics. Crimes in the field of ecology. Crimes against the order of activity of bodies of power, administration and public associations. Textbook. Tashkent, Ilm Ziya, 2011, p. 254.
33. Comments on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. Tashkent, Adolat, 1997, p. 269.
34. Kadyrov M. Criminal law of the Republic of Uzbekistan. Tashkent, Adolat, 1997, p. 261.
35. Ahrarov B.J. Problems of liability for official crimes against management order. Tashkent, 2008, p. 42.
36. Criminal law. Special section: Textbook. R. Kabulov, A. Otajanov, M. Rustambaev and others. Responsible editor: Sh.Ikramov. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2014, p. 451.
37. Criminal law. General part: Textbook. Ed. N.I. Vetrova, Yu.I. Lyapunova. Moscow, 1997.
38. Lyapunov Yu.I. Official crimes. Textbook. Kiev, 1988, p. 17.
39. Kucheryavy N. The concept of an official in criminal law. Sci. app. Kirg. state un-t. Frunze, 1958, issue I, p. 104.
40. Commentary on the Criminal Code of the Russian Federation (itemized) Ed. Prof. N.G. Kadnikov. Moscow, Book World, 2004, p. 754.
41. Sakharov A.B. Responsibility for abuse of office under Soviet criminal law. Moscow, 1956, p. 37.
42. Lysov M.D. Responsibility of officials in criminal law. Kazan, 1972, p. 78.
43. Khamidov N. Concept of transnational crimes and the social need to establish responsibility for them. Review of law sciences. 2020, vol. 5, no. Special issue.
44. Salaev N., Khamidov N. Qualification Of Smuggling. Uzbek Legislation And Foreign Experience. Ilkogretim Online, 2021, vol. 20, no. 3.
45. Khamidov N. et al. Criminal-legal aspects of the drug abuse in some countries and imposed approaches against it. International Journal of Legal Studies (IJOLS). 2018, vol. 4, no. 2, pp. 177-183.
46. Salaev N. The issue on implementing the recommendations of international standards on certain categories of convicts in Uzbekistan. Journal of Law Research, 2020, vol. 5, no. 5.
47. Salaev N. Penitentiary system of contemporary Uzbekistan: current condition and future promises in the reformation process. Review of law sciences, 2018, no. 2.
48. Nodirbek S., Law D.I. Preventive legal status of convicts in the penitentiary system of Uzbekistan.
49. Salaev N.S. Criminal punishment: an attempt at social and philosophical understanding or a problem that has not been solved for centuries? 2016.
50. Salaev N. Differentiation, individualization, execution of criminal punishments and its goals: way to success. Review of law sciences, 2017, vol. 1, no. 1.

UDC: 343.235.2

ORCID: 0000-0002-2073-3733

O'N OLT I YOSHGA TO'LMAGAN SHAXSGA NISBATAN UYATSIZ-BUZUQ HARAKATLAR QILISH JINOYATI TUSHUNCHASI VA AHAMIYATI

Najimov Miratdiyin Shamshetdinovich,

Qoraqalpoq davlat universiteti

“Jinoiy-huquqiy va fuqarolik-huquqiy

fanlar” kafedras i mudiri, yuridik fanlar nomzodi, dotsent,

e-mail: n.miratdin@karsu.uz

Annotatsiya. Maqolada o'n olti yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilish jinoyati tushunchasi va ahamiyati, ushbu turdagi jinoyat uchun javobgarlik hamda O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida javobgarlikni takomillashtirish masalalari o'rganilgan. Bundan tashqari, jinoyat tarkibi o'ziga xos jinoyat nusxasi bo'lib, o'zida barcha jinoyat alomatlarini mujassamlashtirgan va shu alomat shaxs tomonidan sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishda mavjud ekanligi jinoyat deb hisoblashga asos bo'ladi. Uyatsiz-buzuq harakatlar deganda, o'zida shahvoniy xususiyatga ega har qanday harakatlarni sodir etish tushunilishi ta'kidlanadi. Bunday harakatlar aybdor shaxsning jinsiy ehtirolarini qondirish yoki voyaga yetmagan shaxsning jinsiy hissiyotini qo'zg'atishga qaratiladi. Jismoniy xususiyatga ega bo'lgan uyatsiz-buzuq harakatlar deganda, aybdor yoki jabrlanuvchining jinsiy a'zolarini yalang'och holga keltirish, jinsiy hissiyotni qo'zg'atishi mumkin bo'lgan holda, jinsiy a'zolariga uyatsizlarcha tegish, jinsiy aloqa holatini imitatsiya qilgan holda, jinsiy buzqlikni o'rgatish, muayyan shahvoniy usullarni sodir etishga moyillikni uyg'otish yoki unga majburlash, jabrlanuvchilar ko'z o'ngida jinsiy aloqa qilish yoki onanizm harakatlarini sodir etish kabilar tushuniladi.

Kalit so'zlar: oila, yoshlar, jinoyat va jazo, qozi, islom huquqi, moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash, javobgarlik, jinoyat qilishga undash, jinoyatga jalb etish, jismoniy yoki ruhiy tazyiq, harakat, o'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish, o'n olti yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilish.

ПОНЯТИЕ И ЗНАЧЕНИЕ ПРЕСТУПЛЕНИЯ В ВИДЕ СОВЕРШЕНИЯ ОТНОСИТЕЛЬНО БЕССТЫДНЫХ ДЕЙСТВИЙ В ОТНОШЕНИИ ЛИЦА МОЛОЖЕ ШЕСТНАДЦАТИ ЛЕТ

Нажимов Миратдийин Шамшетдинович,

кандидат юридических наук, доцент,

заведующий кафедрой “Уголовно-правовая и

гражданско-правовая дисциплина”

Каракалпакского государственного университета

Аннотация. В статье исследуются понятие и значение преступления бесстыдного поведения в отношении лица, не достигшего шестнадцатилетнего возраста, вопросы ответственности за данный вид преступления, совершенствование ответственности в уголовном законодательстве Республики Узбекистан. Кроме того, в данной статье отмечено, что состав этого конкретного вида преступления содержит все элементы преступления, а наличие данных признаков совершенного лицом общественно опасного деяния является основанием для совершения преступления. Подчеркивается, что непристойными действиями считаются любые действия сексуального характера. Такие действия направлены на удовлетворение сексуальных желаний виновного или возбуждение сексуальных чувств несовершеннолетнего. Непристойные действия физического характера включают обнажение гениталий преступника или жертвы, бесстыдное прикосновение к гениталиям таким образом, чтобы это могло вызвать сексуальные чувства, обучение сексуальным проступкам путем имитации сексуальной ситуации,

возбуждение или принуждение человека к совершению определенных сексуальных действий, занятие сексом или мастурбацией на глазах жертвы.

Ключевые слова: семья, молодежь, преступление и наказание, судья, исламское право, уклонение от материального обеспечения, ответственность, подстрекательство к совершению преступления, привлечение к совершению преступления, физическое или психическое давление, действие, вступление в половую связь с лицом, не достигшим шестнадцати лет, развратные действия в отношении лица, не достигшего шестнадцати лет.

THE CONCEPT AND MEANING OF A CRIME IN THE FORM OF COMMITTING RELATIVELY SHAMELESS ACTS AGAINST A PERSON UNDER SIXTEEN YEARS OF AGE

Nazhimov Miratdiyin Shamshetdinovich,

Head of the Department of Criminal Law and Civil Law Discipline,
Karakalpak State University, Candidate of Legal Sciences, Associate Professor

Abstract. The article examines the concept and meaning of the crime of shameless behavior against a person under the age of sixteen, issues of responsibility for this type of crime, improvement of responsibility in the criminal legislation of the Republic of Uzbekistan. In addition, in this article, the corpus delict is a specific instance of a crime, which contains all the elements of a crime, and the presence of this feature in a socially dangerous act committed by a person is the basis for committing a crime. It is emphasized that any act of a sexual nature is considered obscene. Such actions are aimed at satisfying the sexual desires of the perpetrator or arousing the sexual feelings of a minor. Physical indecent behavior includes exposing the genitals of the perpetrator or victim, shamelessly touching the genitals in a manner that may induce sexual feelings, learning about sexual misconduct by simulating a sexual situation, arousing or coercing a person into certain sexual activities, having sex or masturbating in front of victims.

Keywords: family, youth, crime and punishment, judge, Islamic law, evasion of material support, responsibility, incitement to commit a crime, involvement in the commission of a crime, physical or mental pressure, action, sexual intercourse with a person under the age of sixteen, dissolute actions against a person under the age of sixteen.

Kirish

Har qanday jinoiy tajovuz bevosita yoki bilvosita ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazadi. Jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan har qanday ijtimoiy munosabatlar jinoyat obyekti bo'lishi mumkin. Shu bilan birga barcha ijtimoiy munosabatlar ham qonun bilan qo'riqlanavermaydi. Ammo jinoyat – huquqiy muhofaza predmeti bo'lgan u yoki bu ijtimoiy munosabat buzilganda, har qanday sharoitda ham jinoyat huquqida ko'zda tutilgan majburlov choralari qo'llash zaruriyati bo'lmaydi. Majburlov choralari ijtimoiy xavfli tajovuz sodir etilganda qo'llaniladi. Bu hol barcha qasddan va ehtiyotsizlik tufayli sodir etilgan jinoyat sababli jiddiy zarar yetkazilgan ish holatlariga taalluqlidir.

Material va metodlar

Jinoyat tarkibining bevosita obyekti tajovuz bevosita qarshi qaratilgan jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan muayyan ijtimoiy munosabatlarni ifodalaydi [1-4], degan fikrga qo'shilgan holda, pornografik mahsulotlarni tayyorlash yoki tarqatishning bevosita obyekti aniqlashga to'xtalamiz.

Maxsus obyekt deganda, bir qancha jinoyatlarning bir-biriga o'xshash bo'lgan ijtimoiy munosabatlarga tajovuzi tushuniladi. O'zbekiston Respublikasi JK jinoyatlar obyektining o'xshashligiga qarab boblarga bo'lingan.

Obyektning to'g'ri aniqlanishi jinoiy qilmishni kvalifikatsiya qilishda katta ahamiyatga ega. Jinoiy tajovuz obyekti noto'g'ri belgilash va unga to'g'ri baho bermaslik tergov va sud amaliyotida turli xatoliklarga olib keladi. Y.M. Brayninning ma'lumotlariga ko'ra, viloyat sudlari tomonidan chiqarilgan hukm va ajrimlarning 3,3 foizi obyektning to'g'ri belgilanmaganligi sababli bekor qilingan yoki o'zgartirilgan [5, 165-b.]. I.Y. Kliverning ma'lumotlariga qaraganda, jinoyatlarning obyekti bo'yicha kvalifikatsiya qilinganda, muallif o'rganib chiqqan ishlarning 1,5 foizida chiqarilgan hukmlarda xatoliklarga yo'l qo'yilgan [6, 10-12-b.].

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, jinoiy tajovuzning obyekti to'g'ri aniqlab, unga to'g'ri baho berilganda, jinoiy tajovuz sodir etilgan ijtimoiy munosabatlar aniqlanadi va to'la hajmda tahlil qilinadi.

A.N. Traynin jinoyat predmetini quyidagicha tushuntiradi: “Predmet shunday narsalarki, jinoyat ular bilan bog‘liq holda yoki ularga nisbatan sodir etiladi” [7, 179-b.].

Tadqiqot natijalari

Jinoyatning ijtimoiy xavfliligi, avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining e‘lon qilingan va kafolatlangan muhim ijtimoiy qadriyatlariga tajovuz qilish bilan aniqlanadi. Konstitutsiyamizning 13-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra, inson, uning hayoti, erkinligi, sha‘ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Biz jinoyatning obyektiv tomonini keng yoritish uchun jinoyatning boshqa institutlariga ham murojaat qilishimiz lozim. Xususan, jinoyatning obyektiv tomoni jinoyat tarkibining bir elementidir. Jinoyat tarkibi haqidagi ta‘limot jinoyat huquqi fanining markaziy masalalaridan biri hisoblanadi. Jinoyat tarkibining to‘g‘ri aniqlanishi kvalifikatsiya to‘g‘ri amalga oshirilishining ishonchli kafolatidir. Bu esa, o‘z navbatida, odil sudlovni amalga oshirish va qonunchilikni mustahkamlash hamda pirovard natijada, ayblanuvchining harakatiga to‘g‘ri baho berishda katta ahamiyatga ega. Maxsus qismga tegishli bo‘lgan har qanday masalani o‘rganish jinoyat tarkibi to‘g‘risidagi ta‘limot bilan bog‘liq ravishda olib borilishi zarur [8, 58-b.].

Jinoyat tarkibini aniqlashga doir tegishli adabiyotlardagi fikrlar tavofutiga qaramay, ko‘pgina mualliflar jinoyat tarkibi tushunchasini obyektiv va subyektiv belgilar yig‘indisidan iboratligini tan olib, jinoyat tarkibi ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat sifatida aniqlashga xizmat qiladi, deb ta‘kidlaydi.

Jinoyat tarkibi to‘g‘risidagi ta‘limot A.I. Traynin [9], V.N. Kudryavsev [10], Y.M. Braynin [11], M.P. Karpushin [12] va boshqalarning ilmiy ishlarida chuqurroq tahlil etilgan.

Jinoyat tarkibining bir necha vazifasi mavjud, ya‘ni:

- jamiyat uchun xavfli qilmishning jinoiyligini aniqlash vositasi;
- jinoiy javobgarlik uchun asos bo‘lishi;
- jinoiylilik darajasini aniqlashda qonunchilik namunasi bo‘lishi;
- jinoyatlarni farqlovchi vosita sifatida xizmat qilishi.

Shunday qilib, jinoyat tarkibi o‘ziga xos jinoyat nusxasi bo‘lib, o‘zida barcha jinoyatning alomatlarini mujassamlashtiradi va shu alomat shaxs tomonidan sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishda mavjud ekanligi jinoyat deb hisoblashga asos bo‘ladi.

Material yoki predmetlarning pornografik xarakterga ega ekanligini aniqlash uchun kinotankid, psixologiya, seksopatologiya, yurisprudensiya va boshqa sohalaridagi maxsus mutaxassislar ishtirokida kompleks ekspertiza tayinlanishi lozim.

Jinoyat huquqi nazariyasida jinoyatning obyektiv tomoniga quyidagicha ta‘rif berilgan: “Jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan obyektga qarshi qilingan ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlikning tashqi holatlarini xarakterlovchi belgilar jinoyatning obyektiv tomoni deyiladi”.

Jinoyatning obyektiv tomoni jinoyat tarkibining zarur elementi bo‘lib, u jinoiy javobgarlik asosi sifatida katta ahamiyatga ega. Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddalarida dispozitsiyasida har bir jinoyatning obyektiv belgilari ko‘rsatilgan bo‘lib, jinoyatlar bir-biridan, asosan, harakat yoki harakatsizlikning usuli, jinoyat oqibati, jinoyatning qanday sharoitda qilinganligi va boshqa jihatlari bilan farq qiladi. Demak, jinoyatning obyektiv tomoni jinoyat tarkibi tomonlari ichida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, qanday jinoyat sodir qilinganligini aniqlashga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Jinoyatning obyektiv tomoni alomatlari deganda, jinoiy qilmishning tashqi belgilari tushuniladi. Har qanday jinoyat o‘zining ijtimoiy xususiyatiga ko‘ra, ijtimoiy xavfli qilmishdir, ya‘ni turli ijtimoiy munosabatlarga harakat yoki harakatsizlik bilan tajovuz qilishdir. Ana shu fikrlardan kelib chiqib, aytish mumkinki, jinoyatning obyektiv tomoni – bu muayyan sharoitda, joyda va vaqtda bo‘ladigan, O‘zbekistonda mavjud ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazadigan ijtimoiy xavfli qilmishning tashqi ko‘rinishidir.

Konkret jinoyat tarkibining obyektiv tomoni qonun bilan qat‘iy belgilangan. Uning obyektiv tomoni shu jinoiy qilmishning ijtimoiy xavfliligi va huquqqa xilofligi, shuningdek, shu jinoyatning o‘xshash jinoyatlar tarkibidan farqlarini bilish uchun zarur bo‘lgan alomatlar yig‘indisidir.

Jinoyatning obyektiv tomoni harakat yoki harakatsizlik, ijtimoiy xavfli oqibat, harakat yoki

harakatsizlik bilan ijtimoiy xavfli oqibat o'rtasida sababiy bog'lanish borligi, jinoyatni sodir etish vaqti, joyi, shart-sharoiti va usulini o'z ichiga oladi. Shaxsning harakat yoki harakatsizligi har qanday jinoyat tarkibi obyektiv tomonining zaruriy belgidir.

Ijtimoiy xavfli oqibat, sababiy bog'lanish, jinoyatning sodir etilgan vaqti, joyi, shart-sharoiti va usuli ko'pgina jinoyat tarkibi obyektiv tomonining fakultativ belgilari hisoblanadi. Chunki yuqoridagi belgilar jinoyat va jazo huquqiy normasi dispozitsiyasida ko'rsatilgan hollardagina zaruriy belgi sifatida qaralishi mumkin.

Jinoyat huquqiga binoan, ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlik qilishda aybdor bo'lgan, jinoyat sodir qilish paytida aqli raso va ma'lum yoshga to'lgan jismoniy shaxslargina jinoyat subyekti bo'la oladi.

Jinoyat subyekti jinoyat tarkibining zaruriy elementlaridan biridir. Adabiyotlarda bu tushuncha turlicha talqin etiladi. Jumladan, S.I. Ojegov tomonidan tayyorlangan "Словарь русского языка" kitobida "Subyekt falsafada bilimning obyekti hisoblangan olamga qarshi tura oladigan idrok qiluvchi va harakatlantiruvchi inson", deb tushuntirilgan. O'zbek tilining izohli lug'atida bu tushuncha "Idrok va iroda egasi, borliqni bilish va o'zgartirishga qodir shaxs", degan ma'noda ifodalangan. "Subyekt" atamasi lotin tilidagi "*subiectus*" so'zi o'zagidan olingan. Yuqorida qayd etilgan ta'riflarga ko'ra, subyekt atrofdagi voqelik va hodisalarga ma'lum bir ta'sir etib, uni o'zgartirishga harakat qila oladigan insonlarga xos umumiy xususiyatlarni ifodalovchi umumlashtirilgan ma'noni anglatadi. Biroq yuridik fanlarda "huquq subyekti" deganda, har bir huquq sohasi bo'yicha qonunda belgilangan ma'lum huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar tushuniladi. Jinoyat huquqi fani nuqtayi nazaridan jinoyat subyekti deganda, Jinoyat kodeksi bilan javobgarlik belgilangan, qasddan yoki ehtiyotsizlikdan jinoyat sodir etgani uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi lozim bo'lgan jismoniy shaxslar tushuniladi.

Qilmishni jinoyat deb topish uchun, albatta, subyekt bo'lishi lozim. Chunki subyekt jinoyat tarkibining muhim elementi hisoblanib, uning mavjud emasligi jinoiy javobgarlikni istisno qiladi.

Jinoyat huquqi nazariyasida har qanday ijtimoiy xavfli qilmish sodir qilgan, qonun bilan bel-

gilangan yoshga yetgan va qilmish uchun jinoiy javobgar bo'la oladigan jismoniy shaxslar jinoyatning subyekti bo'ladi.

Jinoyat qonuni bo'yicha jinoyat subyekti faqat jismoniy shaxs bo'ladi. Hayvonlar, yuridik shaxs jinoyat subyekti bo'la olishi mumkinligi milliy qonunchilikda nazarda tutilmagan.

Yuridik adabiyotda jinoyat subyekti – jinoyat qonunida ko'rsatilgan ijtimoiy xavfli qilmishni qasddan yoki ehtiyotsizlik oqibatida sodir etgan, ma'lum yoshga to'lgan, aqli raso, alohida hollarda JK Maxsus qismi tegishli normalarida ko'rsatilgan maxsus belgilarga ega jismoniy shaxs sifatida ta'riflanadi [1, 132-b.; 2-4].

Ko'rinib turibdiki, uch asosiy belgining (qonun bo'yicha belgilangan yoshga yetganlik, aqli raso, jismoniy shaxslik) birligi jinoyatning umumiy subyektini tavsiflaydi. Mazkur belgilarning atigi bittasining yo'qligi ham jinoyat tarkibining mavjud emasligidan dalolat beradi.

Qonunda jinoiy javobgarlik yoshi belgilanayotganda, insonning psixofiziologik yetuklik darajasi inobatga olingan. Jinoiy javobgarlikka tortilayotgan shaxs o'zi sodir etayotgan harakatlarning xususiyati va ahamiyatini anglashi (aqliy jihatdan), shuningdek, ularni boshqara olishi (irodaviy jihatdan) kerak.

Qonunda yosh chegarasi aniq tartibga solinganligining mavjudligi jinoyat sodir etgan shaxsning yoshi (kun, oy, tug'ilgan yili)ni to'g'ri belgilash zaruriyatini tug'diradi. Bu savolga sud-tergov amaliyotida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 314-moddasini hisobga olgan holda javob berilishi kerak. Shaxsni jinoiy javobgarlik yoshiga yetgan deb, tug'ilgan kunining ertasi soat 24.00 dan hisoblanadi.

JKning 18-moddasi 1-qismiga muvofiq, jinoyat sodir etish vaqtida o'z qilmishining ijtimoiy xavfliligini anglagan va o'z harakatlarini boshqara olgan shaxs aqli raso deb topiladi. Bundan kelib chiqqan holda, "aqli rasolik" tushunchasining yuridik mezoni ikki turdagi belgilar bilan tavsiflanadi: aqliy (intellektual) va irodaviy. Aqli rasolikning aqliy (intellektual) belgisi shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglab yetish qobiliyatidan iborat. Irodaviy belgi esa shaxsning o'z xulq-atvorini boshqarish layoqatini aks ettiradi.

Xulosalar

Shu bilan birga, shaxsning o'z xulq-atvori faktik xususiyatini anglash va uni boshqarish

qobiliyati uning psixofiziologik rivojlanish darajasi bilan shartlanadi. Demak, yuridik mezon bilan birgalikda aqli rasolik o'z ichiga tibbiy mezonini ham oladi. Mazkur mezon inson ruhiy kamolotining muayyan darajasi ko'rsatkichi bo'lib, shaxs o'zi sodir etgan harakatlarining faktik xususiyati, uning ijtimoiy xavfliligini anglashi, unga ko'ra, xulq-atvorni boshqarishini ko'rsatadi. Aqli rasolikning tibbiy mezonida amalda sog'lom odamlarning ruhiy holati quyidagilarni qamrab oladi: 1) aqli rasolikni istisno qilmaydigan

muayyan ruhiy og'ishi bo'lgan odamning holati; 2) ruhiy buzilishlari bilan bog'liq bo'lmagan intellektual rivojlanishida qoloqlikni ko'rsatayotgan odamlarning holati; 3) boshqa psixofiziologik xususiyatlari bilan shartlangan odamlarning holati. Shunday qilib, tibbiy mezon o'z qilmishlarining ijtimoiy xavfli xususiyatini to'la-to'kis anglash va o'z harakatlarini boshqara olishga imkon beradigan odamlarning ruhiy holatini ham, norma bilan patologiya o'rtasidagi chegara holatini ham qamrab oladi.

REFERENCES

1. Yakubov A.S. Pravovaya osnova ucheniya o prestuplenii: predposylki, realnost, perspektivy. Diss. doc. jurid. Nauk [The legal basis for the doctrine of crime: preconditions, reality, prospects. Dis.]. Tashkent, 1996, p. 97.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi: ilmiy-amaliy sharhlar / Z.X. G'ulomov, R.A. Zufarov va boshq. [Criminal Code of the Republic of Uzbekistan: scientific and practical comments]. Tashkent, 1997, p. 30.
3. Usmonaliyev M. Jinoyat tarkibi [Criminal structure]. Tashkent, 2008, p. 11.
4. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Darslik. A.S. Yakubov, R. Kabulov va boshq. [Criminal law. General section. Textbook. A.S. Yakubov, R. Kabulov et al.]. Tashkent, 2009, p. 112.
5. Braynin Ya.M. Ugolovnyy zakon i ego primeneniye [Criminal law and its application]. Moscow, 1967, p. 165.
6. Kliver I.Ya. Ugolovno-pravovye sudebnye oshibki v kvalifikatsii prestuplenij i ih preduprezhdenie. Avtoref. kand. yur. nauk [Criminal legal errors in the qualification of crimes and their prevention. Abstract of Candidate of Science]. Moscow, 1979, pp. 10-12.
7. Traynin A.N. Obshhee uchenie o sostave prestupleniya [General doctrine of the composition of a crime]. Moscow, 1957, p. 179.
8. Jinoyat huquqi. Umumiy qism [Criminal law. General section]. Tashkent, Adolat, 1998, p. 58.
9. Traynin A.N. Obshhee uchenie o sostave prestupleniya [General doctrine of the composition of a crime]. Moscow, 1957, p. 179.
10. Kudrjavcev V.N. Obshhaya teoriya kvalifikatsii prestuplenij [General theory of qualification of crimes]. Moscow, 1972.
11. Braynin Ya.N. Ugolovnaya otvetstvennost i eyo osnovaniya v sovetskom prave [Criminal liability and its foundations in Soviet law]. Moscow, 1963.
12. Karpushin M.P., Kurljanskij V.I. Ugolovnaya otvetstvennost' i sostav prestupleniya [Criminal liability and corpus delicti]. Moscow, 1974.

UDC: 343(042)(575.1)
ORCID: 0000-0003-3384-9994

DAVLAT XIZMATCHISINING MULKIY MANFAATDORLIGI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNING OBYEKTI YUZASIDAN AYRIM MULOHAZALAR

Djalilov Furkat Zakirovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi,
e-mail: fbi774@mail.ru,

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlat xizmatchisining mulkiy manfaatdorligi bilan bog'liq jinoyatlarning obyekti yuzasidan ayrim mulohazalar atroflicha o'rganilib, tahlil qilingan. Davlat xizmatchisining mulkiy manfaatdorligi bilan bog'liq jinoyatlarning maxsus obyektiga davlat mexanizmining normal faoliyatini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar sifatida qaralishi lozim. Shuningdek, davlat xizmatchisining mulkiy manfaatdorligi bilan bog'liq jinoyatlar ham, o'z navbatida, JK bilan taqiqlangan muayyan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazishi yoki shunday zarar yetkazishning real xavfini keltirib chiqarishi bir qator olimlarning ishlarini o'rgangan holda tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: davlat xodimi, jinoyat, jinoyat obyekti, mulkiy manfaat, jamoat munosabatlari.

НЕКОТОРЫЕ КОММЕНТАРИИ К АНАЛИЗУ ОБЪЕКТА ПРЕСТУПЛЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ИМУЩЕСТВЕННЫМИ ИНТЕРЕСАМИ ГОСУДАРСТВЕННОГО СЛУЖАЩЕГО

Джалилов Фуркат Закирович,
самостоятельный соискатель Ташкентского
государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье подробно изучаются и анализируются некоторые соображения об объекте преступлений, связанных с имущественными интересами государственных служащих. Особым объектом преступлений, связанных с имущественными интересами государственного служащего, следует рассматривать общественные отношения, обеспечивающие нормальное функционирование государственного механизма. Преступления, связанные с имущественными интересами государственного служащего, в свою очередь, были проанализированы путем изучения работ ряда ученых на предмет того, наносят ли они вред определенным общественным отношениям, запрещенным УК, или создают реальный риск такого ущерба.

Ключевые слова: государственный служащий, преступление, объект преступления, имущественный интерес, общественные отношения, ущерб.

SOME COMMENTS ON THE OBJECT OF CRIMES RELATED TO THE PROPERTY INTERESTS OF A CIVIL SERVANT

Djalilov Furkat Zakirovich,
Independent researcher
of Tashkent State University of Law

Abstract. In this article, some considerations on the object of crimes related to the property interests of civil servants are studied and analyzed in detail. A special object of crimes related to the property interests of a civil servant should be considered social relations that ensure the normal functioning of the state mechanism. Crimes related to the property interests of a civil servant, in turn, have been analyzed by studying the work of a number of scholars as to whether they harm certain social relations prohibited by the CC or pose a real risk of such damage.

Keywords: civil servant, crime, object of crime, property interest, public relations, damage.

Kirish

Ijtimoiy xavfli qilmishning jinoiyligini aniqlash, ya'ni uni kriminalizatsiya qilish vositasi faqat jinoyat tarkibi hisoblanadi. Jinoyat tarkibi esa jinoyatning obyektiv va subyektiv belgilari yig'indisidan iboratdir. Obyektiv belgilar deganda, jinoyat tarkibining obyekt va obyektiv tomoni tushuniladi.

Jinoyat obyekt – bu jinoiy tajovuz qaratilgan va ana shu tajovuz orqali unga zarar yetkazilishi mumkin bo'lgan Jinoyat kodeksi bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlardir [1]. Shu nuqtayi nazardan olib qarasak, davlat xizmatchisining mulkiy manfaatdorligi bilan bog'liq jinoyatlar ham, o'z navbatida, JK bilan taqiqlangan muayyan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazadi yoki shunday zarar yetkazishning real xavfini keltirib chiqaradi. Shu sababdan JK 14-moddasi mazmunidan kelib chiqib, bunday ijtimoiy xavfli qilmish jinoyat deb topiladi. Shunday ekan, davlat xizmatchisining mulkiy manfaatdorligi bilan bog'liq jinoyatlarni yuridik tahlil qilishda, eng avvalo, ushbu toifadagi jinoyatlarning obyekt muammlarini chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiq. Jinoyat obyekt yordamida jinoyat huquqining ijtimoiy-siyosiy mazmuni, tajovuz qilish ijtimoiy xavfliligining xarakteri aniqlanadi [2].

R. Qobulovning ta'kidlashiga ko'ra, "jinoyatchi o'zini bunday munosabatlardan chiqarish yo'li bilan ham ijtimoiy munosabatlarni buzishi mumkin, ya'ni unga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaslik yo'li bilan ijtimoiy munosabatlarning mazmunini tashkil etuvchi ijtimoiy aloqani uzadi" [3]. Bu fikrga qo'shilish mumkin, negaki davlat xizmatchisi o'z xizmat vazifasiga kiruvchi majburiyatni bajarmasdan davlat apparatining normal faoliyatiga putur yetkazadi.

Ayrim yuridik adabiyotlarda davlat xizmatchisining mulkiy manfaatdorligi bilan bog'liq jinoyatning obyekt boshqaruv organlari, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining obro'yi va normal ish faoliyati hamda fuqarolarning manfaatlaridir [4], deb fikr bildiriladi. Shuningdek, M.H. Rustambayev va B.D. Axrarov ham shunga yaqin fikr bildiradi, ya'ni ularning fikriga ko'ra, jinoyat obyekt – boshqaruv organlari, korxona, muassasa, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlarining obro'yi va normal faoli-

yat yuritishidir [5]. Ammo mazkur qarashlarni mufassal bayon etilgan, deb aytish qiyin. Sababi ushbu fikrlarda jinoyatning obyektini tasniflash masalasi e'tiborga olinmagan, ya'ni jinoyatning maxsus, turdosh va bevosita (bevosita asosiy va bevosita qo'shimcha) obyektlariga aniqlik kiritilmagan.

O'z navbatida, ta'kidlash lozimki, mazkur fikrlar O'zbekiston JKning 213-moddasida (2015-yilga qadar) javobgarlik belgilangan xizmatchini pora evaziga og'dirish jinoyatining obyekt yuzasidan bildirilgan. Bugungi kunda JKning 213-moddasida davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish uchun, 214-moddasida davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi xizmatchisining qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo'lishi uchun javobgarlik belgilangan. Tub mohiyati, ushbu ikkita moddada 213-moddaning eski tahrirdagi qilmish uchun javobgarlik nazarda tutilgan bo'lsa-da, yangi tahrirdagi moddalarda jinoyatning obyektida nisbatan o'zgarishlar yuzaga kelgan. Biz quyidagi ushbu moddalarda javobgarlik belgilangan jinoyatlarning yuridik tavsifini tahlil qilamiz. Bunda ushbu ikkita moddada javobgarlik nazarda tutilgan jinoyatlarga nisbatan davlat xizmatchisining mulkiy manfaatdorligi bilan bog'liq jinoyat atamasini qo'llaymiz.

Shuni qayd etish lozimki, ayrim olimlar jinoyat qonunining bo'lim va boblari jinoyatning maxsus va turdosh obyektlariga ko'ra tuzilishi kerak [6], deb hisoblaydi. Shu o'rinda A.S. Yakubovning "JK Maxsus qismi tizimini tuzish uchun maxsus obyekt asos bo'lishi kerak" [7], degan fikri katta ahamiyatga ega. Ba'zilar JKning bo'limlari maxsus obyektga, asosan, bobi turdosh obyektga qarab, moddasi esa bevosita obyektiga ko'ra tuzilishi kerak [8], deydi. N.I. Vetrovning fikriga ko'ra, JK Maxsus qismi normalari qilmishning maxsus obyektiga asosan tizimlashtirilgan. Har bir bo'lim yoki hatto bob ham o'zining maxsus obyektiga ega [9]. Bizning fikrimizcha, qonun chiqaruvchi tomondan maxsus obyekt o'xshash bo'lgan jinoyatlar JK Maxsus qismi bo'limlariga, ular orasidan turdosh obyekt o'xshash bo'lgan jinoyatlar esa boblarga ajratib joylashtirilgan. Shu nuqtayi nazardan olib qarasak, davlat xizmatchisining mulkiy manfaat-

dorligi bilan bog'liq jinoyatning maxsus obyekti hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyati tartibini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar, turdosh obyekti esa boshqaruv tartibini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlardir, degan dastlabki xulosani chiqarish mumkin. Umuman olganda, davlat xizmatchisining mulkiy manfaatdorligi bilan bog'liq jinoyat davlat apparati doirasida amalga oshirilishini hisobga olsak, mansabdorlik jinoyatlari bilan, shuningdek, xizmat bilan bog'liq holda qonunga xilof ravishda haq olish-berish orqali amalga oshirilishini inobatga olsak, poraxo'rlik jinoyatlari bilan deyarli o'xshashdir. R.A. Zufarov ham davlat xizmatchisining mulkiy manfaatdorligi bilan bog'liq jinoyatlar va poraxo'rlik jinoyatlarini farqlash xususida fikr bildirib [10, 135-137-b.], mazkur jinoyatlar faqat jinoyat subyekti va poraning miqdori bilan farqlanishi, boshqa jihatdan jinoyatlar deyarli o'xshash ekanligini qayd etadi.

M.M. Qodirov mansabdorlik jinoyatlarining maxsus obyekti "davlat yoki jamoat apparatining qonunda belgilangan normal faoliyati yoki amal qilishi" [11], deb hisoblaydi. B.A. Ahmedovning fikricha, bunday jinoyatlarning maxsus obyekti "davlat apparati yoki jamoat tashkilotlarining normal faoliyatidir" [12]. Shuningdek, B.V. Zdravomislov ham shunga yaqin fikr bildirib, "davlat va uning apparatining normal faoliyatini tashkil etuvchi ijtimoiy munosabatlar" [13] bunday jinoyatlarning maxsus obyektni tashkil etishini ta'kidlaydi. Bu borada B.D. Axrarovning fikricha, "davlat apparatining davlat hokimiyati, davlat xizmati va o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati yo'nalishlarining normal holatlari ta'minlanishi bilan birgalikda barcha mansabdorlik jinoyatlarining maxsus obyektni tashkil qiladi" [14, 41-b.]. Ammo biz ushbu fikrga qo'shila olmaymiz. Sababi davlat apparati – bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan, muayyan tizimga birlashtirilgan va jamiyat oldida turgan vazifalarni bajarishga safarbar etilgan davlat organlari majmuyidan iborat [15, 103-b.]. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasida qayd etilishicha, davlat apparati (ing. mashinery of government so'zi) – turlari va darajalariga bog'liq bo'lmagan holda davlatning barcha organlari tizimidir [16].

Ko'rinib turibdiki, davlat apparati deyilganda, asosan, davlat organlari tushuniladi. Ammo JKning 213- va 214-moddalarida davlat organidan tash-

qari davlat ishtirokidagi tashkilot va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organi xizmatchilari uchun ham javobgarlik nazarda tutilgan. Shu sababdan davlat apparatining normal faoliyatini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar bu jinoyatning maxsus obyektni to'liq qamrab ola olmaydi.

Bizningcha, **davlat xizmatchisining mulkiy manfaatdorligi bilan bog'liq jinoyatlarning maxsus obyektiga davlat mexanizmining normal faoliyatini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar sifatida qaralishi lozim.**

Davlat mexanizmi – bu davlat hokimiyati, uning vazifa va funksiyalarini amalga oshiruvchi davlat organlari, shuningdek, korxonalar, tashkilotlar va muassasalarining yaxlit iyerarxik (pog'onaviy) tizimidir. Qolaversa, ayrim olimlarning fikricha, "davlat mexanizmi" tushunchasi "davlat apparati" tushunchasidan kengroq, aniqrog'i, davlat apparati, asosan, o'z ichiga faqat davlat organlari tizimini olsa, davlat mexanizmi esa o'z ichiga davlat organlaridan tashqari, yana kuch ishlatishga vakolatli maxsus tuzilmalar, majburlov apparati, davlat hokimiyatining moddiy vositalarini ham qamrab oladi [17].

Davlat organi – bu ijtimoiy hayotning aniq bir sohasini boshqarish yuzasidan davlat vazifalarini bajaradigan va tegishli davlat hokimiyat vakolatlariga ega bo'lgan tashkilot yoki muassasa [18]. Davlat organi deganda, davlat hokimiyati va davlat boshqaruvi organlari, shuningdek, sud va prokuror nazorati organlari jamuljam holda tushuniladi [15, 125-b.].

Davlat ishtirokidagi tashkilot – ustav fondida davlat ulushi mavjud bo'lgan tijorat tashkiloti yoxud to'liq yoki qisman davlat organi tomonidan tashkil etilgan yoki ta'sis etilgan notijorat tashkilot [20].

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi – shaharchalar, qishloqlar va ovullar, shuningdek, shaharlardagi, shaharchalardagi, qishloqlardagi hamda ovullardagi mahallalar fuqarolar yig'inlaridir [21]. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi va qonun bilan berilgan o'z vakolatlarini tegishli hududda amalga oshiradi. Bu institut jamiyat, shaxs ijtimoiy rivojlanishining zaruriy xususiyati bo'lib, uning tashkil etilishi jamiyat, shaxs, insonning tabiiy rivojlanishi, xo'jalik va ijtimoiy munosabatlarni mustaqil ravishda hal qilish, xalq orasidan ishonchli vakillarni mus-

taqil tavsiya etish huquqlarini ta'minlashning garovi sifatida vujudga keldi [22]. B.D. Axrarovning fikricha, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari davlat boshqaruvidan mustaqil ravishda o'z faoliyati, boshqaruv tizimi, mulkiy masalalarni mustaqil tarzda hal qiladi. Lekin mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyatlari aholining huquq va ehtiyojlarini ta'minlash bilan bog'liq davlat boshqaruv tizimi vakolatlaridan kelib chiqqanligi uchun, shuningdek, davlat boshqaruvi, hokimiyat vakolatlarining mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari orqali amalga oshirilganligi uchun ham bunday tashkilotlar rahbar shaxslarining vakolatlari mansabdorlar vakolatlariga tenglashtiriladi [14, 42-b.]. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqadigan bo'lsak, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining mansabdor shaxs bo'lmagan xizmatchilariga ham davlat xizmatchisining mulkiy manfaatdorligi bilan bog'liq jinoyatning subyekti sifatida qarash o'rinlidir.

Shuningdek, yuridik adabiyotlarda davlat xizmatchisining mulkiy manfaatdorligi bilan bog'liq jinoyatning turdosh obyekti xususida ham yakdil fikr mavjud emas.

M. Kojevnikov, P. Latover, A.A. Jijilenko, S.A. Golunskiy xizmat burchini bunday jinoyatlarning turdosh obyekti deb hisoblagan. M. Kojevnikova va L. Lagovler yozganlaridek, "mansab bo'yicha jinoyat – bu xizmatchi tomonidan xizmat burchi, xizmat vazifalarining buzilishidir" [24]. A.A. Jijilenko "mansab (xizmat) bo'yicha jinoyatni mansabdor shaxs (xizmatchi) tomonidan vazifalar buzilishini, o'z xizmatini ado etish burchining buzilishi" [25], deb ta'riflagan. Ammo xizmat burchiga davlat xizmatchisining mulkiy manfaatdorligi bilan bog'liq jinoyatning obyekti sifatida qarash mumkin emas. Sababi bu tushuncha mavhum va noaniqdir. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da qayd etilishicha, burch – bu ado etilishi, bajarilishi majburiy bo'lgan vazifa; majburiyatdir [26]. Burch – kishining biror shaxs, oila, jamoa, el-yurt, Vatan oldidagi majburiyatini anglatuvchi axloqiy tushuncha. Burchda obyektiv munosabatlar ifodalanadi [27]. Ya'ni u jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va axloqiy negizlari bilan belgilanadi. Burchning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, u insonning ichki kechinmalari, tashqaridan turib nazorat qilinmaydigan murakkab ruhiy holatini ifodalaydi [34-40]. Burch imon-e'tiqod, onglik, halollik, vijdon kabi tushunchalar bilan chambarchas

bog'liq. Xizmat burchi tushunchasi xizmatchini pora evaziga og'dirish qanday ijtimoiy munosabatlariga tajovuz qilishini, bunday qilmishlar orqali keltiriladigan zarar nimadan iborat ekanligini aniq tasavvur etish imkonini bermaydi. Burchning o'zi ta'sir ostiga olinmaydi, unga qandaydir zarar yetkazilishi mumkin emas. Qolaversa, N.P. Kucheryaviy ta'kidlaganidek, xizmat burchi – bu ma'naviy tushuncha, shuning uchun ham har qanday ma'naviy burchning buzilishi ham jinoiy jazoga loyiq bo'lavermaydi [28]. Shuni e'tiborga olgan holda, professor R.A. Zufarov haqli ravishda xizmat burchi boshqaruv tartibiga qarshi jinoyat obyekti deb e'tirof etilishi mumkin emas [10, 21-b.], deb qayd etadi.

B.D. Axrarovning qayd etishicha, boshqaruv tartibiga qarshi mansabdorlik jinoyatlari obyektini tashkil qiluvchi ijtimoiy munosabatlar mazmuniga qator zaruriy elementlar kiradi: a) ijtimoiy munosabatning moddiy yoki moddiy bo'lmagan foyda keltiruvchi vositasi (shaxs manfaatlari, davlat xizmati faoliyatida davlat organlari va ularning xizmatchilari munosabatlaridan kelib chiqadigan ijtimoiy munosabatlar va hokazolar); b) turli xildagi ijtimoiy manfaatlarni vujudga keltiruvchi ijtimoiy munosabatlarning ishtirokchilari (korxona, tashkilot yoki muassasalarda xizmat qilish); d) davlat organi va uning xizmatchisi o'rtasidagi munosabatlar, hokimiyat vakili va fuqaro o'rtasidagi munosabat va hokazolar; ijtimoiy munosabatlar taraflari o'rtasidagi bog'liqlik (xizmatchi, hokimiyat organi, mansabdor, jismoniy va yuridik shaxs va hokazolar) [30].

Darhaqiqat, boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar natijasida bunday munosabatlar ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarning buzilishiga, hatto butunlay tugatilishiga olib kelishi mumkin, bu esa davlat boshqaruvi tizimi xususiyatlarining susayishiga olib keladi. Davlat tomonidan o'zlariga ishonch bildirilganiga qaramay, vijdotsizlik yo'lga o'tib, o'zlarining tamagirlik maqsadlariga erishish uchun davlat va jamiyatning obro'yini to'kadilar [31].

R.A. Zufarovning qayd etishicha, davlat intizomiga qat'iy rioya qilishga, qonunlar hamda fuqarolarning qonun bilan muhofaza qilinadigan huquqlari va manfaatlariga qat'iy rioya qilishga asoslangan faoliyat to'g'ri hisoblanadi. Aynan turdosh obyektni, davlat, kooperativ, xususiy yoki boshqa muassasa, korxona, tashkilotning to'g'ri

ishlashi hisobga olingan holda, davlat xizmatchisining mulkiy manfaatdorligi bilan bog'liq jinoyat boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar bobiga kiritilgan [10, 25-b.].

Yuqorida qayd etilganlarga asoslanib, aytish mumkinki, davlat xizmatchisining mulkiy manfaatdorligi bilan bog'liq jinoyatning turdosh obyekti davlat mexanizmida boshqaruv tartibini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

M.M. Qodirovning fikricha, tahlil qilinayotgan jinoyatning bevosita obyekti hokimiyat, boshqaruv organlari va jamoat birlashmalari faoliyatining tartibi hisoblanadi. Ammo bunday fikrga qo'shilish qiyin. Chunki faqat ijtimoiy munosabatlar jinoyat obyekti bo'lishi mumkin. Qolaversa, M.M. Qodirov tomonidan keltirilgan izoh tahlil qilinayotgan jinoyatning bevosita obyekti sifatida qaralishi mumkin emas, uning izohi umumiy holatda bo'lib, jinoyat bevosita ta'sir etadigan holatlar e'tiborga olinmagan.

Professor M.H. Rustambayevning qayd etishi, davlat xizmatchisini pora evaziga og'dirishning bevosita obyekti boshqaruv organlari, mulk shaklidan qat'i nazar, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining obro'yi va normal ish faoliyati hamda fuqarolarning manfaatlaridir. Ammo mazkur izoh ham mufassal emas.

Sababi nazariy jihatdan bevosita obyekt ham, o'z navbatida, bevosita asosiy va bevosita qo'shimcha obyektlarga ajratiladi.

Pora, davlat xizmatchisiga beriladigan har qanday qonunga xilof haq davlat apparati obro'siga putur yetkazadi, uni obro'sizlantiradi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da yozilishicha, obro' – jamoatchilik qoshida topilgan e'tibor, hurmat, nufuzdir [29]. "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da ham "obro'" so'zi tojik tilida izzat-hurmat ma'nosini anglatadigan "ob" otiga yuz ma'nosini anglatadigan "ro'(y)" otini qo'shib tuzilgan bo'lib, jamoat oldida qozonilgan hurmat-e'tibor ma'nosini anglatishi qayd etilgan [23]. Demak, obro' – bu baholash kategoriyasidir. U o'z-o'zidan ijtimoiy munosabat hisoblanmaydi. Shuning uchun ham Y.I. Lyapunov haqli ravishda ta'kidlaganidek, obro'ning o'zi jinoyat obyekti bo'lishi mumkin emas [19].

Bizning fikrimizcha, davlat xizmatchisining mulkiy manfaatdorligi bilan bog'liq jinoyatning bevosita asosiy obyekti davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining obro'yi va normal ish faoliyatini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Jinoyatning bevosita qo'shimcha obyekti esa fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlardir.

REFERENCES

1. Rustambayev M.H. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. I tom. Maxsus qism. Jinoyat to'g'risida ta'limot. Darslik [Course of Criminal Law of the Republic of Uzbekistan. I tom. Special section. The doctrine of crime. Textbook]. Tashkent, Ilm ziyo, 2011, p. 139.
2. Jakubov A.S. Uchenie o prestuplenii po zakonodatel'stvu Respubliki Uzbekistan [Study on the provisions of the legislation of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, 1995, p. 55.
3. Jinoyat huquqi. Umumiy qism: Darslik [Criminal law. General section: Textbook]. A.S. Yakubov, R.Kobulov va boshq. Tashkent, O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2005, p. 123.
4. Jinoyat huquqi: Darslik [Criminal law. Textbook]. M.H. Rustambaev, F. Toxirov, A.K. Erkaxodjaev, H.B. Boboev, Ed. Y.M. Karaketov. Tashkent, Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2000, p. 319.
5. Rustambayev M.H., Axrarov B.D. Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish. O'quv qo'llanma [Qualification of offenses against the order of management. Study guide]. Tashkent, TSUL, 2006, p. 44.
6. Ugolovnoe pravo Rossijskoj Federacii. Osobennaja chast'. B.V. Zdravomyslov, V.F. Karaulov i dr.; Pod red. prof. B.V. Zdravomyslova [Criminal law of the Russian Federation. The special part. V.V. Zdravomyslov, V.F. Karaulov and others; Ed. prof. V.V. Zdravomyslova]. Moscow, Jurist, 2000, p. 18.

7. Jakubov A.S. Predposylki ugolovno-pravovoj reformy v Respublike Uzbekistan [Preconditions for criminal law reform in the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, 1994, p. 47.
8. Ugolovnoe pravo Rossijskoj Federacii. Obshhaja chast'. S.V. Afinogenov, L.D. Ermakova i dr.; Pod red. prof. B.V. Zdravomyslova [Criminal law of the Russian Federation. A common part. S.V. Afinogenov, L. D. Ermakova and others; Ed. prof. V.V. Zdravomyslova]. Moscow, Jurist, 1999, pp. 112-113.
9. Vetrov N.I. Ugolovnoe pravo. Obshhaja chast' [Criminal law. a common part]. Moscow, Juniti, 1999, p. 114.
10. Zufarov R.A. Poraxo'rlik uchun jinoiy javobgarlik. Monografiya. Mas'ul muharrir M.H. Rustambaev [Criminal liability for bribery. Monograph. Responsible editor M.H. Rustambaev]. Tashkent, TSUL, 2004, pp. 135-137.
11. Kadyrov M.M. Ugolovnoe pravo Respubliki Uzbekistan. Osobennaja chast'. Uchebnik [Criminal law of the Republic of Uzbekistan. The special part. Textbook]. Tashkent, Adolat, 1997, pp. 252-253.
12. Sovet jinoyat huquqi. Maxsus qism. Darslik. B.A. Ahmedov, B.A. Blinder, S.G. Zakutskiy va boshq. Mas'ul muharrir B.A. Ahmedov [Soviet criminal law. Special section. Textbook. B.A. Ahmedov, B.A. Blinder, S.G. Zakutsky et al. Editor-in-Chief B.A. Ahmedov]. Tashkent, O'qituvchi Publ., 1983, p. 164.
13. Zdravomyslov B.V. Dolzhnostnye prestupleniya. Ponjatie i kvalifikacija [Official crimes. Concept and qualifications]. Moscow, Jurid. lit. Publ., 1975, pp. 9-13.
14. Axrarov B.D. Boshqaruv tartibiga qarshi mansabdorlik jinoyatlari uchun javobgarlik muammolari. Yu.f.d. ilm. dar. olish uchun yozilgan diss. [Problems of liability for official crimes against management order] Tashkent, TSUL, 2008, p. 41.
15. Konstitutsiyaviy huquq. Ensiklopedik lug'at. Mas'ul muharrir B. Mustafoev [Constitutional law. Encyclopedic Dictionary. Responsible editor B. Mustafoev]. Tashkent, Uzbekiston Publ., 2006, p. 103.
16. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi. Nashr uchun mas'ul: R.A. Muhitdinov va boshq. Mas'ul muharrir N. Toychiyev [Encyclopedia of Law of Uzbekistan. Responsible for publication R.A. Muhitdinov et al. Responsible editor N. Toychiev]. Tashkent, Adolat, 2009, p. 99.
17. Teoriya gosudarstva i prava [Theory of Government and Rights]. Moscow, Norma, 2002, p. 157.
18. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi. Mas'ul muharrir N. Toychiyev [Encyclopedia of Law of Uzbekistan. Responsible editor N. Toychiev]. Tashkent, Adolat, 2011, p. 109.
19. Ljapunov Ju.I. Otvetstvennost' za vzjatku [Responsibility for a bribe]. Moscow, Znanie Publ., 1987, p. 15.
20. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 11-sentabrdagi O'RQ-445-son qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 37-son, 977-modda [Law of the Republic of Uzbekistan "On appeals of individuals and legal entities", approved by the Law of the Republic of Uzbekistan dated September 11, 2017 No. ZRU-445. Collection of Legislation of the Republic of Uzbekistan, 2017, No. 37, Article 977].
21. O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 22-apreldagi O'RQ-350-son qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013-y., 17-son, 219-modda [Law of the Republic of Uzbekistan "On citizens' self-government bodies", approved by the Law of the Republic of Uzbekistan dated April 22, 2013 No. ZRU-350. Collection of Legislation of the Republic of Uzbekistan, 2013, No. 17, Article 219].
22. Irgashev R. Problemy gosudarstvennoj sluzhby i pravovogo statusa gosudarstvennyh sluzhashhih [Problems of civil service and the legal status of civil servants]. Huquq va burch – Law and duty. Tashkent, 2007, no. 7, pp. 58-59.
23. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati: forsha, tojikcha birikmalar va ular bilan hosilalar [Etymological dictionary of Uzbek language: Persian, Tajik compounds and their derivatives]. Tashkent, Universitet, 2009, p. 167.
24. Kozhevnikov M., Lagovler L. Dolzhnostnye prestupleniya i bor'ba s nimi [Official crimes and the fight against them]. Moscow, Jurid. lit., 1925, p. 17.
25. Zhizhilenko A.A. Dolzhnostnye (sluzhebnye) prestupleniya. Prakticheskij kommentarij [Official (service) crimes. Practical comment]. Moscow, Jurid. lit., 1927, pp. 3-13.
26. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. T. 1. A-D. Tahrir hay'ati T. Mirzayev va boshq. [Annotated Dictionary of the Uzbek Language: More than 80,000 words and phrases. A-D. Editorial Board T. Mirzaev et al.]. Tashkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, vol. 1, p. 384.
27. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh. A.A. Azizxo'jayev, F. Abdumajidov, M.A. Axmadshayeva va boshq. Mas'ul muharrir A.A. Azizxo'jayev [Commentary to the Constitution of the Republic of Uzbekistan. A.A. Azizkhojaev, F. Abdumajidov, M.A. Ahmadshaeva et al. Editor-in-Chief A.A. Azizkhojaev]. Tashkent, Uzbekiston, 2008, p. 194.

28. Kucherjavyj N.P. Otvetstvennost' za vzjatochnichestvo [Responsibility for bribery]. Moscow, 1957, p. 47.
29. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. T. 3. N-Tartibli. Tahrir hay'ati T. Mirzayev va boshq [Annotated Dictionary of the Uzbek Language: More than 80,000 words and phrases. N. Editorial Board T. Mirzaev et al.]. Tashkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, p. 75
Dunyo hamjamiyatida sodir bo'layotgan turli voqea va hodisalar shundan dalolat bermoqdaki, xalqaro huquqiy munozaralar atrofida tergov komissiyalari tuzish hamda ular faoliyatini o'rganish bilan bog'liq asoslar ilmiy va siyosiy munozaralarga sabab bo'lmoqda. Chunki mazkur faoliyat 10 yoki 20 yil ilgari tashkil etilgan komissiyalarga qaraganda hozirda tez-tez tuzilmoqda. Natijada bevosita xalqaro jinoyat huquqi faoliyat doirasiga shunchalik singib ketdiki, bu, o'z navbatida, ularning huquqiy maqomi, predmet sohasi va vakolatlari to'g'risida turli bahs-munozaralarni keltirib chiqarmoqda.

Xalqaro sudning doimiy palatasi 1924-yil 30-avgustdagi Mavromatis ishi bo'yicha sud qarorida xalqaro nizoga "qonun yoki fakt bo'yicha kelishmovchilik, nizoning huquqiy tomoni yoki ikki tomonlama manfaatlar to'qnashuvi" deb ta'rif berdi [1; 2]. Ushbu ta'rif shuni ko'rsatdiki, xalqaro nizolarning mazmuni tomonlarning huquqiy fikrlaridagi farq bilan cheklanib qolmay, ular o'zaro munosabatlarining haqiqiy holatlarini har xil talqin qilish imkoniyatlarini ham qamrab

oladi. Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish usullari ham kelishuv (muzokaralar, vositachilik, tergov) va sud qarorlari faktik qarama-qarshiliklarini bartaraf etishga yo'naltirilishi mumkin. Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish usullarining ba'zilar uchun faktlarni aniqlash majburiy element hisoblanadi (tergov, yarashuv va sud jarayonlari).

Material va metodlar

Ushbu maqola yuzasidan ilmiy izlanishlar natijasida muallif tomonidan bir nechta huquqiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

1. Qiyosiy-tahlil metodi. Ushbu metoddan maqolada tahlil qilingan xalqaro hujjatlarning mazmunini qiyoslash orqali umumiy hamda o'ziga xos jihatlarini taqqoslash jarayonida foydalanildi.

2. Formal-logistik tahlil. Ilmiy izlanish jarayonida 1899- va 1907-yillarda qabul qilingan "Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish to'g'risida"gi Gaaga konvensiyalari, BMT Ustavida belgilangan qoidalar, 1929-yilda qabul qilingan Jeneva konvensiyalari, 1947-yilda qabul qilingan "Xalqaro fuqaro aviatsiyasi to'g'risida"gi Konvensiya, 1991-yil BMT Bosh Assambleyasining "Xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faktlar-

ni aniqlash to'g'risida"gi Deklaratsiyasi, 1957-yil 29-aprelda Strasburgda qabul qilingan "Nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish" bo'yicha Yevropa konvensiyasi, 1991-yilda qabul qilingan "Transchegaraviy kontekstda atrof-muhitga ta'sirni baholash to'g'risida"gi Konvensiya hamda 1997-yilda qabul qilingan "Xalqaro suv oqimlaridan noqonuniy foydalanish huquqi to'g'risida"gi Konvensiya normalarini sharhlash va ular mazmunini ochib berishda formal-logistik metodga murojaat etildi.

3. Bugungi kunda sohadagi mavjud huquqiy holatning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish va asoslash jarayonida muallif tomonidan empirik metod hisoblangan tarixiy-huquqiy metod qo'llanildi. Bundan tashqari, maqolada mavzu yuzasidan muallifning nazariy fikr-mulohazalari ham bayon etilgan. Bunda muallif doktrinal huquqiy tadqiqot metodlaridan foydalangan.

Tadqiqot natijalari

Nizolarni hal qilish vositasi sifatida tergov komissiyalari faoliyatini ilk bor tartibga soluvchi xalqaro hujjatlar bu, albatta, 1899- va 1907-yillarda qabul qilingan "Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish to'g'risida"gi Gaaga konvensiyalaridir.

Xalqaro tergov komissiyalarining nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish mexanizmi huquqiy tomondan 1899-yilda qabul qilingan Gaaga konvensiyasida mustahkamlab qo'yildi. Konvensiyaning 9-moddasiga ko'ra, "shon-sharaf va hayotiy manfaatlariga ta'sir qilmaydigan xalqaro nizolar yuzaga keladigan bo'lsa, imzolovchi davlatlar o'zaro kelishuv asosida faktlarni aniqlash maqsadida xalqaro tergov komissiyalari tuzishi va tergov olib borishi mumkin [3]". Bundan ko'rinib turibdiki, davlatlarning shon-sharafi va ularning hayotiy manfaatlariga ta'sir qilmaydigan xalqaro nizolar yuzaga kelgan taqdirda, xalqaro tergov komissiyalari bevosita nizolarni tinch yo'l bilan hal etish usulidan foydalanishi mumkin.

Tergov komissiyasi tashkil etish uchun tarafalar "tekshirishi kerak bo'lgan faktlarni aniqlashi shart". Bunda yuritish tartibi va komissiya a'zolarining vakolatlari doirasi to'g'risida bitim tuziladi (10-modda). Davlatlarning komissiya bilan hamkorlik qilish majburiyatlari 12-moddada mustahkamlangan. Tergov natijalariga ko'ra hisobot tuziladi. Bu arbitraj qarorlari bilan bog'liq bo'lmagan holda, faqat faktlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Tomonlar tergov natijalarini tan olishda erkindirlar (14-modda).

Dastlab mazkur tergov komissiyalarining ishlash tizimi, tergov olib borish jarayoni har bir tuzilgan komissiya uchun vaqtinchalik *ad hoc* tartibda belgilangan. Lekin bu tizim o'zini oqlamadi va natijada 1907-yilda qabul qilingan "Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish to'g'risida"gi Gaaga konvensiyasida xalqaro tergov komissiyalari faoliyati to'liq belgilab qo'yildi (9-36-moddalar) [4]. Tergov komissiyalarining aniq maqsadi xolis va adolatli tergov orqali faktlarni aniqlash hamda qaror qabul qilishga ko'maklashish deb belgilandi (9-modda). Tomonlarning tergov komissiyasini tashkil etish to'g'risidagi kelishuvda komissiya-ning joylashuv joyi, uning ko'chib yurish huquqi, komissiya doirasida ishlatiladigan til va tergov ishtirokchilari foydalanishi mumkin bo'lgan til, har bir tomon faktlar va boshqa dalillarni taqdim etishi shart bo'lgan muddatlar ko'rsatilishi mumkin (10-modda). Tergovni tashkil etayotgan davlatning roziligi bilan uning hududida tergov olib borish mumkin (20-modda). Komissiya taraflardan holat bo'yicha tushuntirish va boshqa ma'lumotlarni taqdim etishini so'rashga haqli (22-modda). Agar taraflar va komissiya o'rtasidagi o'zaro hamkorlik doirasida komissiya talablarini bajarish davlatning "suvereniteti va xavfsizligiga" tahdid solsa yoki buzish bilan bog'liq bo'lsa, komissiya bilan hamkorlik bekor qilinishi mumkin (24-modda). Agar komissiya tomonlarning roziligi bilan boshqacha qaror qabul qilmasa, komissiya yig'ilishlari, tergov bayonnomalari va boshqa hujjatlarining maxfiyligi saqlanadi (32-modda). Ammo konvensiyaning 34-moddasiga ko'ra, yakuniy hisobot komissiya-ning ochiq yig'ilishida o'qiladi. 35-moddaga ko'ra, komissiya hisobotini qabul qilish tomonlar xohishiga bog'liq, ya'ni tomonlarga biror-bir majburiyat yuklanmaydi. Shu bilan birga, komissiya faoliyatini moliyalashtirish bevosita konvensiyaning 36-moddasiga ko'ra taraflar o'rtasida teng taqsimlanadi.

Diplomatik nuqtayi nazardan ikki konvensiyaning o'zida tergov komissiyalari huquqiy tabiatining bir necha jihatlari sanab berildi. Birinchidan, 1907-yilda qabul qilingan konvensiyaga ko'ra, "komissiya-ning oxirgi xulosasi faktlarni aniqlashga qaratilgan tavsiyaviy xarakter kasb etadi va komissiya hech qanday qaror qabul qilmaydi [5]". Ikkinchidan, Gaaga konvensiyasining 35-moddasiga ko'ra, ushbu hisobot majburiy kuchga ega emas, aksincha, ishtirokchi davlatlar-

ga hisobotda ta'sir ko'rsatish choralarini tanlash imkoni beriladi. Uchinchidan, 1899-yilda qabul qilingan konvensiyaning 13-moddasida belgilangan qoidaga muvofiq, hisobot faqat tomonlar e'tiboriga yetkaziladi va oshkora e'lon qilinmasligi aniq belgilab qo'yildi. Biroq 1899-yilda belgilangan qoidalardan farqli o'laroq, 1907-yil Gaaga konvensiyasining 34-moddasiga ko'ra, hisobot komissiyaning ochiq yig'ilishida o'qilishi kerakligi belgilandi.

Shuningdek, tergov xalqaro gumanitar huquqning manbasi hisoblangan bir qator konvensiyalarda ham mustahkamlab qo'yilgan.

1977-yildagi diplomatik konferensiyada xalqaro gumanitar huquqda faktlarni aniqlash bo'yicha tergov komissiyalarini hayotga tatbiq etishga doir bir nechta harakatlar amalga oshirildi [10]. Bundan maqsad, albatta, to'rtinchi Jeneva konvensiyasiga qo'shimcha I protokolning 90-moddasiga ko'ra, xalqaro gumanitar huquqning qo'pol buzilishiga nisbatan va shunga o'xshash huquqbuzarliklar to'g'risidagi da'volarni tekshirish hamda tergov bilan shug'ullanish uchun doimiy faktlarni aniqlash komissiyasi (xalqaro tergov komissiyasi) tashkil etish edi.

Birinchi Jahon Urushidan keyin xalqaro maydonda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida Millatlar Ligasi tashkilotiga asos solindi. Liga Nizomining 11-, 13-, 15- va 17-moddalarida [11] tergov komissiyalari tuzish va ular faoliyatini amalga oshirish tartibi belgilangan.

Nizomning 11-moddasiga ko'ra, "Har qanday urush yoki urush tahdidi... Ligani qiziqtiradi va Liga bevosita xalqlar tinchligini samarali himoya qilish maqsadida tinchlik bilan bog'liq choralar ko'rishini e'lon qiladi". Shuningdek, 15-moddaga binoan, "Liga a'zolari o'rtasida yuzaga kelgan nizo hakamlik sudi yoki sud muhokamasiga taalluqli bo'lmasa ... nizoni ko'rib chiqish uchun Bosh kotibga topshirish mumkin"ligi aniq belgilab qo'yildi.

Millatlar Ligasi rasman 1945-yilda tugatilgandan so'ng Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashkil etildi. Mazkur tashkilot Ustavining 33- va 34-moddalarida xalqaro tergov guruhlarini faoliyati bevosita huquqiy tartibga solindi. Ustavda tergov komissiyalarining kamida ikkita vazifasi aniq shakllantirildi.

Ustavning 33-moddasida "tergov" nizolari hal qilishning boshqa bir qancha shakllari qatorida nizoni hal qilish mexanizmlaridan biri sifatida

sanab o'tildi. Ushbu vazifaga ko'ra, xalqaro maydonda nizo yuzaga keladigan bo'lsa, Xavfsizlik Kengashi davlatlarga nizoni tinch yo'l bilan hal qilish mexanizmlarini qo'llash bo'yicha murojaat bilan chiqishi mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, tergov komissiyalari davlatlar o'rtasidagi nizolarni hal qilishning alohida vositasi sifatida belgilab qo'yildi. Bosh Assambleya ham davlatlar o'rtasidagi nizolarni hal qilish vositasi sifatida tergov komissiyalaridan foydalanishni qo'llab-quvvatlab kelmoqda [12].

Shuningdek, Ustavning 68-moddasida shunday deyilgan: "Iqtisodiy-ijtimoiy kengash iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida hamda inson huquqlarini ta'minlash bo'yicha komissiyalar yoki o'z vazifalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqa komissiyalar tuzadi." Albatta, BMTning Bosh Assambleyasi, Xavfsizlik Kengashi va Iqtisodiy-ijtimoiy Kengash (ECOSOC) asosiy organlar sifatida xalqaro tergov guruhlarini tuzishi mumkin. Rivojlanib borayotgan xalqaro huquqda nizolarni tinch yo'l bilan hal etish maqsadi sifatida tergov guruhlarini tuzishning huquqiy asosi, birinchi navbatda, bevosita BMT Ustavining bir necha moddalarida belgilab qo'yilgan.

Tadqiqot natijalari tahlili

D.O. Gafarovskiy fikricha, tergov komissiyalari faoliyati muvaffaqiyatli natijaga erishish uchun xizmat qilsa-da, tomonlar "birgalikda qaror qabul qilishi va kelishuvni amalga oshirish" uchun faktlarni bir xillashtirishlari muhimdir [2]. Muallif fikridan ko'rinib turibdiki, tergov komissiyalari hisobotlari bevosita tomonlar o'rtasida kelishuvni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Komissiyalar tarixidan ma'lumki, ular davlatlar o'rtasida, davlatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasida hamda xalqaro tashkilotlar taklifi bilan tuzilgan va o'z faoliyatini amalga oshirgan. Shu nuqtayi nazardan olib qaraydigan bo'lsak, dunyoda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashda xalqaro huquq subyektlarining birgalikda qaror qabul qilishlari muhim hisoblanadi.

Bundan tashqari, 1929-yilda qabul qilingan Jeneva konvensiyasidagi urush qonun-qoidalarini buzilishini tergov qilishga doir masalalarni tahlil qilishda quyidagi masalaga e'tibor qaratish lozim: 1929-yilda qabul qilingan Jeneva konvensiyasining 30-moddasida "urushayotgan tomonning talabiga binoan, Konvensiyaning buzilishi mumkin bo'lgan holatlar bo'yicha manfaatdor tomonlar

o'rtasida kelishuvga asosan tergov boshlanishi kerak", deb ko'rsatilgan [6].

Konvensiyadagi mazkur modda matni o'sha vaqtda muhim munozaralarga sabab bo'ldi va matn 1929-yilda diplomatik konferensiyada uzoq vaqt davom etgan ikkilanishlardan so'ng tasdiqlandi. Konferensiyadagi ko'plab delegatlar konvensiyadagi bunday norma bevosita davlatlarga qarshi sanksiyalar uchun eshik ochib beradi, degan hadikda edi. 1934-yilda bo'lib o'tgan XV Qizil Xoch Xalqaro konferensiyasida ushbu moddani qo'llash qiyinchilik tug'dirayotgani aytiladi, chunki bunda taraflar o'rtasida kelishuv va to'g'ridan-to'g'ri tartib mavjud emas edi [7]. Jeneva konvensiyasining 30-moddasi amaliyotda ilk bor 1936-yilda Italiya-Efiopiya o'rtasida yuzaga kelgan urush vaqtida qo'llanildi. Har ikki tomon Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasi muhokamalariga asosan, konvensiya bo'yicha himoyalangan tamg'alardan noqonuniy foydalanish bo'yicha tergov olib borishga rozilik bildirdi. Tergovda Italiya zaharli gaz moddalaridan foydalangan, degan da'volar ham paydo bo'ldi, ammo Italiya urush usullari tergov doirasiga hech qanday taalluqli emasligini ta'kidlagan [8].

Italiya urushda zaharli gazlardan foydalanishligi Millatlar Ligasiga ma'lum bo'lgach, tergov bevosita siyosiy qarama-qarshiliklarga olib keldi. Bu esa, o'z navbatida, Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasining rolini shubha ostiga qo'ydi. Natijada 1929-yildagi Jeneva Konvensiyasida mustahkamlab qo'yilgan davlatlar o'rtasida tergov komissiyasi tuzish amalda qo'llanilmadi. Xalqaro gumanitar huquq sohasida tergov samaradorligini oshirish maqsadida Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasi 1949-yilda o'tkazilgan diplomatik konferensiyada davlatlar da'vo qilgan huquqbuzarliklarni "tergov qilishni talab qilish" imkonini beruvchi "tergov jarayonini taklif qildi." Ammo davlatlar uning ba'zi jihatlarini juda murakkab deb hisoblagani uchun ushbu taklifni qo'llab-quvvatlamadi. [9].

Natijada 1929-yilda qabul qilingan konvensiyadagi qoida mohiyati 1949-yil Jeneva konvensiyalarida, agar tomonlar jarayon bo'yicha kelisha olmasa, qaror qabul qilish uchun sudyani birgalikda tayinlashi kerakligi to'g'risidagi tuzatish bilan saqlab qolindi [10].

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan BMT Ustavidagi moddalardan tashqari BMTning bir necha deklaratsiyalari va konvensiyalarida ham tergov

komissiyalari tuzish bilan bog'liq normalar mavjud. 1991-yil BMT Bosh Assambleyasining Xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faktlarni aniqlash to'g'risidagi Deklaratsiyasi [14] bunga yaqqol misol bo'lishi mumkin. Deklaratsiyaning 1-moddasiga binoan, "Xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq vazifalarni bajarishda BMTning vakolatli organlari barcha tegishli faktlardan to'liq xabardor bo'lishlari kerak. Shu maqsadda ular faktlarni aniqlash faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini ko'rib chiqishlari lozim". Lekin mazkur deklaratsiya BMTga a'zo davlatlar uchun majburiy hisoblanmaydi, aksincha, tavsiyaviy xarakterga egadir.

Nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish mexanizmlari mintaqaviy tashkilot sifatida Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar miqyosida ham 1957-yil 29-aprelda Strasburgda qabul qilingan "Nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish bo'yicha Yevropa konvensiya"si asosida tartibga solinishini ko'rishimiz mumkin [15]. Yevropa konvensiyasining 5-moddasiga ko'ra, "agar kelishmovchilik yuzaga kelganda, u ilgari manfaatdor tomonlar tomonidan tuzilgan vakolatli doimiy kelishuv komissiyasiga ko'rib chiqish uchun topshiriladi. Agar tomonlar komissiyaga murojaat qilishni lozim deb topmasa yoki komissiya mavjud bo'lmasa, nizo taraflaridan biri boshqa tarafa iltimosnoma bilan murojaat qilgan kundan boshlab uch oy ichida taraflar tomonidan tashkil etiladigan maxsus kelishuv komissiyasiga beriladi". "Tergov olib borishda komissiya bir ovozdan boshqa qaror qabul qilmasa, ushbu Konvensiya qoidalarini hisobga olgan holda, 1907-yil 18-oktabrdagi "Xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish to'g'risida"gi Gaaga konvensiyasining III qismi qoidalariga muvofiq harakat qiladi" (12-modda).

Ma'lumki, zamonaviy xalqaro jamiyat bir asr oldingi jamiyatga qaraganda ancha tartibga solingan va institutsionallashtirilgan. Tergov va faktlarni aniqlash bo'yicha qoidalar ham xalqaro huquqda maxsus shartnoma rejimida yoki ayrim xalqaro tashkilotlarning ta'sis shartnomalarida ham o'rnatilgan [16]. Inson huquqlari, tinchlik va xavfsizlikdan tashqari nizolarni hal qilishning bir usuli sifatida tergov o'tkazishni nazarda tutuvchi shartnomalarga 1991-yilda qabul qilingan "Transchegaraviy kontekstda atrof-muhitga ta'sirni baholash to'g'risida"gi Konvensiya (ES-POO Konvensiya) [17], 1997-yilda qabul qilingan

“Xalqaro suv oqimlaridan noqonuniy foydalanish huquqi to‘g‘risida”gi Konvensiya [18] va 1947-yilda qabul qilingan “Xalqaro fuqaro aviatsiyasi to‘g‘risida”gi Konvensiya (Chikago konvensiyasi) larni misol qilib keltirish mumkin.

1991-yil 25-fevralda qabul qilingan “Transchegaraviy kontekstda atrof-muhitga ta’sirni baholash to‘g‘risida”gi Konvensiya (ESPOO Konvensiya)ning asosiy maqsadi milliy rivojlanish faoliyatining transchegaraviy salbiy ta’sirlarining oldini olishdir. Ya’ni har xil iqtisodiy faoliyat va ularning atrof-muhitga ta’siri o‘rtasidagi munosabatni o‘rganib, ekologik toza va barqaror rivojlanishni ta’minlashdan iborat. Mazkur Konvensiyaning IV Ilovasi bevosita nizolarni hal qilish bo‘yicha ixtiyoriy tergov o‘tkazishni nazarda tutadi. Tergov nizo yuzaga kelganda, nizoni keltirib chiqargan faoliyatning transchegaraviy ta’sirini aniqlaydi. Ushbu tergov komissiyasi a’zolari ilmiy va texnik mutaxassislardan iborat bo‘lishi va a’zolarining qaror qabul qilishdagi fikrlari ilmiy prinsiplarga asoslanishi zarurligi aniq belgilab qo‘yildi.

1997-yil 21-mayda qabul qilingan “Xalqaro suv oqimlaridan noqonuniy foydalanish huquqi to‘g‘risida”gi Konvensiyaning 33-moddasiga ko‘ra, “ushbu Konvensiya, agar tomonlar o‘z nizolarini boshqa yo‘llar bilan hal qila olmasa, faktlarni aniqlash bo‘yicha komissiya tuzishi mumkin”ligi belgilab qo‘yilgan. Konvensiyaning 33-modda 8-bandiga muvofiq, “Komissiya o‘z hisobotini ko‘pchilik ovoz bilan qabul qiladi... adolatli qaror qabul qilish uchun zarur deb hisoblagan tavsiyalarni tomonlarga taqdim etadi”, shuningdek, “bunday tavsiyalar manfaatdor taraflar tomonidan adolatli ko‘rib chiqiladi”, deb belgilab qo‘yilgan.

Aviatsiya hodisalarini tergov qilish va tekshirish, qoida tariqasida “Xalqaro fuqaro aviatsiyasi to‘g‘risida”gi Konvensiyaning 26-moddasiga ko‘ra, bevosita hodisa yuz bergan davlat organlarida olib borilishi belgilangan. Ya’ni biror davlat hududida havo kemalari bilan bog‘liq baxtsiz hodisa yuz bergan taqdirda, buning natijasida o‘lim yoki og‘ir shikast yetkazilganda va katta miqdorda ziyon xavfi yuzaga kelganda, baxtsiz hodisa tegishli bo‘lgan davlat o‘z milliy qonunchiligida ruxsat etilgan darajada Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti tavsiyalariga asosan, halokat holatlarini tekshirib, tergovni amalga oshiri-

shi mumkin. Shuningdek, mazkur qoida “Xalqaro fuqaro aviatsiyasi to‘g‘risida”gi Konvensiya (Chikago konvensiyasi)ning “Aviatsiyada baxtsiz hodisalar va insidentlarni tergov qilish to‘g‘risida”gi XIII Ilovasi [19] hamda Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkilotining “Aviatsiyada baxtsiz hodisalar va insidentlarni tergov qilish to‘g‘risida”gi [20] qo‘llanmasida ham batafsil bayon etilgan. Ushbu konvensiyadan ko‘rinib turibdiki, xalqaro tergov komissiyalari biron-bir davlatning boshqaruv tizimiga kiritilmagan va xalqaro munosabatlarda o‘z nomidan ish olib boruvchi mustaqil organdir. Lekin yuqoridagi konvensiya normalaridan shuni tushunishimiz mumkinki, bir qator holatlarda xalqaro tergov guruhi ishtirokida ichki tekshiruvlar ham olib boriladi.

Xulosalar

Tergov komissiyalari tuzishning huquqiy asosi BMT Ustavining 33- va 34-moddalaridan tashqari mazkur Ustavning 7-moddasida ham keltirilgan. Ustavning 7-modda 2-bandiga ko‘ra, BMTning asosiy organlari tomonidan yordamchi organlar tuzilishi mumkinligi aniq belgilab qo‘yilgan. Garchi 7-moddada belgilangan “yordamchi organ”larning turi aniq ko‘rsatilmagan bo‘lsa-da, lekin tergov komissiyalarini umumiy ma’noda yordamchi organ deb olishimiz mumkin. Yordamchi organlar bevosita BMTning asosiy organlari tomonidan tuzilgan Ustavning 7-modda 1-bandi-da belgilab qo‘yilganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Danesh Sarushi (Danesh Sarooshi) fikricha, yordamchi organlar ikki shartga ko‘ra tuzilishi kerak: ular BMTning asosiy organini tashkil etishi hamda asosiy organlar rahbarligi va nazorati ostida bo‘lishi [13]. Ustavning 22- va 29-moddalarida BMT Bosh Assambleyasi va Xavfsizlik Kengashiga o‘z vazifalarini bajarishi uchun qanday yordamchi organlar zarur bo‘lsa, ularni ta’sis eta oladi, deb belgilab qo‘yilgan. Zamonaviy tergov komissiyalarining Bosh Assambleya tomonidan tuzilgan yordamchi organi Inson huquqlari bo‘yicha Kengash (The Human Rights Council) tomonidan tashkil etilmoqda. Mazkur organ 2006-yil Inson huquqlari bo‘yicha komissiya o‘rnida tuzilgan.

Yuqoridagi tahlil shundan dalolat beradiki, BMT Ustavining ayrim moddalariga o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritish zamon talabi bo‘lib qolmoqda. Ustavning 7-modda 2-bandi bilan BMTning asosiy organlariga yordamchi organlar tuzish vakolati

berilgan. Agar biz tergov komissiyalarini xalqaro xavfsizlik va tinchlikni saqlash maqsadida bir yordamchi organ deb oladigan bo'lsak, bugungi kunda BMTning yordamchi organlari tomonidan tuziladigan komissiyalar ham mavjud. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, Ustavning 7-modda 3-bandini quyidagi mazmunda to'ldirish maqsadga muvofiq bo'lar edi:

“BMTning asosiy organlari tomonidan tuzilgan yordamchi organlar xavfsizlik va tinchlikni saqlash, inson huquqlari va gumanitar huquq normalari buzilishlarining oldini olish va huquqbuzarliklar bo'yicha BMTni ogohlantirish maqsadida xalqaro huquqda komissiyalar, ekspertlar guruhi, turli missiyalar tashkil etishi mumkin”

Nizolarni hal qilish vositasi sifatida tergov komissiyalari faqat inson huquqlari buzilishi yoki xalqaro gumanitar huquq qoidalarining buzilishi bilan bog'liq vaziyatlarda emas, balki ayrim xalqaro huquq qoidalari buzilishining oldini olish va nizoni hal qilish uchun ham tuzilishi mumkin.

Xalqaro huquqning turli sohalarida tashkil etilishidan qat'i nazar, xalqaro tergov komissiyalarining predmeti, vazifasi va maqsadi bitta: ya'ni alohida davlatlar, xalqaro tashkilotlar yoki umuman, xalqaro hamjamiyat uchun muhim bo'lgan voqealarning haqiqiy holatini to'liq va aniq ko'rsatishdir. Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish vositasi sifatida tergov komissiyalari predmetini dengizda sodir etilgan hodisalar, aviahalokatlar, atrof-muhitga zarar yetkazish, xalqaro gumanitar huquq normalarining jiddiy buzilishi tashkil etadi. Misol uchun, xalqaro tashkilotlar tomonidan tuziladigan tergov komissiyalari qoida tariqasida xalqaro gumanitar huquq, inson huquqlari buzilishlarini tekshirish, gumanitar inqirozlarning haqiqiy holatlarini aniqlash, siyosiy va jamoat arboblari o'ldirilishi bilan bog'liq holatlar, ya'ni sodir etilgan huquqbuzarlik faktlarini aniqlash bilan shug'ullanadi.

Yuqorida ko'rib o'tganimiz, 1899- va 1907-yillarda qabul qilingan Gaaga konvensiyalariga

ko'ra, “tergov natijalari to'g'risidagi hisobot faqat faktlarga taalluqli bo'lishi kerak...” deb belgilab qo'yilgan. Mazkur normadan ko'rishimiz mumkinki, komissiyalarning asosiy predmeti, bu, albatta, huquqbuzarlik aniq faktlarini aniqlashdir. Lekin Z.Yedigo (Yihdego, Z.) fikriga ko'ra, “faktlarni aniqlash bo'yicha zamonaviy komissiyalarning aksariyati haqiqatni aniqlash va huquqiy masalalar bilan shug'ullanadi. Bunday normaning istisno yoki aniq belgilangan norma ekanligi ma'lum emas” [21]. Muallif o'z fikri bilan tergov komissiyalari ayrim vaziyatlarda o'z predmetidan chetga chiqish holatlari kuzatilayotganini ta'kidlamogda. Mazkur fikrni rivojlantirib, shuni ta'kidlashimiz mumkinki, 1899- va 1907-yilda qabul qilingan Gaaga konvensiyalarida belgilangan normalarga o'zgartirishlar kiritish zarur. Chunki raqamlashib borayotgan jamiyatda tergov komissiyalarini sodir etilgan huquqbuzarlik faktlarini aniqlash bilan chegaralab qo'yish xato hisoblanadi. Gaaga konvensiyalarida, ya'ni 1899-yildagi konvensiyaning 14-moddasi va 1907-yildagi konvensiyaning 35-moddasida ko'zda tutilgan normalarni *“tergov natijalari to'g'risidagi hisobotda sodir etilgan huquqbuzarlik, aniqlash mumkin bo'lgan faktlar va har qanday buzilgan xalqaro huquq normalari aniq ko'rsatilgan bo'lishi kerak, mazkur hisobot arbitraj qaroriga tenglashtirilishi kerak emas”*, deb o'zgartirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur o'zgartirish bevosita xalqaro huquqning buzilgan prinsiplari va normalarini aniq bilish imkonini beradi. Natijada tergov komissiyalarining zamon bilan hamnafasligi yanada oshadi.

Xulosa o'rnida shuni qayd etishimiz joizki, davlatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan tuziladigan xalqaro tergov komissiyalari, o'z navbatida, xalqaro huquqda jiddiy qonunbuzarliklar to'g'risida xabardorlikni oshirish va aybdorlar javobgarligini belgilashda ijobiy amaliyot yaratib berdi. Ularning xulosalari va tavsiyalari haqiqatni aniqlashda, adolat va javobgarlikni belgilashda amaliyotda katta xizmat qilmoqda.

REFERENCES

1. Tolstyh V.L. Kurs mezhdunarodnogo prava [International Law Course]. Moscow, 2010, 439 p.
2. Kudinov A.S. Mezhdunarodno-pravovoe regulirovanie organizatsii i dejatel'nosti mezhdunarodnyh komissij [International legal regulation of the organization and activities of international commissions]. Moscow, 2018, 46 p.

3. Convention for the Pacific Settlement of International Disputes, 1899. Available at: <https://docs.pca-cpa.org/2016/01/1899-Convention-for-the-Pacific-Settlement-of-International-Disputes.pdf/>.
4. Van den Herik L. An inquiry into the role of commissions of inquiry in international law: navigating the tensions between fact-finding and international law application. *Chinese Journal of International Law*, 2014, vol. 13, no. 3, 511 p.
5. Convention for the Pacific Settlement of International Disputes, 1907 Available at: <https://docs.pca-cpa.org/2016/01/1907-Convention-for-the-Pacific-Settlement-of-International-Disputes.pdf>.
6. Convention for the Amelioration of the Condition of the Wounded and Sick in Armies in the Field. Geneva, 1929, July 27. Available at: <https://ihl-databases.icrc.org/ihl/INTRO/300?OpenDocument/>.
7. Pictet J. Commentary on the Geneva Conventions of August 12, 1949. Vol. I, 374 p. Available at: https://www.loc.gov/rr/frd/Military_Law/pdf/GC_1949-I.pdf/.
8. Harwood C.E.M. The roles and functions of atrocity-related United Nations commissions of inquiry in the international legal order navigating between principle and pragmatism. Boston, 2020, p. 32.
9. Grace R., Bruderlein C. Building effective monitoring, reporting, and fact-finding mechanisms. Harvard, 2012, p. 4.
10. Ustav Ligi nacij. 10 janvarja 1920 goda [League of Nations Charter. January 10, 1920]. Available at: <http://doc20vek.ru/node/451/>.
11. Question of Methods of Fact-Finding. UNGA 72; A/RES/2329, vol. XXII, 1967, December 18. Available at: <https://www.refworld.org/docid/3b00f1cf10.html/>.
12. Sarooshi D. The Legal Framework Governing United Nations Subsidiary Organs *British Yearbook of International Law*, 1996, vol. 67, issue 1, pp. 416. DOI: <https://doi.org/10.1093/bybil/67.1.413/>.
13. Declaration on Fact-Finding by the United Nations in the Field of the Maintenance of International Peace and Security Available at: https://legal.un.org/avl/ha/ga_46-59/ga_46-59.html/.
14. European Convention for the Peaceful Settlement of Disputes Strasbourg, 29.IV.1957. Available at: <https://rm.coe.int/1680064586/>.
15. Schermers H.G., Blokker N.M. *International institutional law: unity within diversity*. 2011, 5th rev. ed., pp. 469-477.
16. Konvencija ob ocenke vozejstviya na okruzhajushhuju sredu v transgranichnom kontekste. Prinjata 25 fevralja 1991 goda [Convention on Environmental Impact Assessment in a Transboundary Context Adopted on February 25, 1991]. Available at: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/env_assessment.shtml/.
17. Konvencija o prave nesudohodnyh vidov ispol'zovanija mezhdunarodnyh vodotokov. Prinjata rezoljuciej 51/229 General'noj Assamblei ot 21 maja 1997 goda [Convention on the Law of the Non-Navigational Uses of International Watercourses Adopted by General Assembly resolution 51/229 of 21 May 1997]. Available at: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/watercrs.shtml/.
18. Rassledovanie aviacionnyh proisshestvij i incidentov. Prilozhenie 13 k Konvencii o mezhdunarodnoj grazhdanskoj aviacii. Izd. odinnadcatoe, ijul' 2016 goda [Investigation of aircraft accidents and incidents. Appendix 13 to the Convention on International Civil Aviation. Eleventh ed., July 2016]. Available at: <http://www.caakz.com/wp-content/uploads/2020/03/prilozhenie-13.-rassledovanie-aviacionnyh-proisshestvij-i-incidentov.pdf/>.
19. Manual of Aircraft Accident and Incident Investigation Part I. Organization and Planning. Available at: <https://skybrary.aero/bookshelf/books/3282.pdf/>.
20. Yihdego Z. The Gaza Mission: Implications for International Humanitarian Law and UN Fact-finding. *Melbourne Journal of International Law*, 2012, no. 13 (1).
21. Egamberdiyev D. Mezhdunarodnij opyt regulirovanija i organizatsii rassledovanija mezhdunarodnymi sledstvennymi gruppami [International experience of regulation and organization of investigations by international investigation teams]. *Review of law sciences*, 2020, no. 3, pp. 95-99. DOI: 10.24412/2181-1148-2020-3-95-99/.

UDC: 343.3

ORCID: 0000-0002-5008-7533

OLIV TA'LIM SOHASIDA KORRUPSIYAVIY HUQUQBUZARLIK SHAKLLARI, TASNIFI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Qo'chqorov Zafarjon Qayumjon o'g'li,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi
Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi,
e-mail: jasperlawyer@mail.ru

Annotatsiya. So'nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muhim tashkiliy-huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan tizimli choralar ko'rilmogda. Davlat tomonidan korrupsiyaga qarshi yo'naltirilgan barcha islohotlar fuqarolarning huquq va manfaatlarini ko'zlab amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ta'lim sohasida korrupsiyaga qarshi jadal faoliyat olib borish orqali mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy davlat boshqaruvi rivojlanayotgan va xususiy sektorda kasb turlari shiddat bilan ko'payayotgan bir vaziyatda malakali kadrlarga bo'lgan talabning ortishi va ijobiy natijalarga erishishda yetuk kadrlar xizmatidan foydalanish hal qiluvchi ahamiyat kasb etayotgani oliy ta'lim sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish dolzarbligini oshirmogda. Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida ilmiy adabiyotlar yetishmasligi va ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar o'tkazilmaganligi sababli sohadagi korrupsiya bilan bog'liq nazariy tushunchalarga alohida e'tibor qaratish lozim. Maqolada oliy ta'lim sohasidagi korrupsiyaviy huquqbuzarlik "shakllari", "tasnifi" va o'ziga xos "xususiyatlari" tushunchalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan bo'lib, ushbu tushunchalarga ta'riflar berilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, korrupsiyaviy huquqbuzarlik, nazariy tushunchalar, korrupsiyaviy huquqbuzarlik shakllari, tasnifi, xususiyatlari.

ФОРМЫ, КЛАССИФИКАЦИЯ И ХАРАКТЕРИСТИКА КОРРУПЦИОННЫХ ПРАВОНАРУШЕНИЙ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Кучкаров Зафаржон Каюмжон угли,
самостоятельный соискатель
Академии Генеральной прокуратуры
Республики Узбекистан

Аннотация. В последние годы в стране проводятся значительные организационные и правовые реформы в борьбе с коррупцией. Систематически принимаются меры по повышению правосознания и культуры населения, формированию бескомпромиссного отношения к коррупции в обществе. Все антикоррупционные государственные реформы осуществляются в интересах граждан. Особое внимание уделяется подготовке независимых, конкурентоспособных кадров с высокими моральными и этическими качествами путем интенсивной антикоррупционной деятельности в сфере образования. В условиях быстрого увеличения количества профессий в современном государственном управлении и частном секторе растущий спрос на квалифицированный и зрелый персонал и его использование имеют решающее значение для достижения положительных результатов, что повышает актуальность борьбы с коррупцией в высшем образовании. Из-за отсутствия научной литературы по борьбе с коррупцией в высшем образовании и отсутствия исследований в этой области особое внимание следует уделять теоретическим концепциям коррупции в этой области. Также приводится научный анализ понятий формы, классификации и специфических признаков коррупционных правонарушений в сфере высшего образования, даны определения этих понятий.

Ключевые слова: высшее образование, коррупционное правонарушение, теоретические понятия, формы, классификация, характеристики коррупционного правонарушения.

FORMS, CLASSIFICATION, AND CHARACTERISTICS OF CORRUPTION OFFENSES IN HIGHER EDUCATION

Kuchkarov Zafarjon Kayumjon ugli,

Ph.D. candidate of the Academy of
the Prosecutor General's office of the Republic of Uzbekistan

Abstract. In recent years, the country has undergone significant organizational and legal reforms in the fight against corruption. Measures are being systematically taken to raise the legal awareness and culture of the population, to form an uncompromising attitude towards corruption in society. All anti-corruption reforms carried out by the state are carried out in the interests of citizens. Particular attention is paid to the training of independent, competitive personnel with high moral and ethical qualities through intensive anti-corruption activities in the field of education. With the rapid growth of professions in modern public administration and the private sector, the growing demand for qualified personnel and the use of mature personnel are critical to achieving positive results, which increases the relevance of the fight against corruption in higher education. Due to the lack of scientific literature on combating corruption in higher education and the lack of research in this area, special attention should be paid to theoretical concepts of corruption in this area. The article provides a scientific analysis of the concepts of "forms", "classification" and specific "signs" of corruption offenses in the field of higher education and defines these concepts.

Keywords: higher education, corruption offense, theoretical concepts, forms, classification, features of corruption offenses.

Kirish

Korrupsiyadan xolijamiat va davlatni yaratish mamlakat taraqqiyotining mustahkam kafolati bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 7-dekabr kuni Konstitutsiyamizning 26 yilligiga bag'ishlangan marosimda so'zlagan nutqida "Korrupsiya bilan hech qachon maqsadimizga erisha olmaymiz" [1], deb ta'kidlagan edilar.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda oliy ta'lim muhim ahamiyatga ega soha sifatida ajralib turadi, chunki oliy ta'lim mehnat faoliyatiga yo'llanma beruvchi yakuniy uzluksiz ta'lim bosqichi hisoblanadi. Mamlakatda oliy ma'lumotga ega kadrlarning yetishmasligi, alohida mutaxassislik talab qiluvchi yangi davlat organlarining tashkil etilishi va uning samarali faoliyatini yo'lga qo'yish, rahbarlik lavozimlarining bo'sh qolib ketishi hamda malakali rahbarlarning bir tashkilotdan boshqasiga juda tez o'tkazilishi kabi muammolarni keltirib chiqaradi.

Ushbu muammolarni haletishga davlat rahbari tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda, xususan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomalarida 2020-yilda oliy ta'limga qabul parametrlari 2016-yilga nisbatan 2,5 barobarga o'sganligini,

yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 9 foizdan 25 foizga ortganligini ta'kidlagan holda, oliy ta'limga ajratiladigan davlat grantlari sonini kamida 25 foizga oshirishni belgilab berdilar [2]. Bugungi kunda ushbu ko'zlangan natijalarga erishildi.

Biroq ushbu ko'rsatkich Qozog'istonda 54 foiz, Qirg'izistonda 41 foizni tashkil etsa [3, 82-b.], Yaponiya, Kanada, Fransiya, Shvetsiya, AQSH davlatlarida, Buyuk Britaniya, Italiya, Koreya Respublikasida deyarli barcha bitiruvchilar oliy ta'limga qamrab olingan [4].

Butun dunyoda va mamlakatimizda oliy ta'lim olishga bo'lgan intilish juda yuqori va bu boradagi kuchli raqobat korrupsiyaviy holatlar kelib chiqish ehtimolini oshirmoqda.

Hozirda dunyoda 25 mingdan ortiq oliy ta'lim muassasasi mavjud bo'lib, [5] ularda 250 million atrofida talabalar tahsil olishmoqda. Talabalar soni yildan-yilga ortib borayotgan bo'lib, Melburn qirollik texnologiyalari universiteti tadqiqotchisi Angel Kalderon izlanishlariga asosan, talabalar soni 2030-yil 380 mln, 2035-yilda 472 mln, 2040-yilda 594 mln nafarga yetishi ko'rsatilmoqda [6].

Material va metodlar

Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish, sohada mavjud muam-

mo va kamchiliklarni bartaraf etishda ilmiy tadqiqotlar hamda ularning ijobiy natijalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz doirasida korrupsiyaga qarshi kurashish, xususan, oliy ta'lim sohasida korrupsiyaning oldini olish yangi va o'rganilmagan yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi asoslarga tayangan holda, oliy ta'lim sohasida sodir etilgan korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni nazariy jihatdan o'rganib, sohadagi huquqbuzarlik "shakllari", "tasnifi" va ularning o'ziga xos "xususiyatlari" tushunchalariga alohida to'xtalish maqsadga muvofiq.

Tadqiq etilayotgan mavzuni maqolada yoritishda qiyosiy-huquqiy, tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, mantiqiy, aniq sotsiologik, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, induksiya va deduksiya, statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullar qo'llanildi.

Maqolada oliy ta'lim sohasida sodir etilgan korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning nazariy jihatlarini hisoblangan huquqbuzarlik "shakllari", "tasnifi" va ularning o'ziga xos "xususiyatlari" kabi asosiy nazariy tushunchalar tadqiqot obyekti sifatida o'rganildi.

Tadqiqot natijalari va tahlili

Oliy ta'lim sohasidagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklar turli xil shakllarda va ko'rinishlarda sodir etiladi.

Shakl tushunchasiga turli yondashuvlar mavjud. Masalan, S.Ojegov [7, 2148-b] shakl mazmunining ajralmas qismi, uning mavjudligini ta'minlovchi, ifodalanishiga xizmat qiluvchi tushuncha, deb ta'riflaydi. D.Ushakov esa shakl bu tashqi ko'rinish, obyektning tashqi ifodalanishi deb hisoblaydi [8, 2157-b].

Korrupsiyaviy huquqbuzarlik shakllari o'zining shakliy xususiyatlari bilan huquqbuzarliklarni bir-biridan farqlash va ajratishda mezon sifatida xizmat qiladi.

Shunga ko'ra, oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy huquqbuzarlik shakliga oliy ta'lim sohasida sodir etiladigan korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning turli ko'rinishlari sifatida ta'rif berish mumkin.

K. Kuzina oliy ta'lim sohasidagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning quyidagi shakllarini ko'rsatib o'tgan: davlatga qarashli oliy ta'lim muassasasida (bundan buyon matnda OTM shaklida keltiriladi) budjet mablag'larining talon-toraj qilinishi; OTMni akkreditatsiya qilish uchun

pora berish; oliy ta'limga oid diplom va boshqa hujjatlarni noqonuniy usulda olish; tanlov natijasini hisobga olmagan holda OTMni ro'yxatdan o'tkazish; talabalarni baholash jarayonida o'qituvchilar tomonidan korrupsiyaviy tovlamachilik sodir etish; o'qishni istamagan talabalarining o'qituvchilarga korrupsiyaviy bosim qilishi; hamkasblar va rahbariyatning mas'ul o'qituvchilarga talabalarni qo'llab-quvvatlash masalasida korrupsiyaviy bosimlar o'tkazishi [9, 15-b.].

Fikrimizcha, sohadagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning quyidagi shakllarini mamlakatimiz doirasida ko'rish mumkin:

- OTMga kirish jarayonida korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish;
- talabalarni baholash jarayonida korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish;
- bitiruv malakaviy ishi yoki magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish jarayonida korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish;
- talabalarining davomatini yashirish maqsadida korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish;
- o'qish joyini ko'chirish, o'qish yo'nalishini o'zgartirish hamda o'qishga qayta tiklash jarayonida korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish;
- ilmiy-tadqiqot jarayonlarida korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish;
- budjet mablag'larini talon-toraj qilish;
- rahbar xodimlar va hamkasblarning mas'ul o'qituvchilarga korrupsiyaviy bosim o'tkazishi;
- OTM xodimlaridan korrupsiyaviy maqsadlarda noqonuniy pul mablag'larini yig'ish;
- talabalarga kitoblar va boshqa o'quv materiallarini majburiy sotish hamda buning uchun ularni turli jabhalarda qo'llash;
- OTMni bitirganligi to'g'risida soxta diplom yoki boshqa hujjatlar berish;
- kadrlarni lavozimga tayinlash, ularni ishdan bo'shatish, moliyaviy rag'batlantirish jarayonida korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish;
- OTMga davlat xaridlarini amalga oshirishda korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish;
- talabalarni yotoq joyi bilan ta'minlash jarayonida korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish va boshqalar.

Respublika oliy ta'lim sohasida 2019-2020-yillar va 2021-yilning 6 oyi davomida sodir etilgan korrupsiyaviy jinoyatlarni tahlil qilsak, ushbu davrda 145 ta korrupsiyaviy jinoyatlar sodir etilgan va korrupsiyaviy jinoyatlarning 112 tasi

o'qishga kiritish, 12 tasi o'qish joyini ko'chirish, o'qish yo'nalishini o'zgartirish hamda o'qishga qayta tiklash, 9 tasi mulkni talon-toraj qilish, 6 tasi oliy ta'lim muassasasiga ishga kirish, 3 tasi baholash, 2 tasi salbiy davomatni yashirish, 1 tasi bitiruv malakaviy ishni yozish jarayonlari bilan bog'liq [10].

Raqamlar va amaliy misollar pora evaziga o'qishga kiritib qo'yish, o'qish joyini ko'chirish, o'qish yo'nalishini o'zgartirish hamda o'qishga qayta tiklash, budjet mablag'larini talon-toraj qilish kabi korrupsiyaviy huquqbuzarlik shakllari keng tarqalganligini ko'rsatmoqda.

OTMga o'qishga kiritish bilan bog'liq korrupsiyaviy huquqbuzarlik shakli jahon dajasidagi dolzarb huquqbuzarliklardan biri hisoblanadi va xorijiy davlatlarda sodir etilgan keng ko'lamdagi amaliy misollar buni tasdiqlaydi.

Misol uchun, 2019-yil boshlarida jahon omma-viy axborot vositalari bergan xabarlariga asosan, AQShda o'qishga qabul qilish bo'yicha maslahatchi William Rick Singer pora evaziga kirish imtihonlari test natijalarini sun'iy ko'tarish bilan bog'liq korrupsiyaviy jinoyat sodir etgan.

Ushbu shaxsga 2011-2018-yillar davomida 32 nafar ota-onalar farzandlarini o'qishga kiritish uchun 25 mln AQSH dollari miqdorida pora berganligi aniqlangan. William Rick Singer tergov davomida o'tgan bir necha yillar davomida 750 yaqin oilalarning farzandlariga korrupsiyaviy yo'llar bilan o'qishga kiritishga yordam berganligini tan olgan [11, 9-b.].

Tahlillar so'nggi yillarda mamlakatimizda xorijiy OTMlar bilan bog'liq korrupsiyaviy jinoyatlar sodir etilishi ko'p kuzatilmoqda, jumladan, oxirgi ikki yarim yilda sodir etilgan korrupsiyaviy jinoyatlarning 16 tasi xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan bog'liq [10].

YUNESKoning statistik ma'lumotlariga ko'ra, 2017-yilda O'zbekistondan chetga o'qishga ketgan talabalar soni 34 990 nafarni tashkil etgan [12].

Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy huquqbuzarliklar shakllarini o'rganish va tahlil qilish sohada dolzarb huquqbuzarlik shakllarini aniqlashga, ularni bartaraf etish bo'yicha zarur choralar ko'rishga imkoniyat yaratadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, oliy ta'lim sohasida sodir etiladigan huquqbuzarliklar shakllari ro'yxatini qat'iy belgilab bo'lmaydi, chunki huquqbuzarlik sohaning har qanday

bosqichida va turli xil shaklda sodir etilishi mumkin.

Fikrimizcha, barcha sohalarida bo'lgani kabi oliy ta'lim sohasida ham korrupsiyaviy huquqbuzarlik shakllari makon va zamon bilan birgalikda o'zgarib boradi. Bu o'zgarishlar oliy ta'lim sohasida o'rnatilgan qonuniy tartiblar, texnik rivojlantirish, ta'lim berish usullari va boshqa omillar bilan bog'liq.

Masalan, yaqin tarixda mas'ul shaxslar OTMga kirish imtihonlarida pora evaziga abituriyentlarga oldindan kelishilgan savollarni bergan holda, korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etgan bo'lsa, bugungi kunda kirish imtihonlari test shakliga o'tkazilgani sababli ular pul evaziga uyali aloqa vositalarini imtihon xonalariga olib kirish shaklidagi korrupsiyaviy huquqbuzarlik ommalashgan.

Oliy ta'lim sohasida sodir etilayotgan korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni turli asoslarga ko'ra tasniflash mumkin. Shuning uchun oliy ta'lim sohasidagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni tasniflashda turli xil yondashuvlar mavjud.

Jumladan, A.Osipian oliy ta'lim sohasida sodir etilayotgan korrupsiyaviy huquqbuzarlik shakllarini turli asoslar bo'yicha tasniflaydi. Xususan, u huquqbuzarliklarning sodir etilish usuliga ko'ra: poraxo'rlik, nepotizm, favoritizm, firibgarlik, moddiy boyliklarni talon-toraj qilish, plagiat, kasbiy odob-axloq qoidalarini buzish, shartnomani buzish; sodir etilish sohasiga ko'ra: OTMga qabul qilish, ta'lim berish, bitirish, akkreditatsiya va litsenziyalash, professor-o'qituvchilarni tanlab olish va rag'batlantirish, tadqiqot olib borish, grantlar olish; subyektlar o'rtasidagi munosabatlarga ko'ra: davlat-universitet, tadbirkor-universitet, fakultet-talaba, fakultet-boshqaruv, davlat-talaba o'rtasida sodir etiladigan huquqbuzarlik turlariga tasniflaydi [13, 9-10-b.].

Shuningdek, u oliy ta'lim sohasidagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni alohida muhim sohalar bo'yicha tasniflaydi, ularni ta'lim berish, xizmat ko'rsatish va boshqaruv sohasidagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga bo'ladi. Talabalarning yakuniy ishini moddiy manfaatdorlik evaziga ijobiy baholashni ta'lim berish, talabaga moddiy manfaatdorlik evaziga yotoqxona berishni xizmat ko'rsatish, pora evaziga rektor lavozimiga tayinlashni boshqaruv sohasidagi korrupsiyaga misol sifatida keltiradi [14, 25-26-b.].

A.Osipian oliy ta'lim sohasidagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni tasniflashda sohadagi asosiy huquqbuzarliklarni qamrab olishga harakat qilgan bo'lsa-da, ayrim mezonlarga e'tibor qaratmagan. Misol uchun, korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni hudud, vaqt, tarqalish ko'lam mezonlari asosida tasniflamagan.

Korrupsiyaning oldini olish uchun sohada sodir etilayotgan huquqbuzarliklarni hudud, vaqt va tarqalish ko'lam bo'yicha tasniflash muhim ahamiyatga ega.

Zero, ayrim hududda sodir etilgan huquqbuzarlik boshqa hududlarda uchramasligi yoki o'ziga xos usulda sodir etilishi mumkin.

